

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

MATYAKUPOV S. G.

**ISTIQLOL DAVRI O'ZBEK
ADABIYOTINING NAZARIY
MASALALARI**

(she'riyat va hikoyachilik)

**(5A111201-o'zbek tili va adabiyoti
magistratura mutaxassisligi)**

**Toshkent
«Tafakkur avlodii»
2020**

UDK 82/821.0.821.51.0

BBK 83.3.(5uzb)

M 33

S.G.Matyakupov. Istiqlol davri o‘zbek adabiyotining nazariy masalalari (she’riyat va hikoyachilik). – Toshkent, «Tafakkur avlod» 2020, – 152 bet.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada istiqlol davri o‘zbek adabiyoti, xususan, she’riyat va hikoyachlikdagi o‘ziga xos tamoyillar ilmiy-nazariy tahlil qilinadi. Shunindek, yangi tipdagи adabiyotning vujudga kelishidagi ichki va tashqi omillar haqida mulohaza yuritilib, nazmiy va nasriy asarlarda bugungi kun qahramonining badiiy tasviri, shaxsni ijtimoiy-psixologik yo‘nalishda badiiy tahlil qilish, inson kechinmalari orqali voqelikni baholash, ramziy-majoziy va ruhiy faoliyat tasvirining o‘ziga xosligi, falsafiy-psixologik talqin hamda ijodiy o‘ziga xoslik masalalari yoritilgan.

O‘quv qo‘llanma 5A111201 - o‘zbek tili va adabiyoti magistratura mutaxassisligi o‘quv rejasidagi «Istiqlol davri o‘zbek adabiyotining nazariy masalalari» kursi o‘quv dasturiga muvofiq tayyorlangan bo‘lib, oliy ta’lim muassasalarini o‘zbek tili va adabiyoti magistratura mutaxassisligi, shuningdek, adabiyot nazariyasi va ijodiy faoliyat ixlosmandlari kabi keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:

I.Yoqubov – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

K.Quramboyev – Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, filologiya fanlari doktori, professor.

I.Qurbanboyev – Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat pedagogika universiteti, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

ISBN 978-9943-6761-6-9

© «Tafakkur avlod» 2020

KIRISH

Istiqlol adabiyotimiz oldiga xalqimizning azaliy merosini, milliy qadriyatlarini umuminsoniy mezonlar bilan o‘rganish va jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi o‘rni hamda ahamiyatini ko‘rsatish masalasini ko‘ndalang qo‘ydi. Zero, Muhtaram Prezidentimiz ta’kidlaganidek, «...adabiyot va san’atga, madaniyatga e’tibor – bu avvalo xalqimizga e’tibor, kelajagimizga e’tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho‘lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo‘qx».¹

Istiqlol yillarida adabiyotimizning barcha tur va janrlarida kuzatilayotganidek, she’riyat va hikoyachilikda ham sifat jihatdan o‘zgarish va yangilanish jarayoni davom etmoqda. Bu narsa birinchi galda qahramonlarning ma’naviy-intellektual faoliyatida, ruhiy hayotida namoyon bo‘layotir. Ma’naviy qadriyatlarni bashariy mezonlar bilan o‘rganish va baholash, o‘zlikni anglashning o‘sishi, xalqimizning ma’naviy sarchashmalar ildizlariga qaytishi asosida mustaqillik mafkurasining poydevorini mustahkamlashga intilish ma’lum darajada hozirgi davrdagi hikoya va she’rlarda o‘z aksini topmoqda.

Demak, dunyoqarashlar o‘zgarib, ularga bo‘lgan munosabatlar ham bashariy miqyos kasb etgan holda insonparvarlik xususiyatlari bugungi shaxs faoliyatining o‘zak asosiga aylandi. Jamiyat asoslarini, buguni va kelajagini ezgulik va go‘zallik qonuniyatları asosida yangilash, o‘zgartirish yangi shaxs ijtimoiy-ma’naviy faoliyatining bosh pafosi bo‘lib qoldi. Hozirgi o‘zbek adabiyotida badiiy ifodasini topayotgan ana shu o‘zgarishlarni nazariy va badiiy jihatdan tahlil qilish bugungi adabiyotshunosligimiz oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Ta’kidlash joizki, bugungi badiiy asarlardagi qahramon masalasi olam va odamni yangicha idrok etib, yangi dunyoni bunyod etayotgan inson konsepsiysi demakdir. Uning ruhiy takomili esa xalq va jamiyat hayoti bilan uzviy bog‘liq kechayotir. Ko‘rinadiki, adabiyot va san’at hamisha insonni ulug‘lab, tarannum etadi.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –T.: O‘zbekiston, 2018. – B. 181.

Insonning jamiyat, tabiat, olam sir-sinoatlari bilan aloqalari san'atning, shu jumladan, adabiyotshunoslikning ham eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Qolaversa, har bir davr adabiyoti o‘z qahramonlarining falsafiy-estetik dunyosi bilan bir-biridan farq qiladi. Shu ma’noda, mustaqillik davri she’riyati va hikoyachiligi qahramonlarining badiiy-estetik dunyosi, ma’naviy-axloqiy izlanishlari, intellektual darajasini, yaratilgan asarlarni o‘rganish, ilmiy-nazariy umumlashmalarga kelish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu borada o‘zbek adabiyotshunoslida so‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarning ko‘lami, miqyosi, ilmiy-nazariy saviyasi yaxshi samaralarga erishayotganligidan dalolat beradi. Ularda hozirgi o‘zbek she’riyati va hikoyachiligidida badiiy tafakkurning yangilanishi, milliy qahramon muammosi, badiiy-uslubiy izlanishlar kabi masalalar mustaqillik davri misolida ilmiy tadqiq etildi.

Ko‘rinadiki, har bir tarixiy-ijtimoiy davrda dunyoqarashlar o‘zgargani singari insonga bo‘lgan qarashlar va uning talqin xususiyatlari ham yangilanadi. Insonning ijtimoiy voqelikka munosabati ham zamonlar o‘tishi bilan o‘zgaradi. Shu ma’noda, mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti, xususan, she’riyati va hikoyachiligidida shaxsning ma’naviy-intellektual dunyosini davr, jamiyat va ijtimoiy voqelik bilan vobasta o‘rganish, tahlil qilishni hayotning o‘zi taqozo etayotir. Zero, inson yangi ijtimoiy tuzumlarni vujudga keltirib, ezgulik,adolat, go‘zallik prinsiplari asosida dunyo qiyofasini o‘zgartirib boradi. Ushbu jarayonda u o‘z shaxsiyatini insonparvarlik, millatsevarlik, vatanparvarlik xususiyatlari bilan ziynatlaydi, ya’ni hamisha komillik masnadiga yetishish uchun kurashib yashaydi.

ISTIQLOL DAVRI SHE'RIYATIDA YUZ BERGAN ADABIY- IJODIY O'ZGARISHLAR, YANGICHA IJODIY TAMOYILLAR TASNIFI

An'anaviy she'riyatda yangicha ifoda imkoniyatlari hamda badiiy topilmalarining kashf etilishi. She'riyatda yurt, inson va olam tasvirida yangi tashbehlar paydo bo'lishi, o'tmishni yangicha badiiy nigoh bilan ko'rish hamda lirik kechinmalarning kutilmagan tasvirlar hamda tashbehlar bilan boyishi. She'riyatda dialog yaratish mahorati. Dialogda falsafiy-psixologik talqinning o'rni. Zamona viy o'zbek she'riyatidagi ijodiy-uslubiy izlanishlar.

Tayanch tushunchalar: istiqlol va yangi tarixiy voqelik. Davr va qahramon. Obraz. Ilmiy-nazariy qarash. An'aviylik. Novatorlik. Badiiy ifoda. Dialog va monolog. Lirik kechinma.

Adabiyot va san'at hamisha insonni o'zining fe'l-faoliyati, hayotiy a'molini tahlil qilish, shuningdek, tabiat va jamiyat bilan murosada yashash kabi masalalar yuzasidan mulohaza yuritishga undaydi. Zero, har bir inson alohida bir olam. Shu ma'noda, olam sir-sinoatlari cheksiz bo'lgani kabi odamning ham o'ziga xos ichki dunyosini mukammal o'rganish imkonsiz narsa. Har bir tarixiy-ijtimoiy davrda dunyoqarashlar o'zgargani singari insonga bo'lgan qarash va uning talqin xususiyatlari ham o'zgaradi. Insonning ijtimoiy voqelikka munosabati ham zamonlar o'tishi bilan yangilanadi. Ushbu masalalarning badiiy adabiyotda talqin qilinishi turli xil o'ziga xos tamoyillar va ijodiy-uslubiy izlanishlarni vujudga keltiradi.

1.1. She'riyatda dialog yaratish mahorati. Dialog lirikada ifoda uslubi murakkabligini tayin etadigan vosita hisoblanadi. Garchand, muloqot shakli va tasvirida muallif idroki monologlashgan tizimni hosil qilsa-da, uning asosiy vazifasi (nuqtayi nazar ziddiyati) tasavvur mohiyatini aniqlashga yo'naltiriladi. O'z o'rnida, bayon qurilishi o'zaro mulohaza tartibini belgilaydi. Shu ma'noda, nutqiy ong davr tarixiy-madaniy hayotidan oziqlanadi. Unda ideal obraz va adabiy subyekt orasidagi hamkorlik

asosida vogelikka taqlidan yaratilgan hamda realistik mohiyatga yo‘g‘rilgan ramziy-majoziy talqin vujudga keladi.

Erta tong shamoli sochlarin yoyib,
Yonimdan o‘tganda so‘rab ko‘ramen.
Aytadir: Bir ko‘rib, yo‘limdan ozib,
Tog‘ va toshlar ichra istab yuramen!
Bir ko‘rdim men uni – shunchalar go‘zal,
Oydan-da go‘zaldir, kundan-da go‘zal!¹

Cho‘lponning ma’lum va mashhur «Go‘zal» she’ri yaxlit holda dialogik munosabatlar asosiga qurilgan, deyish mumkin. Adabiy talqinda lirik «men» vaziyatni oydinlashtirish niyatida yulduz, oy, quyosh hamda shamol bilan muloqotga kirishadi. Maqsad – sirli-jozibali ma’no kasb etayotgan go‘zallik qiymatini aniqlashdan iborat. Mantiqiy ta’kid (oydan-da go‘zaldir, kundan-da go‘zal) muntazam takrori yashirin mohiyatni yanada quyuqlashtirish barobarida ifoda aniqligini ham ta’minlaydi. Suhbat izchilligi tahlil yoyiqligini muayyan zanjirga yig‘adi. Hissiyot va kayfiyat ustuvorligi satrlarni kuchli hayajon bilan to‘ldiradi. E’tiborli jihatni, qahramon iztiroblari o‘quvchi qalbini yaralamaydi, balki ishonch, iroda hamda umid uyg‘otadi.

Zero, «Har bir lirik janr badiiy ijod olamida o‘zining g‘oyaviy-badiiy vazifasi bilan tug‘iladi. Aks holda janr xilma-xilligi to‘g‘risida gap bo‘lishi mumkin emas. Odatda, she’r hayotiy zaruriyat, ma’naviy-ruhiy ehtiyojdan dunyoga keladi. Janr kategoriyasi ana shu ehtiyoj va zaruratning turli tarzda shakllanishi, shaklga munosib mazmun, mazmunga munosib shakl holida ko‘rinishidir»². Darhaqiqat, har bir badiiy shakl tushunchasi g‘oyaviy-estetik vazifadoshlikka tayanadi. Hayotiy zaruriyatning ruhiy-ma’naviy ehtiyojga aylanishi ichki funksional xususiyatlardan kelib chiqadi. She’rda monologik ongning dialogik munosabatlarga ko‘chishi ham joriy holat bilan tavsiflanadi. Uslubiy xilma-xillik bilvosita va bevosita janr imkoniyatlarini belgilaydi. Ichki

¹ XX asr o‘zbek she’riyati antalogiyasi. –T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2007. – B. 11. (mazkur manbadan olingan boshqa misollar qavs ichida «Antologiya» tarzida berilib sahfasi ko‘rsatiladi).

² Haqqulov I. Ijod iqlimi. –T.: Fan, 2009. – B. 204.

vazifadoshlik taqsimoti aynan badiiy yaxlitlikni tayin etadigan yetakchi xususiyatlarni belgilaydi.

- Mendan so‘rasalar ne deyman?
- Degin, ko‘rganim yo‘q, kelmadı.
- Meni qiyab so‘rasalar-chi?
- Degin, ko‘rganim yo‘q, kelmadı.¹

Gradatsiya usulida rivojlantirilgan parchada dramatizm tabiiyligi saqlanadi. Dialogning kechishi hayotiy mantiqni yashirishga intiladi hamda so‘zlashuv tili ifoda illustratsiyasini namoyon qiladi. Ohang yordamida to‘ldirilgan ham ijtimoiy, ham tavsifiy taqsimot tasvirda asosiy o‘ringa ko‘tariladi. Shartli maneradan mahrum talqinda muallif «men»ini sharoit taqozosiga ko‘ra o‘zgacha ifodalashga moyillik kuzatiladi. Ijodkor bayoni va qahramon nutqi o‘rtasidagi mushtaraklik ong hamda tuyg‘u uyg‘unligidan mustahkamlanadi. Bevosita kontrast ta’sirchanlik asosida tushuncha-kechinma tig‘izligini namoyon etadi. Shaxsning ijtimoiy-ruhiy ikkilanganligi ritorik munosabatni hosil qilishning eng qulay usuli, unda dramatik vaziyat badiiy ma’no-mazmun vobastaligini aniqlovchi estetik talqin predmeti darajasiga ko‘tariladi. Binobarin, tasdiq inkorni taqozo etmasligi tasavvurni reallashtiradi.

Darhaqiqat, adabiyotshunos Q.Yo‘ldoshev ta’kidlaganidek, «Usmon Nosir she’riyati – obrazli she’riyat. Uning she’rlarini anglamoq, ulardagi go‘zallik tuyg‘ularidan bahramand bo‘lmoq, shoirning holat-u kayfiyatini tushunmoq uchun u yaratgan timsollar olamiga yaqinlasha bilmox kerak. Shoirning «Yurak» she’rini maishiy gaz bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Uni shu vaqtga qadar odatlanganimiz usul bilan tahlil etish aslo mumkin emas. «Yurak, sensan mening sozim, Tilimni nayga jo‘r etding. Ko‘zimga oyni berkitding, Yurak, sensan ishqibozim». O‘z yuragini soz deb ta’riflashning o‘zi kutilmagan obraz yaratish yo‘lidagi birinchi qadam. Shoirning yuragi – sozi uning tilini nayga jo‘r etdi. Nega? Axir yurakning o‘zi soz edi-ku? Nega «tilimni nayga jo‘r etding» tarzida yana unga xitob qilinmoqda? Nima uchun aynan nayga jo‘r etildi ekan til?». ¹

¹ Usmon Nosir. Tanlangan asarlar. –T.: Adabiyot va san’at, 1970. – B. 18.

¹ Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. – T.: Yangi asr avlod, 2006. – B. 338.

Ritorik murojaat keskinligi timsoliy munosabataro ziddiyatni teranlashtiradi. Vaholanki, obrazda dunyoqarash tafovuti (ijodkor-kitobxon) uyg‘unlashar ekan, tushuncha ishlatalish sathi badiiy yaxlitlik kasb etadi. O‘z navbatida, hayotiy va badiiy haqiqat orasida shakllanadigan estetik ong dialogik aloqani hosil qiladi. Nutqda grammatik qismlarning sintaktik tanlovi matn butunligini vujudga keltiradi. Aniqlik, mantiqiylik, ishonch va ta’sirchanlik yig‘indisi aynan ijodiy salohiyatdan barpo bo‘ladi.

«Dialoglarda lisoniy va nolisoniy vositalardan foydalanish aloqa-aratashuv holati, kommunikantlarning o‘zaro munosabatlari, suhbat mavzusi, muloqotning mohiyati va vaziyatdan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Shuning uchun dialogik tahlil obyekti alohida olingan gaplar tahlilidan emas, balki matn (mikro-ayrim hollarda makromatn) tahlilidan iborat bo‘ladi. Dialogik matn ikki shaxsning mavzuviy va mantiqiy bir butunlikni tashkil etadigan, biri ikkinchisini to‘ldirib, aniqlab, izohlab keladigan gaplar yig‘indisidan tashkil topgan bir butun nutqiy birlikdir.² Darhaqiqat, dialogik nutqda dunyoqarash, nuqtayi nazar va baholash mezoni birlashganda erkin tahlil yetakchilik qiladi. Tasvirdagi badiiy to‘qimalarning ham subyektiv, ham obyektiv mohiyati muayyan muvozanatga bo‘ysunadi. Tushuncha, so‘z va mushohada tabiatan matn izchilligini ta’minlaydi, muloqot davomida yangi ovozlar nisbiy mustaqilligi badiiy fikr mantiqiy taraqqiyotini gavdalantiradi.

Jannat der: – Xush kelding, ey karam ahli.

A’rof der: – Sabr qil, ey alam ahli.

Bu yerda hech banda javobsiz qolmas.

Do‘zax der: – Yon endi, muttaham ahli.³

Odatda, diniy ma’rifat mohiyatidan kelib chiqadigan mantiq ma’naviy yuksalishga ishora etadi. Uch o‘lchamda yorqin chizgilarga aylangan muhokama inson umri mohiyatini tahlil qiladi. Amal hamda uning hisob-kitobi bandasining oxirat maydonini belgilaydi. «Karam ahli» hidoyatga erishgan mo‘minlar ahkomii, «alam ahli» ayro yo‘lda arosatga mahkum adashganlar qismati, «muttaham ahli» yovuzlikka yo‘g‘rilgan shayton nayranglari.

² Saidxonov M. Dialogik nutqning kommunikativ tahlili // O‘zbek tili va adabiyoti. – № 2. 2004. – B. 70-71.

³ Oripov A. Bedorlik. –T.: Yozuvchi, 1999. – B. 83.

Murojaat zamirida ta'kid uzlusizligi, ijtimoiy hukm-xulosa keskinligi va munozaraga moyillik jilvalanadi. Muallif monologidan dialogik ziddiyatiga ko'chadigan lavhada insonni oliv masnadda ko'rish istagi mujassam. «Hech banda javobsiz qolmas!» qat'iy yechim shafqatsizligi kitobxon qalbini larzaga soladi. Aslida she'riyatda ifoda tugallanmaganligi hamda o'zgaruvchanligi talqin imkoniyatlarini kengaytirishi e'tirof etilgan hodisa. Aynan badiiy idrok namoyishi shakllararo nutqiylar hamkorlikka tayanadi.

A.Oripov she'riyati xususida Q.Yo'ldoshev shunday mulohaza yuritadi: «Abdulla Orif she'riyati bilan o'zbek lirkasiga ko'ngil dardlari suvratlari, orzu-armonlar fojiasi, ruhiy iztiroblar manzarasi kirib keldi. Bu she'riyat yuzaga kelgan davrda shaldoiroq so'zлarni qofiyaga solish, jahoniy mavzularda na'ravor satrlar tizish odat edi. Mavzuni she'r emas, balki she'rni mavzu mukarram qilardi. Dunyo va undagi olamshumul hodisalar haqida hayqirish talab etilardi. Abdulla Orif quruqshagan o'zbek she'riyatiga o'ychil g'am va g'amchil o'y olib kirdi. Shoir alohida bir odamning ichki dardlari haqida qalam surdi, o'nga botdi. Bu odam shoирning o'zi edi. Binobarin, bir odam to'g'risida hayqirish, baqirish noqulay bo'lardi, u haqda pichirlab gapirish, uning g'amlari to'g'risida ichda hazin she'rilar o'qish lozim bo'lardi. Chunki shovqin, baland tovush odamni odamdan yiroqlashtiradi, samimiylikdan mahrum etadi».¹

Shoir shaxsi samimiyyati aslida ko'ngil izhori va ruh falsafasini tutashtiradi. Qalb manzaralarida past-baland mavjlar almashinuvini inobatga olsak, masala mohiyati yanada oydinlashadi. Tasvir qabariqligi hamda ifoda mustaqilligi bir-birini taqozolaydigan qutblardir. Unda ruhiy iztiroblar suvrati shodon lahzalarni anglatadi, orzu-armonlar fojiasi saodatni ulug'laydi, hazin tuyg'ular silsilasi ruhiyat tovlanishlarini hosil qilib ifoda ehtiyoji nozik hissiy-shuuriy pardalarni hayotiy zaruratga aylantiradi.

«She'r qalb bilan hayotning qo'shiluvidan dunyoga keluvchi farzanddir. Demak, u har ikkalasining fazilat-u kechinmalarini o'zida bayon etishi shart. She'rning go'zal bo'lishi uchun ma'no ham kerak. Satrlarga kattaroq ma'no ortish uchun so'zni tanlay bilish juda katta mehnat talab qiladigan ishdir. Busiz ta'sirchan she'r

¹ Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. –T.: Yangi asr avlod, 2006. – B. 251.

dunyoga kelishi amri mahol. Chiroyli, ammo aniq bir ma'no anglatmaydigan so'zlar shodasidan tuzilgan she'r qulqoqqa yaltiroq qog'ozning shaldirog'iday ovoz beradi-yu, o'quvchiga ta'sir qilmaydi, yurakni jizzillatmaydi. Bunday so'z o'yiniga berilishlarni ijodkorning o'ziga xos uslubi deb oqlashga urinishlar ham biroz xavf tug'dirmoqda. Shunchaki didsizlikdan, hafsalasizlikdan boshqa narsa emasligini isbotlash kuyunchak adabiyotshunoslikning vazifasi ekanligini ta'kidlash o'rnlidir¹ deb yozadi, adabiyotshunos Y.Solijonov. Ushbu mulohazada bir necha nuqta e'tiborni tortadi. Birinchidan, she'rda tuyg'u va ong ichki ziddiyati tavsiflanadi, ikkinchidan, shakl va ma'no tig'izligi hissiy idrok ikkilamchi mohiyatini dalolatlaydi, uchinchidan, har bir so'zda tabiiylik va sun'iylik o'zaro to'qnashadi, to'rtinchidan, so'z ma'no tovlanishi va badiiy vazifadoshligi yaxlit estetik hodisaga aylansagina asl san'at namunasi maydonga keladi.

Abdulla Oripov ijodida falsafiy mushohadalar va o'tkir hajviy mazmunga ega bo'lgan turli mavzulardagi dialog asosiga qurilgan she'rlarni ko'plab uchratamiz. Xususan, shoirning «Ajrim» she'rida ota-bolaning savol-javobi orqali insoniyat uchun eng muhim qadriyatlar sanalgan do'stlik, vafo va sadoqat masalalari haqida mushohada yuritiladi:

Dunyoning yarmini sayr etdi o'g'lon,

Kelib otasidan so'radi ajrim:

– Chin do'st topolmadim, nega otajon?!

Ota esa jim.¹

She'rda tasvirlanishicha, dunyoning yarmini aylanib chiqqan o'g'il o'z otasiga «Chin do'st topolmadim nega otajon?» «Vafo topolmadim, nega otajon?» deya murojaat qiladi. Ota esa bu savollarga faqat sukut saqlash, jim turishdan boshqa javob berolmaydi. She'rning oxirgi bandida bir xil mazmunda takrorlanayotgan savollardan toqati toq bo'lgan otaning o'g'liga bergen javobi shunday tasvirlanadi:

– Nega savolimga bermaysiz javob?!

¹ Solijonov Y. Haqiqatning sinchkov ko'zлari. –T.: Milliy kutubxona, 2009. – B.160.

¹ Oripov A. Tanlangan asarlar. II jild. –T.: G.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. -B. 335

O‘g‘lon turar edi nolakor, haqir.

Ota javob berdi uh tortib shu tob:

– Sen ham bor narsani axtar-da axir!.. (335- bet).

She’rda Ota tomonidan berilgan javob insoniyat ustidan chiqarilgan qat’iy hukm-xulosa sifatida yangraydi. Lekin she’r mazmunidan kelib chiqadigan ma’no hozirgi kunda insoniy tuyg‘ular butkul yo‘qolib ketdi, degani emas. Shu ma’noda, she’rning birinchi misrasidagi «Dunyoning yarmini sayr etdi o‘g‘lon» jumlesi zamiridan har bir o‘quvchi yakuniy xulosani har xil qabul qilishi mumkin.

A.Oripov ijodida o‘tmish va bugun masalalari, xususan, buyuk tariximiz, ajdodlarimiz va ular amalga oshirgan ishlar hamda unga nisbatan bugungi munosabatlar o‘z aksini topadi. Shoiring «Aytishuv» she’rida ayni shu kabi muammolar badiiy talqin qilinadi. Ushbu she’r ham ajdodlar va avlodlar dialogi asosida yoritiladi:

- Samarqand-u Buxoroni bizlar qurbanmiz.
- Bizlar esa siz qurganni borib ko‘rganmiz.
- Shaxmatni biz o‘ylab topdik, shavqlarga to‘ldik.
- Bizlar esa uni o‘ynab champion bo‘ldik.
- Ipakni ham yetishtirdik qadim zamonlar.
- Bizlar esa u ipakdan eshdik arqonlar... (104- bet).

Ushbu dialogda ajdodlarimizdan bizga meros bo‘lib qolgan buyuk obidalar, amalga oshirilgan olamshumul ishlar ta’kidlab o‘tilmoqda. Avlodlar tomonidan aytilayotgan satrlarda ham go‘yoki ajdodlar merosi takomillashtirib, yangi zafarlarga erishilayotgani ko‘rsatilayotgandek tuyuladi. Lekin she’rda shoir ifodalamoqchi bo‘lgan maqsad bu emas. She’r mazmuniga chuqurroq nigoh tashlasak, unda insoniyatning tobora yovuzlashib, milliy-madaniy meroslarni mensimay qo‘yishi va tabiat bilan shavqatsiz kurashayotganligi hamda uning ayanchli oqibatlariga diqqat qaratiladi. Bu narsalar she’rning keyingi misralarida aniq ifodalandi:

- Til yaratdik, yozuv tuzdik go‘zal hamda boy.
- Biz ularga muzeylardan topib qo‘ydik joy.
- Bizdan qolgan sho‘x daryolar, ko‘llar musaffo.
- Ularni ham quritgaymiz bir kun, inshollo...
- Biz poroxni xumga tiqdik kashf etgan oni.
- Xum ustiga o‘tirg‘izdik bizlar dunyoni (104- bet).

Shoir talqiniga ko‘ra, inson tabiat farzandi: unda qanchalik oqillik, zukkolik mujassamlashgan bo‘lsa, shunchalik u yovuz hamdir. Inson komil bo‘lishi uchun ezgulikni, go‘zallikni,adolatni himoya qiladigan, yoqlaydigan fazilatlar egasi bo‘lishi lozim. Shu ma’noda, qanchalik achchiq bo‘lmasin, insonga o‘z aybini, o‘zi ko‘ra olmagan va bilmagan qalb haqiqatini, hayot haqiqatini ro‘yrost aytishimiz kerak, degan fikr ilgari suriladi.

She’rning ana shu satrlarida A.Oripov ijodiga xos bo‘lgan muhim bir tamoyil belgisini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, hayot hodisalarini, turmush realliklarini realistik yo‘sinda ifodalash, inson fe’l-faoliyatini teran tahlil etish yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu narsa shoir izlanishlarida ijtimoiy faollikning kuchayishini belgilash bilan barobar asarlaridagi badiiy-falsafiy ma’nolar quyuqligini ham belgilaydi.

Hayot haqiqati bilan qalb haqiqatining uyg‘un sintezi, davr psixologiyasi bilan qalb manzaralarining omuxta ifodasi A.Oripov she’rlaridagi falsafiy-psixologik talqinining o‘ziga xos ko‘rinishidir. Ushbu tamoyilning qutlug‘ samarasi sifatida psixologik holatlar, kayfiyatlar silsilasidan hayotning ma’nosи, tiriklikning mohiyati xususidagi falsafiy ma’nolar kelib chiqadi.

XX asr o‘zbek she’riyatida o‘ziga xos o‘rin tutadigan hassos shoirlardan biri Muhammad Yusufdir. Millat orzu-istiklari, manfaat-ehtiyojlari hamda maqsad intilishlarini xalqona ohangga solgan shoir badiiy izlanishlarida tuyg‘ular bezovtaligi ruhiyat manzaralariga evriladi.

- Ona meni nega tug‘ding?
- Yurting uchun.
- Ona meni nega tug‘ding?
- Baxting uchun...
- Ona meni nega tug‘ding?
- Zoriqqandan.
- Ona meni nega tug‘ding?
- Zerikkandan...¹

Jamiyat yuragidagi og‘riqli nuqtalarni topa bilish, iztiroblarning suratini chizishga moyillik, xalq dardining o‘ziga xos ifodasini

¹ Muhammad Yusuf. Saylanma. – T.: Sharq, 2007. – B. 154.

ko'rsatish tamoyili ijodkorning estetik prinsiplarini belgilaydi. Unda ko'zga tashlanadigan eng muhim xususiyat tasvir aniqligi va tuyg'ular tiniqligidir. Badiiy fikr mantiqiy taraqqiyotining hayotiy mezonlardan kelib chiqishi hamda ma'no-mohiyati bilan kitobxon e'tiborini tortadigan adabiy talqinda sodda samimiyat va ravon ifoda usuli uyg'unlashadi. Lavhada ona va farzand orasida kechgan odatiy suhbat yuksak ritorik munosabat hosil qiladi. Aslida monologlashgan dialog mohiyatida nutqiy tavsiflash hukmronlik qiladi. Ijtimoiy-ruhiy tahlildan mantiqiy tafakkurga o'tadigan muhokamada hayotiy-maishiy vaziyat tasvir predmetiga aylanadi.

She'rda berilayotgan javoblarda teran falsafiy mushohadakorlik mavjud. Albatta, bu masala javoblarda yaqqol o'z aksini topadi. Bir qarasak oddiygina ona-bolaning savol-javobidek ko'ringan she'r shoirning yuksak falsafiy-mantiqiy tafakkuri orqali badiiy kashfiyotga aylangan. Diqqat qilinsa, javoblarda orqaga chekinish seziladi. Berilgan savol esa shoir qalbini bir umr qiy nab kelgan eng katta muammo qabilida namoyon bo'ladi. Ushbu jumboqlarga javob topish uchun, avvalo, she'rdagi lirik kechinmaning ifoda qilinishi masalasiga ahamiyat qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Biz sobiq ittifoq davrida jamiyat insonni tarbiyalaydi, kamol toptiradi, o'z kelajagidan umidvorlikni shakllantiradi, deb keldik. Lekin hayot buning butkul aksi bo'layotganligini keyin angladik. Muhammad Yusufning ushbu she'ri istiqloldan oldingi yillarda yozilgan. To'g'ri, she'r shunchaki bir o'tirishda yaratilgan bo'lishi mumkin, lekin uning vujudga kelishiga asos bo'lgan savol shoirni butun umr o'ylantirib kelgan. Zero, adabiyotshunos olim B.Sarimsoqov ta'kidlaganidek, «Lirik kechinma ba'zan oniy ruhiy holat sifatida kechib, estetik qimmat kasb etuvchi mahsul beradi va yo'qoladi. Ba'zan esa u muayyan tugallikka, estetik qimmat kasb etuvchi asar sifatida shakllana olmay, ijodkor qalbida, shuurida uzoq vaqtlar saqlanib yuradi».¹

Shu ma'noda, aytish mumkinki, she'rdagi har bir band orasida ma'lum bir vaqt, hayotiy saboq, aqliy idrok mujassamlashgan. She'rning mazmun-mohiyatiga chuqurroq nigoh tashlasak, takrorlanayotgan bir xil savolga berilayotgan har xil javoblar orqali

¹ Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T., 2004. – B. 85.

shoir mavjud tuzum va unga nisbatan bo‘lgan e’tiqodidan qaytayotgan qahramon – Ona siymosini gavdalantiradi. Chunki, asarda lirik qahramon mavjud voqelikdan tom ma’nodagi «yurt uchun», fidokor insonlarni, «baxt uchun» kurash samarasini aniq ko‘ra olmaydi. Ta’bir joiz bo‘lsa bunday ulug‘ tuyg‘ularni tasavvur ham qila olmaydi. O‘zidan nasl - nasab qoldirish, avlodini davom ettirish maqsadida «zoriqqandan» farzandini dunyoga keltirgan Onaning bu javobidan lirik qahramon battar hayratga tushadi. Chunki, kelajak avlodning taqdiri, istiqboli haqida qayg‘urmayotgan muayyan muhit g‘oyalalarini idrok etib ulgurgan farzand endi tamomila norozi kayfiyatda yana shu savolni takrorlaydi. Farzand qalbini aniq his qilib turgan Ona esa bu savolga ortiq bardosh berolmasligi sababli qisqagina: «zerikkandan», - deya javob berishga majbur bo‘ladi.

Muloqot bolaning o‘z onasiga bergen savollari hamda qaytarilgan javoblardan iborat ekan, ketma-ket berilgan so‘roqlar ancha zalvorli, biroq unga munosabat biroz yuzakidek taassurot uyg‘otadi. U bejiz emas, albatta! Odamzod to‘g‘ri javobdan bo‘yin tovlaganda shunday yo‘l tutadi. Eng muhim, muallif inson hayotining mohiyatiga teranroq kirib borishga urinadi.

Dialogning psixologik ketma-ketligi anglash ehtiyoji ikki yo‘nalishi bilan izohlanadi: birinchidan, nutqiy munosabat qahramon holat-harakati ifoda uslubini tasdiqlaydi, ikkinchidan, muallif ijodiy niyati obyektivlashtirilgan aloqa manzarasini tasvirlaydi.

Ko‘rinadiki, tahlil qilingan she’rda ifodalangan badiiy-falsafiy g‘oyalar tizimi o‘ziga xos ahamiyatga molik. Zero, ushbu mo‘jazgina she’rdan biz o‘tgan davrning soxta g‘oyalaridan aldangan insonlar qismati hamda bu g‘oyalarning bugungi kundagi qadr-qimmati va uni ardoqlash, qadriga yetish borasida o‘zimizga tegishli xulosalar chiqaramiz.

Ta'kidlash kerakki, mantiqiy jihatdan inson doimo o‘z qalbida bir-biriga qarama-qarshi mulohazalar, his-tuyg‘ular bilan yashaydi. Shu ma’noda A.Oripov she’rida ota – bola, M.Yusuf she’rida esa ona – bola dialogiga chuqurroq nigoh tashlansa, ularda juda katta mantiqiy ma’no mujassamlashgan. Unda shoirlarning hayotga bo‘lgan munosabati, inson zotining qadr-qimmati, ular fe‘lidagi fazilat va illatlari aks ettirilgan.

Umuman, mazkur she'rlardagi dialoglarda shoirlar hayot haqiqatini ro'y-rost aks ettirish, haqiqat va adolat tushunchalari xususida o'zining falsafiy mulohazalarini bayon etish orqali kitobxon bilan hayotga va mavjud ijtimoiy voqelikka befarq bo'lmaslik, davr mohiyatini anglash haqida suhbatlashayotgandek tuyuladi.

Turfa uslubiy birliklarning chuqur va ravshan tafovuti tasvir yorqinligini oshiradi. Vaholanki, qahramon nutqi va muallif bayoni o'rtasida bevosita yoki bilvosita aloqa hamisha kuzatiladi. To'g'rirog'i, personaj ichki olami ijodkor qalb kechinmasidan oziqlanadi. Shu ma'noda, «o'zga nutqi» tuyg'ularni ifodalash barobarida shoirning psixologik jihatdan o'z-o'zini anglash shakliga aylanadi. Muallif bayoniga qorishib ketgan «ichki nutq» shaxs irodasining teran chizgisini mantiqiy jihatdan dalolatlaydi.

- Boshimdan qor erimadi, onajon!
- Kuyma senga quyosh beraman, bolam!
- Ko'zimdan yosh arimadi, onajon!
- Sen chidaysan, bardosh beraman, bolam!
- Ona, mening oyog'imdan chaldilar.
- Dunyosi shu, menam kuyaman bolam!
- Nima qilay yuragimda qasos bor?
- Men tangrimga aytib beraman, bolam!
- Bu bo'htonlar ichra qandoq yashayman?
- Sen shoirsan, seni bilaman, bolam!
- Ona, yomon sanchiyapti yuragim...
- Yo'q-yo'q...

Endi nima qilaman, bolam!!!¹

G.Asqarovaning mazkur she'rida ona va qiz suhbati inson ibtidosi hamda intihosidan bahs yuritadi. Hayot, uning mazmun-mohiyati haqidagi og'riqli o'ylar she'r falsafasini belgilaydi. Unda bag'rikeng volida ijodkorning qalb iztiroblariga malham qo'yishga intiladi. Shoirlik qismati aslida dard iskanjasidan o'tadi. Garchand, odamzod taqdiri ma'naviy kamolotga daxldorlik kasb etsa-da, unga eltadigan yo'llar ziddiyat-u murakkabliklarga to'la. Biroq yovuzlikka qarshi buyuk bir qudrat mavjud bu – ezgulik! Dastlabki

¹ Asqarova G. Bedor qo'ng'iroq. – T.: Navro'z, – B.59.

ikki misra joriy haqiqatni yana bir bor ta'kidlaydi. Muloqotda asosan «yurak» timsoliga mantiqiy urg'u beriladi. Binobarin, saodatga eltuvchi so'qmoq ko'ngildan boshlanadi. Adabiy talqinda e'tiborni tortadigan jihatlardan biri shuki, shoira inson tana a'zolari orqali (bosh, ko'z, oyoq, yurak) hayotiy ziddiyatlarning falsafiy teranligini umumlashtiradi. Ritorik ohangning kulminatsion nuqtasi (yo'q, yo'q) onaning ojiz holatini yashira olmaydi.

«She'riyatga muhabbat – jamiyat doirasidagi xilma-xil munosabatlardan ozgina vaqt bosh olib ketish istagimizning eng go'zal ko'rinishlaridan biri. Ko'ngli bezovta zot daryo bo'yiga borib, sokin oqayotgan suvga uzoq tikilib o'tirsa ko'ngli tinchlanar ekan. She'riyat ham notinch inson uchun ma'naviy bir daryodir. Lekin ko'pchilik shoirlarning ijodi shahar o'rtasidan oqib o'tadigan soyning suviga o'xshaydi. Ularning she'riyati yomg'irdan qochgan she'rxonni qorga tutib beradi. Ijtimoiy haqiqatni tiklash uchun o'rtta ko'chada jizzakilik qilish yarashmaydi she'riyatga. Agar jinoyatchi yarador bo'lsa, avval uni davolab, so'ng qatl etadilar. Bunda davolash jarayoni – she'riyat. She'riyatda inson yuragining sir-asrori aks etadi. Inson yuragining sirli tomoni shundaki, u dunyoga avval boshdanoq zabit etilgan holda keladi. Shuning uchun non deb yig'lamaydi u, obro' deb o'kinmaydi. Yurak – g'oyibdan kelib ichimizga o'mashgan elchi. U, alaloqibat, o'sha g'oyibning irodasiga bo'ysunadi. She'riyat esa ichimizdagи elchilarning xos suhbatidir»¹ – deb yozadi adabiyotshunos Rahimjon Rahmat.

Darhaqiqat, she'riyat ko'ngil va ruh orasidagi ilohiy aloqani qayta tiklaydi. His, kechinma va tuyg'uning ijtimoiy-falsafiy mohiyati faqat tahlil jarayonidagina muayyan salmoq kasb etadi. So'zning ichki mohiyatini esa talqinga moyillik belgilaydi. Nazmning tayanch nuqtasini muhokama ta'minlar ekan, uning mag'zini monologlashgan ongning dialogik ko'rinishi tayin etishi ayonlashadi. Unda anglangan haqiqatning anglanmagan mohiyati ustuvordek ko'rinati.

Otam quchar ekan nabirasini

Bosh uzra – quyoshga ko'tarib baland:

¹ Rahimjon Rahmat. Jannat sog'inchi // O'zbek adabiy tanqidi tarixi antologiyasi. – T.: Turon-Iqbol, 2011. – B. 486-487.

– Sen bilan tanisin dunyo o‘zini,
Gulxanin o‘chirgil olamning, bolam!²

Xalqona ifoda yo‘rig‘iga solingen lavhada falsafiy mushohada harorati kuzatiladi. Nabirasini bosh uzra ko‘tarayotgan bobo unga nisbatan ko‘nglidagi ezgu tilaklarini bildiradi. Farzandni quyoshga qarata ko‘tarish zamirida ham teran ramziylik mavjud: oftob hamisha ezgulik va saodat timsoli vazifasini o‘tagan. Qahramon murg‘ak go‘dakka «sen bilan tanisin dunyo o‘zini» deya murojaat qiladi. «Gulxanin o‘chirgil olamning, bolam!» istagi ortida yaxshilikka intilishning og‘ir yuki mujassam. Borliq sir-sinoatlarini sokin kuzatayotgan quyosh keyingi baytda lirik «men» ko‘ksida mangu porlagan olovga aylanadi. She‘r aslida dialogik xarakterda bo‘lsa-da, qariyaning monologlashgan nutqi sifatida namoyon bo‘ladi. Dramatik namoyish mushohadaning ham tasdig‘i, ham inkori uyg‘unlashuviga zamin hozirlaydi. Muallif odatdagি bayon usulidan badiiy umumlashma yaratishga erishadi.

Adabiyotshunos olim D.Quronov ta‘biri bilan aytganda, «She‘r nasriy asardan ko‘ra kuchliroq estetik ta‘sir etib, o‘ziga xos zavq bera olishi bilan ajralib turadi. Albatta, she‘rning bu sifati unda histuyg‘uning mos ritm, musiqiy ohangda ifodalaniши bilan ham bog‘liq. Biroq she‘rning ta‘sir kuchi birgina ohangdorlik bilan ta‘minlanmaydi. She‘r his-tuyg‘u ifodasi ekan, uning ta‘siri ko‘p jihatdan shu obraz asosida amalga oshib, obrazda shoир o‘z histuyg‘ularini tavsiflab yoki xuddi musavvirday tasvirlab ifodalashi mumkin.¹ Vaholanki, lirikada tushuncha mohiyati hamisha mavhumlikdan oziqlanadi. Ushbu murakkablik darajasini aynan tuyg‘u va ong o‘rtasida aloqa uzviyligi tayin etadi. Unda ijodkor tomonidan estetik obyektga yuklatilgan g‘oyaning ko‘pqirraliligi yetakchi mavqe kasb etadi. Eng muhim, badiiy munosabat teranligi ong miqyoslari o‘ziga xosligini ta‘minlaydi. Tasvir hamda tasavvur tahlili esa hayotiy qamrov va badiiy idrok orasidagi raqobat maydonini shakkantiradi.

Sahobalar dedi: – Qaniydi zug‘um,
Qanday g‘am bag‘ringiz tig‘lamoqdadir?

² Nosirov A. Bahs. – T.: Yosh gvardiya, 1988. – B. 62.

¹ Quronov S. She‘riyatda geometrik izlanishlar // Sharq yulduzi, 2011. – № 3. – B. 173

Rasul javob qildi: – Bir osiy shu zum,
Qabrida qon qaqshab yig‘lamoqdadir.¹

«Hikmat sadolari» turkumiga kirgan adabiy talqinda o‘zaro muloqot diniy-ma’rifiy mohiyatni gavdalantiradi. Sahobalarning savoliga Rasuli alayhissalom javobi muammoga oydinlik kiritadi. Payg‘ambarimizning oddiy banda holatidan g‘ussaga cho‘mishi hayotiy asoslarga ega. Qabr boshida u insонning bir kun tuproqqa aylanishini yodga oladi. Garchand, qahramon mazkur haqiqatdan xabardor bo‘lsa-da, titroqqa tushadi. Bu titroq bani bashar qismatidan bezovta ko‘ngil titroqlarini ifodalayotir. Qabrida qon qaqshab yig‘layotgan osiy bandaning taqdiri Parvardigor elchisini g‘amga botiradi. She’rda oniy lahzadagi ruhiy holat tasvirlanadi. Muallif tasvir va tahlil tezkor o‘rin almashinuvlarini estetik talqin markaziga chiqaradi hamda nozik ijtimoiy-falsafiy umumlashma yaratadi.

Zero, «Abdulla Oripov poetik tiplarni shoirona tavsiflar vosisasida gavdalantiradi. Tiplarning xarakterli belgilarini ular namoyon bo‘ladigan hayotiy situatsiyalarda ochadi. Lekin bu situatsiyalarni nihoyatda ixcham tasvirlaydi. Bunday tiplar yaratishga bo‘lgan intilish Abdulla Oripov she’riyatidagi qudratli didaktik yo‘nalishdan tug‘iladi, paydo bo‘ladi. She’rlar yorqin ma’naviy xulosalar bilan yakunlanadi. Shoir ochiqdan-ochiq tarbiya bilan shug‘ullanadi. She’riyat tarbiya bilan ham jiddiy va qat’iy shug‘ullanishi kerak, deb ishonadi»².

Shoir lirikasining o‘ziga xosligi hamisha inson fenomeni psixologik qirralarini tadqiq qilishga moyillik bilan o‘lchanadi. Bu o‘lcham talqin teranlashuvi - poetik tip shakllanishiga zamin hozirlaydi. Kutilmagan va g‘oyatda favqulodda falsafiy mushohadalar yangidan-yangi mantiqiy fikrlarni yuzaga chiqaradi. Xarakter badiiy tadrijini ham ma’naviy, ham ma’rifiy jihatdan o‘zgartirishga intilish shoir badiiy izlanishlari mag‘zini belgilaydi. Unda shoir obrazi va lirk qahramon timsoli o‘zaro qorishib ketadi. Mukammal ong, tushuncha hamda psixikani tasvir yo‘sininga

¹ Oripov A. Haj daftari. – T.: Sharq. 1992. – B. 52.

² G‘afurov I. She’riyat – izlanish demak. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1984. – B. 27.

singdirish, badiiy xarakter hayotiy-mantiqiy asoslarini kuchaytirish, mohiyat ifoda xususiyatlarini topishga urinish shoir she'riyati yo'nalishini belgilab beradi.

Dedilar: – U edi nodiri davron,

Tafakkur qasriga bo'lolg'an zina.

Dedilar: – Bir keldi bundayin inson

Ketdi uning bilan tengsiz xazina.¹

She'riy lavhada dialoglashgan ong tamomila o'zgacha yo'sinda namoyish etiladi. «Dedilar» iborasi yordamida shoir nutq muallifini yashiradi. «Naqadar shafqatsiz haqiqat» mohiyatan «xazinaning joyi chindan yer osti» ekanligini poetik tasdiqlaydi. Olimning tuproqqa qo'yilishi aslida ulkan yo'qotish! Binobarin, u o'zi bilan beqiyos ma'naviy-ma'rifiy boylikni olib ketadi. Shogirdlar alami xuddi shu nutqdan ibtido oladi. Garchand, «azizroq do'st yo'qdir O'zidan ortiq», «bandaga sig'inish gunoh muqarrar» bo'lsa-da, buyuk inson xotirasi qalblarni timdalaydi. Uslub o'ziga xosligini belgilab beradigan sintaktik usul ijodkor qalb kechinmalari barqarorligini inkor etmaydi.

She'riyatda nutqiy ifoda shakllari bir-biri bilan tig'iz munosabatga kirishadi. Vaholanki, unda badiiy shartlilik yetakchi o'ringa ko'tariladi. Lirik talqinda tuyg'u hamda ong muvozanati nisbiy ijodiy mustaqillikka intilishini inobatga olsak, masala mohiyati yanada oydinlashadi. Ta'kidlash joizki, nazmda badiiy nutq tadriji murakkab jarayon sifatida namoyon bo'ladi, unda o'tish shakllari (monologlashgan dialog – dialoglashgan monolog) xilm-xilligi kuzatiladi. Adabiy tahlil va estetik idrokda mujassam erkinlik darajasi goh nutqiy ifoda boshqaruvini yetakchi o'ringa ko'tarsa, goh ritorik ohangdoshlikni diqqat markaziga chiqaradi. Shunga qaramasdani, lirik ifodada asosan monologlashgan ong o'zaro munosabatlarni ham o'z ichiga oladi.

Dil dedi: – Parchalab-parchalab o'ydim,

Neki bo'lgan bo'lsa taqdirga yo'ydim.

Otashga kelibman yozug'im bilan:

«Men uning sog'inchin, shu zahot tuydim».

Dil dedi: – Keturman, ketmagim oson,

¹ Oripov A. Haj daftari. – T.: Sharq. 1992. – B. 35.

Jon dedi: – Gar ketsang, kuzatuvchi oy...¹

Adabiy talqinda dil va jon muloqoti illustratsiyasi falsafiy mushohadani mustahkamlashga xizmat qiladi. Aniqrog'i, monologik nutqning subyektiv shakli ijodiy mantiqni hayotiy mezonlardan uzoqlashtiradi. Masofa orasidagi tafovut sezim hamda idrok ziddiyatini hosil qiladi. Dramatizm va psixologizm jilg'alaridan sizib chiqadigan tuyg'uda e'tiqod asosiy masalaga ko'tariladi. Tafsilotdan ko'ra uning mohiyatiga ishora mulohazani alohida bo'laklarga ajratadi. Dil qismatiga yuksalish yozilgan, shu boisdan u hamisha kamolotga intiladi. Suhbat ma'naviy me'rojga erishish oson kechmasligini ta'kidlaydi. Faqat va faqat sog'lom maslak odamzodni haq yo'lga boshlaydi. «Uning sog'inchi» ko'ngilga dalda beradi.

She'rda tasvir miqyoslari tayyor holda namoyon bo'ladi. Ruhiy tahlil quyuqligi va tasavvur maydoni o'zgaruvchanligi natijasi o'laroq lirkada «Xarakter o'z qimmatini va mohiyatini ongli ijtimoiy faoliyatda, odamlar orasidagi xatti-harakatlarida ochadi. Lekin xarakter yuzaga kelishi uchun uning barcha harakatlari izchil va muntazam yo'nalishga ega bo'lmog'i darkor. Boshqacha qilib aytganda, xarakter inson xulqining izchil va yaxlit ko'rinishlaridir. Bu izchillik va butunlik ichki qarama-qarshiliklar asosida yuzaga chiqadi. Ziddiyatli xarakterlar, butun (yaxlit) xarakterlar degan ifodalar mana shundan kelib chiqadi... Shu izchillik va ichki ziddiyatlar san'atda ustuvor badiiy qonuniyat kabi namoyon bo'ladi».²

Ayon bo'ladiki, botiniy ziddiyat xarakter tabiatini belgilaydi, o'z navbatida ma'naviy-axloqiy fazilat va illatlar badiiy chambarchaslik qonuniyatini muqarrar hodisaga aylantiradi. Aslida izchillik va yaxlitlik bir-birini to'ldiruvchi tushunchalar, uning poydevorini ichki qarama-qarshiliklar tayin etadi. Hayot va ijod taomillari aloqadorligi aynan ijtimoiy, falsafiy hamda ma'naviy qadriyatlar mezoni uzluksizligiga tayanadi.

– Taqdir, meni nega inson yaratding,

Ko'ksimda shodlig-u g'amdan yuz nishon.

– Men senga qalb ila shuur baxsh etdim,

¹ Abduvali Qutbiddin. Bor. – T.: 2011. – B. 39.

² G'afurov I. She'riyat – izlanish demak. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984. – B.10.

Bilgin deb hirs nima, nimadir hayvon.

(Antologiya, 151- bet.)

Jamol Kamol qalamiga mansub ushbu satrlarda inson taqdir bilan munozaraga kirishadi. Odamzod qismati azal-azaldan murakkab kechgan. Unda shodlik va qayg'u yonma-yon yuradi. «Qalb va shuur» Olloh Taolo tomonidan bandaga baxsh etilgan oliy ne'matlar! Berilayotgan savollar qanchalik keskin bo'lsa, olinayotgan javoblar ham shunchalik zalvorli va og'ir. Qaramaqarshi mohiyat kasb etadigan tushunchalar aslida tiriklik mazmunini belgilayotir. She'rda lirik qahramon hayotiy ziddiyatlar to'g'risida o'yga tolarkan, «nega meni mehmon yaratding», – deya murojaat qiladi. «O'lchovli umr» – «ishqni anglash»dan iborat. «Tong siylagan, oqshom opichgan» – yashash manzaralari chigalligi qoshida «yerga boqib osmon saqlaydi sukut!». Muallif dialog qatiga ritorik munosabatni ustalik bilan singdirib yuborishga muvaffaq bo'ladi. So'roq iskanjasida to'lg'onayotgan hissiy idrok shunday xulosa chiqarishga zamin hozirlaydi.

Muloqot jarayoni ifoda va bayon o'zaro tenglashuvini taqozolaydi. Unda badiiy so'z qonuniyati hamda hayotiy mezonlar birlashadi. Zero, aynan adabiy kompozitsiyani tayin etadigan ikki ustun – uslub va ma'no tig'izligi ham munosabatlari nutqdan o'sib chiqadi. Ko'rinadiki, she'riyatdagi dialoglarda o'zaro aloqada nozik kuzatish hamda jonli mushohada imkoniyatlari ortib, ixcham shakl ma'no jilvalari hosil bo'ladi. Bu holat birinchidan, ruhiy kechinma teranligini ta'minlasa, ikkinchidan, xarakter badiiy tadrijini belgilaydi, uchinchidan, tasvir va ifoda aralashuviga zamin hozirlaydi.

Yerning umid ko'zi bilan qadalgan,

– Meni o'ldirmang! – deb

Qilar iltijo.

Portlashimiz mumkin har bir qadamda.

To'qnashib ketishdan asrasin Xudo...

(Antologiya, 171- bet.)

M.Boboyevning «Biz odamlar» she'ri tavsifiy xarakterga ega. Unda «kashfiyotlar ichra nodir kashfiyot» – inson chigal qismati suvratlanadi. «Yigirmanchi – asabiy asr» kayfiyati bilan yashayotgan lirik qahramon o'zini «atom»ga o'xshatishi zamirida

achchiq haqiqat mavjud: odamzod buniyodkor bo‘lish barobarida zulmni qudratli quroq qilib olgan! Zaminning iltijo aylashi ortida fojialar ketma-ketligi (yerning zaharlanishi, qirg‘inbarot janglar, o‘zligidan olislayotgan inson, ma’naviyat tanazzuli) mujassam. Muallif lakonik shtrixlar vositasida shaxs iztiroblarini chizadi. Chizgilarning quyuq qora rangi kitobxon yuragiga kirib boradi, uning qayg‘u-hasratlarini oshiradi hamda odamzodni hushyorlik – ogohlikka chorlaydi.

Lirikada dialog qo‘llash murakkab masala. Garchand, nutqiy munosabat ifoda yo‘sining bo‘ysunib yaxlit tarzda monologik matnga kirsa-da, ijodkor kechinmasi va qahramon bayoni bir-biriga nisbatan qarama-qarshi pozitsiyada turishini unutmaslik lozim. To‘g‘rirog‘i, joriy ikki tushuncha tasavvur analogiyasini hosil qiladi. Muloqot shakli davr ruhiyatidan shoir dunyoqarashiga ko‘chishini inobatga olsak, istiloh ham umumiyy, ham xususiy mohiyatga daxldorligi ayonlashadi. Mavjud tarixiy-madaniy mentalitetga mansublik shaxsiy uslub namoyishiga sharoit tug‘diradi. Aslida ijodiy o‘ziga xoslik belgilari ham universal tasvir miqyosining takomillashgan va to‘ldirilgan shakli sanaladi.

– Ohanglaring munqlar nahrimi,
Nay, bunchalar ma'yussan nega?
– Aytolmagan hasratlarini
So‘zlashadi odamlar menga!

(Antologiya, 284- bet.)

Odatdagi suhbat yo‘sini S.Hakimning «Nay» she’riga tabiiy tarovat bag‘ishlaydi. Barqarorlashgan tasavvur (nay – g‘am ramzi) kitobxonga asosiy mohiyatni anglashda muammo tug‘dirmaydi. Cholg‘u asbobidan taralayotgan nola lirik qahramon ruhiy holatiga hamohang. «Aytolmagan hasratlar» ko‘ngil tubidan yig‘ilgan dardning suvrati. Badiiy talqinda axloqiy va aqliy ikki ovozlilik bir qirrani mantiqan urg‘ulaydi. Unda tahlil va hukm yaxlit ma’no shakliga solinadi. Parchada mazmuniy muqobililik (nay va obraz) ritorik munosabat hosil qilish usuli sifatida ibtidodan intihogacha ziddiyatga kirishadi: ijodiy a’zolar, dastavval, taqqoslanayotgan materiya tarzida bir-biriga tenglashsa, keyinchalik o‘rtada o‘zar nomuvofiqlik yuzaga keladi. Endi nay ifoda, lirik qahramon tasvir predmetiga evriladi. Tushunchalar orasidagi masofa kengayishi esa

adabiy talqin miqyoslarini oshiradi. O‘z navbatida estetik a’mol hayotiy va badiiy munosabatlar birikuvini tayin etib, mantiqiy tafakkur jilvalarining samaradorligini izohlaydi.

Umuman, muloqot jarayonida ritorik munosabat hosil qilish usullari marom, ohang, tushuncha muqoyasasi va joylashuvi bilan cheklanmaydi, balki so‘z tartibiga ham tutashadi. Sintaktik tanlov nutqiy ong ichki taqsimotini namoyish qiladi. She’riy talqinda «men», «sen» va «u» o‘rtasida qat’iy sarhad mavjud emasligi masalani biroz murakkablashtiradi. Uch subyekt munosabatlari doimo bir-biriga o‘tib turishi bayon ekspressiv intizomini belgilaydi. E’tiborli jihat shundaki, nazmda shoir «men»i ham obyektiplashgan mohiyat, ham subyektiplashgan munosabat yaratadi. Bilvosita va bevosita nutq poetik muhokama miqyosi kengayishini ta’minlaydi, unda shaxs irodasi – inson qiziqish-manfaatlari tahlil imkoniyatlarining subyektiv teranligiga kirib borishga intiladi.

1.2. Dialogda falsafiy-psixologik talqinning o‘rni. She’r – shoir aqliy salohiyatidan yaralgan holda xolis estetik tadqiqot predmetiga aylanadigan nutqiy shakl ifodasi bo‘lib ijodkorning jonli improvizatsiyasi hosilasi. Qolaversa, u olam jumbog‘i illuziyasining so‘zga ko‘chishi hamda subyektiv munosabatning obyektiplashgan mohiyati dalolatnomasi bo‘lish bilan bir qatorda tuyg‘u hamda ongning g‘oyaviy ibtidoda uyg‘unlashuvi. Shuningdek, she’r – falsafa, axloq va ma’rifat uyg‘unligi bo‘lib, ohang, marom va musiqaning hissiy idrokda saralanishidir.

Hamma va hamma narsaga,
Boringki, Quyoshga ham
Mefistofel nazari ila boqsa:
«Bilamiz, hozir-u nozirsiz qayerda, qachon –
Bosgan qadamingiz o‘lchoqli!»

(Antologiya, 250-bet.)

«Taqvim varaqlayotgan odam» she’ri bir inson hayotini sarhisob etadi. Muhammad Rahmon lirik qahramon holatini turfa nuqtalaridan baholashga intiladi. Mana u yaxshi odam o‘rnida xayolga toladi: otanonani rozi qila oldimmi, farzandlarim tarbiyasini qandoq, dard iskanjasida qiynalayotgan birodarimdan xabar oldimmi, eng muhimmi, shayton vasvasasiga uchmadimmi, iymonim butunmi?! Savollar oldida imtihon topshirayotgan odamzod umr zarvaraqlarini shu

tarzda taftish etadi. Biroq u boshqacha o‘ylashi ham mumkin. «Tushlikni qayerda qilish», «kimning tagiga suv quyish», «yon qo‘shnilar yutug‘idan xavotirlanish» va hokazo. Parchada hasad va g‘araz talvasasida qolgan inson iztiroblari suvratlangan. Qalb kemirayotgan qora qutqu personajning har bir hodisadan shubhalanishiga turtki beradi. Hatto quyoshga nisbatan gumon uni bezovta qiladi. Qadim yunon mifologiyasi ilohasi Mefistofel xulq-atvoriga xos badbinlik uning ongini egallagan. Hasad va baxillik ramzi lirik qahramonning ayni holatiga mos. Muallif bir yelkasida rahmon, bir yelkasida shayton uya qurgan Inson ruhiy mohiyati ziddiyatlarini chizgilarda ochishga urinadi. Tavsifiy shtrixlar manzarani qarshilantirish barobarida odamzod shuuri, fe'l-atvori hamda maqsadlari murakkabligini sharhlaydi.

Xalqimizning sevimli shoiri O.Matjon she’rlarida ham o‘quvchini chuqur o‘yga toldiradigan falsafiy mazmundagi dialoglarni uchratish mumkin. Xususan, shoirning «Shoir, sen namuncha Haq deb...» deya boshlanuvchi she’rida O.Matjon haqiqat va adolat tuyg‘ularini shunday ifodalaydi:

- Shoir, sen namuncha Haq deb yonasan,
Haqiqat – osmondek mavhum tushuncha?!
- Chunki mening qalbim – Haqning elchisi,
Iymonni asrovchi olov tuguncha!¹

She’r muzmuniga e’tibor bersak, shoir inson qalbining cheksiz ummon, irodasining esa nihoyatda qudratlari ekanligini ifodalayotir. Hayotiy haqiqatga asoslansak, olovni tugunga solish mumkin emas. Chunki olov har qanday narsani yondirib kulga aylantirishi mumkin. She’rdagi badiiy ifoda orqali shoir «Iymonni asrovchi olov tuguncha» satriga shunday ma’no yuklaganki, unda inson adolat yo‘lida har qanday olovdan ham qudratlari iztiroblarni, g‘amtashvishlarni o‘z qalbida saqlab yurishi, haqiqatning ro‘yobga chiqishi uchun har qanday qiyinchiliklarga bardosh berishi mumkinligi ifodalangan. Unga bu borada kuch berib turgan narsa esa iymon, diyonat va haqiqat kabi tuyg‘ulardir.

¹ Omon Matjon. Iymon yog‘dusi. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1995. – B. 278.

E.Vohidov ijodida ham dialog asosiga qurilgan she'rlar ko'plab uchraydi. Xususan, shoirning «Zamin sayyorasi» she'rida inson va zamin orasidagi dialogda juda teran falsafiy mushohadalar umumlashmasini kuzatamiz:

– Ey zamin!?
Bitmayin ne ishing qolgan?
Betinim aylanib joning halakdir.
– So'rma,
Men sho'rlikni shu kuyga solgan –
Tiriklik ishidir,
Charxi falakdir.
Men na quyoshdirman,
Na oltin qoziq,
O'ltirsam falakning koshonasida.
Boshlig'im oftobdir,
Parvona bo'lib
Yil bo'yi aylanmoq turmushim erur.
Bu ham yetmaganday,
Kunda o'grilib
Borimni ko'rsatib turmog'im zarur...¹

She'rda inson tomonidan berilgan birligina savolga zaminning katta hayotiy mantiqqa asoslangan sermazmun javobi ifodalanadi. Uning mazmuniga ahamiyat bersak, undagi har bir satrda tabiat qonunlari asosida inson fe'l-faoliyati, xarakter xususiyati tasvirlangan. Zero, zaminning hasratli nidolari shu qadar aniq detallar orqali berilganki, ularda shoirning yuksak badiiy tafakkuri, mahorati aks etadi. She'rdagi «Boshlig'im oftobdir» jumlasining o'zida yerning quyosh atrofida aylanishi kabi tabiat hodisasida insonlarning hayotda amal qiladigan mezonlari ifodalanadi. She'rdagi ona-zaminning javobida bunday o'rirlarni ko'plab misol keltirish mumkin. Ularning barchasi o'ziga xos badiiy topilmalarda aks ettiriladi:

... – Tijorat eliga
Atorit posbon,
Xabardor bo'lurman unga ham sergak

¹ Vohidov E. Saylanma. 2-jild. – T.: Sharq, 2001. – B. 84.

Yashirib ne qildim,
O'zingga ayon,
Savdo ahlidan ham oshnolar kerak.
Zuhalni ziyorat qilurman har kun,
Hosil sayyorasi – do'st bo'lmay nega?
U menga kerakdir
Tiriklik uchun
To'rt milliard bolam bor,
Osonmas menga... (84-85-bet).

Ushbu misralarda ham tabiat va inson qismatidagi o'ziga xos mutanosiblik badiiy talqin qilinadi. E'tibor bering, zamin to'rt milliard bolasini boqish uchun Atorid, Zuhal, Mars va boshqa sayyoralar bilan murosa qilib yashashga majburligini e'tirof etyapti. Endi zaminni shunga majbur qilayotgan tiriklik ehtiyojlarini bir inson taqdiriga qiyoslasak, go'yoki she'rda zamin sayyorasining emas, inson nolalarini tinglayotgandek bo'lamiz. Bu kabi tasvirlar she'rning boshqa o'rnlarda ham uchraydi:

– Yurak o'ynog'idan xastaman do'stim,
Ko'ksim-u yelkamga qo'yanman muzlar.
Yana men sho'rlikka o'qtalar mushtin,
Uzoq-yaqindagi dumli yulduzlar... (85-bet).

She'rda zaminning nidosi shu taxlit davom etib, barcha satrlarda insoniy ehtiyoj, uning hayoti, taqdiri bilan daxldor masalalar o'z aksini topadi. Asarning oxirida esa zamin tilidan insonga qarata shunday xulosa yangraydi:

– Sen esang besh kunlik
Qisqa umringda
Chekkan zahmatingga qilasan fig'on.
Mening turmushimni o'ylab ko'rgin-da,
Shukr qil,
Boqiymas umring, ey inson (85- bet).

Mazkur she'rda shoirning badiiy mahorati shundaki, berilgan savolga zaminning javobi orqali insonga uning o'z hayotini ko'rsatadi. She'r oxirida zamin tomonidan aytilayotgan «Boqiymas umring, ey inson» jumlasini ham keng ma'noda tushunish lozim. Negaki, umr o'tkinchi, hayot abadiy. Shunday ekan, zaminning

qismati yana boshqa insonlar, yangi avlodlar hayotida o‘z aksini topib boraveradi.

Dialog og‘zaki va yozma nutq birikuvidan hosil bo‘ladigan shakl sifatida so‘zlovchi hamda tinglovchi munosabatlarining uzlusizligini ta’minlaydi. Unda sintaktik tanlov asosida qurilgan bayon uslubiy vazifadoshligi in’ikos topgan holda adabiy til uch qatlami – kitobiy uslub, umumxalq so‘zlashuv uslubi va lug‘aviy birliklar turkumi uyg‘unlashadi. Shuning uchun ham unda ruhiy va ijtimoiy bo‘yoqdirlik bir-birini to‘ldiradi. Agar dramada monolog ham dialoglashgan mohiyatga bo‘ysundirilsa, nazmda muloqot shakllari monologik ifodaga singib ketadi. Shu boisdan, she’riyatda ushbu holatni maxsus usul sifatida o‘rganish maqsadga muvofiq. Aynan bir tomonlama muloqot ustuvorligi shunday xulosa chiqarishga turtki beradi. Negaki, lirika «men» ruhiy kechinmalari negizida vujudga keladi. Unda shaxs maqomi borliqning umumlashgan, mavhumlashgan hamda uyushgan mohiyatini aks ettiradi.

Menga barglar shivirlar asta:

«Endi birov she’r o‘qiydimi!..»

Nahot So‘zdan qolmadi nishon,
garchi ular bozorda lak-lak...

Menga gullar shivirlar giryon:

«Bugun she’ring kimga ham kerak!..»

(Antologiya, 357-bet.)

Asqar Mahkamning «So‘z joni» she’ri so‘z, ijod va e’tiqod masalasiga bag‘ishlangan. XX asr alg‘ov-dalg‘ovlarida tushuncha qiymati ancha pasaydi. Asrlar mobaynida «pokiza xilqat», «ilohiy ne’mat» tarzida yuksak maqomga ko‘tarilgan so‘zning qadrsizlanishi fojiaviy oqibatlarga olib keladi. Zero, Olloh Taolo va bandasi orasida rishta vazifasini bajargan vosita uzilsa, ma’naviy tanazzul hosil bo‘ladi. Parchada san’at mohiyati falsafaga yo‘g‘riladi. «So‘zlar Ayyubdek xasta» vaziyatda haddan tashqari jo‘nlashgan konstruksiya eng quyi grammatik mazmunga tenglashadi. Tushuncha qudrati zaiflashuvi natijasi o‘laroq lirik qahramon «Barglar shivirlar asta: «Endi birov she’r o‘qiydimi?», «Gullar shivirlar giryon: «Bugun she’ring kimga ham kerak!..» kabi xulosaga keladi.

Odam bo‘lmas hech kim o‘qimay,
Mavlononing Kulliyotini!..
Va Payg‘ambar Rahmat tog‘ida
tinglamoqda ilohiy vahiy.
Butun olam ahlin og‘zida
Iqro bismi Robbikal-laziy!..

(Antologiya, 357-bet.)

«Mavlononing Kulliyoti», «Ilohiy vahiy» maqomi so‘z qudratini nuraflshon qiladi. Uning tayanch nuqtasini «Iqro bismi Robbikal-laziy!...» kalimasi tayin etadi. Shunday ekan, barg va gullar shiviri xazon kabi to‘zib ketadi. Negaki, «Odam bo‘lmas, hech kim hech qachon, Navoiyning o‘qimay so‘zin!» kabi satrlar yuksak his-hayajon pardalarida bitilgan. Uning hajmi «qadimiy osmon»larga qadar cho‘zilgan. Uning salmog‘i «dard vazni» qadar og‘ir va iztirobli. Uning zalvori «o‘tlig‘ muhabbat» qadar hasratlarga qoniq va iztiroblarga hamohang. Uning qismati «anglash hukmi»ga ulangan. Uning mohiyati «hayot zarvaraqlari»dek ziddiyat-u murakkabliklar bilan payvandlangan va tabiatи «rangin tuyg‘u» taqdiriga bog‘lanib ketgan.

Dialogda so‘z, ma’no, ohang va marom omuxtalashadi. Uning qo‘llanilish usuli badiiy samaradorlikni hosil qiluvchi yetakchi unsur, unda shakl takomillashuvi ma’no-mantiqini yangilaydi va uslub barqarorlashuviga sharoit tug‘diradi. Aynan, ifoda badiiy imkoniyatlari cheksizligi tasavvur miqyoslarini o‘quvchi ongiga yaxlit holda ko‘chirishni taqozo etadi. Axborot tezkorligi hamda ruhiyatning aniq chizgisi mushtarakligi mushohada tiniqligini ta‘minlaydi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, aqliy tafakkur yuksalishi tuyg‘u teranlashuviga yo‘l ochadi. Zotan, sezimni mulohazadan, tafakkurni nutqdan, muhokamani tahlildan ayirib bo‘lmaganidek, dialogik munosabatlarni ham monologik ongdan ajratish mushkul. Vaholanki, badiiy chambarchaslik qonuniyati hayotni anglash va idrok etish butunligini yetakchi taomil sifatida falsafiy-ma’naviy jihatdan taqozo etadi.

Moziyga urilib sinar ovozim,
Umr o‘tib borar benaf, benavo –
Nahotki bu – qo‘lim? Bu mening sozim?
Allohdan so‘rayman – Nechun bu jafo?!

Jami judoliklar jonimga yetdi,
Ol, deyman, Allohim, omonatingni.
«Tavba» qil, – dedi Ul, bir Kitob tutdi –
Muroding mustajob, mingil ottingni.

(Antologiya, 200-bet.)

Rauf Parfining «Tavba» she’ridan olingen parchada bandaning Parvardigorga iltijosi va iqrori tasvirlangan. «Iymon ber ruhimga, jismimga jon ber» deya murojaat etayotgan lirik qahramon o‘z mohiyatini anglashga intiladi. Ma’rifat ilinjidagi odamzod kamolotning chigal yo‘lida toliqqan. «Jami judoliklar» uni arosatda qoldiradi. Muallif yoniq misralar vositasida personaj botiniy olamiga nazar tashlar ekan, mudomi Haq va haqiqat yo‘lini idroklashga uringan inson tabiatini butunlashtirishga harakat qiladi. Bandasining jami savollariga javoban «Ul bir Kitob tutadi». Muqaddas kitob odamzodni hidoyat yo‘li sari yetaklaydi:

Ummonlar yo‘lingda, jangal yo‘lingda,
Noma’lum har joyda qurilgan doring.
Olamning kalidi sening qo‘lingda,
Jafo habibingdir, xiyonat – yoring.
Allohim, lahza – men, sen ersa mangu,
Taskin bergeningmi, shafqatingmi, bu?!

(Antologiya, 200-bet.)

Yaratgan ummat qismat yo‘lini tasvirlab beradi. «Noma’lum har joyda qurilgan dor» – inson ruhiyati ziddiyatlari hosilasi! Ma’naviy yuksalish so‘qmoqlari aynan inson irodasini toblaydi, e’tiqodini sinovdan o‘tkazadi hamda nurafshon maskanga yetaklaydi. «Olamning kalidi» aslida odamzod saodatini dalolatlaydi. Biroq mavjud yo‘l «jangal», «ummonlarga» tutash. Isyondan keyingi itoat mo‘minga rohat-farog‘at bag‘ishlaydi. «Allohim... men o‘ldim... Men Senga yetdim...» murojaati zamirida anglangan mohiyatning anglanmagan qirralari jilvalanadi. Binobarin, lahzaga o‘xshatilgan odam qismati kitobda yozilganidek silliq hamda benuqson kechmaydi. Unda Olloh Taolo kuch-qudrati va mehr-shafqati o‘zining ifodasini topadi.

«Shoirlik – aslida she’rni she’riyatga aloqasi yo‘q narsalardan tozalay bilishdir. Chunki she’rning go‘zalligi, avvalo, ana shu musaffolikda aks etadi. She’rdagi soflik – tuyg‘u va tushunchadagi

soflik emas. She'r bilan she'rxon orasidagi davomli ichki aloqa shunday boshlanadi. To'g'ri, bevosita matnga diqqatni qaratish, uni tadqiq va tahlil qilish adabiyotning barcha muhim jihatni, o'ziga xos holatlarini yoritishga to'la-to'kis imkon berolmaydi. Ammo u adabiyot ilmini umumiy, biryoqlama, goho farosatsizlarcha to'qilgan fikr-mulohazalardan himoyalashi shak-shubhasiz. Zero, haqiqiy adabiyot – san'atkorlik zavqi ila yaratilgan asardan boshqa bir narsa emas. Uning bilan to'g'ridan-to'g'ri munosabat o'rnatishgina shaxsiy taassurot va tasavvurni yuzaga keltiradi. Biroq, hech qanday adabiy matn, muayyan bir usul, tushuncha va haqiqatga tayanilib o'qilmaguncha, o'z-o'zidan tuyg'u va fikr uyg'otolmaydi».¹

Darhaqiqat, botiniy hamkorlik ijodkor qalb kechinmalari va o'quvchi dunyoqarashi orasidagi uyg'unlikni kashf etishdan iborat. Lirikada anglash tadriji joriy aloqadorlikni qayta tiklash jarayoniga tutashadi. Ohang, rang va marom ma'no tovlanishlari nazmda hissiyot miqyoslarini ochib berishga xizmat qiladi. Holbuki, poetik talqinda psixologik tahlil – adabiy tadqiq yaxlitligini ta'minlovchi omillardan sanaladi.

«R.Parfi lirkasida o'zini tinimsiz izlayotgan, xatti-harakatlarini ayovsiz taftish qilayotgan shaxsning ruhiy holatlari aks etgan «Tavba» she'ri alohida o'rinn tutadi. Bu she'r hur tug'ilgan va bir umr erkka talpinib yashagan shaxsning bu yo'ldagi yaxshi-yomon, qilgan-qilolmagan amallari uchun yaratganga munojotidir. She'r: «Dodimni eshitgil, qodir Allohim, Ishq sensan, oshiq ham sen, men qulman», – yo'sinidagi ochiq iltijo bilan boshlanadi. Biz so'fiy shoirlarning Alloh jamoliga intilib yozgan g'azallarini o'qiganmiz. Ularda ko'pincha Yaratgan ma'shuqa siymosida tasvirlanar, shoir oshiq sanalardi. R.Parfi ayrim so'fiy salaflarigagina o'xshab: «oshiq ham sen», – deydi. Negaki, shoir o'zining ham Yaratganga tegishli, U tufayli ekanini biladi. Shu bois, o'zini hatto oshiqlik da'vo qilishga ham haqsiz hisoblaydi»,² – deya e'tirof etadi professor Q.Yo'ldoshev.

Shu ma'noda, shoir ijodida ichki muloqotda kamolot pog'onalarini axtarayotgan inson ruhiy kechinmasi sharhlanadi.

¹ Haqqulov I. Ijod iqlimi. – T.: Fan, 2009. – B.162.

² Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. – T.: Yangi asr avlod, 2009. – B.377.

Joriy pog'ona riyozat chekish, mashaqqatlarni yengib o'tish bilan o'lchanadi. Ko'ngil irmoqlaridan sizib chiqayotgan iztirobda nurafshon kelajakka ishonch tuyg'usi zohir. Lirik «men» va Olloh Taolo orasida kechayotgan g'oyibona suhbat aslida mohiyatni anglash hamda anglatishga xizmat qiladi.

She'riyatda ruhiy kechinma ong hamda lirik qahramon munosabatlarini boshqaradi. Unda badiiy tasvir mohiyati kengayib teranlashgan holda tasvir miqyosi mavhumlashadi hamda o'zgaradi. Shuningdek, ifoda davomiyligi o'z hisobini almashtiradi hamda tayanch nuqtalar o'lchamini yangilaydi. Qolaversa, tahlil vazifadoshligi harakatni keskinlashtirib, tasvirdagi holatni muayyan vaziyatga muvofiqlashtirish bilan birga rivoya subyekti obyekтивlashgan talqinni hosil qiladi hamda hissiy-ma'naviy bosimni kuchaytiradi.

Deding: Seva olasanmi o'zingdan kechib,
Aldagan bo'lsam gar hatto ertakni?
Yulduz xato yondi, kemamiz cho'kdi,
Bari bir kuyladik qirqta qaroqchi.
Seva oladurman yo'lidan-da kechib.

(Antologiya, 411-bet.)

Muallif ongida ro'y berayotgan jarayon suvrati – hayotning muayyan ko'rinishlari Aziz Said adabiy talqinining o'ziga xosligini belgilaydi. Unda poetik xarakter olami: ijodiy tafakkur ranginligi, ifoda hamda tasvir vositalari originalligi tasavvur ikkilanganligini hosil qiladi. Yaxlit holda amalga oshirilayotgan tavsida psixologik holat chizgilari in'ikos topadi. Mavjud badiiy topilmalar (chayon yegan yurak, tomirni kesayotgan oy, aldangan ertak, mangu tush) mohiyatan «umrni sog'ib ichayotgan» – ishq mavzusiga qaytadi. Real, ijtimoiy va falsafiy mantiqqa asoslangan parchada ma'shuqa lirik qahramondan sof muhabbat talab qiladi, bu xilqat qarshisida hatto o'zligindan ham voz kechishga tayyormisan?, – deya murojaat etadi. «Seva oladurman sendan-da kechib!» satri sevgi qoshida barchasi bekor ekanligini mantiqan dalolatlaydi. Muhokama nihoyatda keng, unda dramatik ziddiyatli munosabat zichligi kuzatiladi. Tahlil va talqin tig'izligi iztirobga to'liq oshiqning psixologik holatini ochib beradi. Unda muammo botiniy ko'rinishini atroflicha yoritishga intilish ko'zga tashlanadi.

She'riyat hamisha inson haqida yangilanayotgan haqiqatlarni ilgari suradi. O'z-o'zini inkishof etishga harakat qilayotgan shaxs ruhiyati tadqiqi, shuuriy hissiyot, odamzod maqsad-intilishlari va manfaat-ehtiyojlari muhokamasi hamda uning tabiatini sharhlaydi. Zero, «Qat'iy intizom – poetik mazmun, shoir tafakkuri talabi. Koinot, turli galaktikalardagi o'z orbitasida harakat qilayotgan yulduzlar sababsiz bir-birlari bilan to'qnashib ketmaganidek, haqiqiy she'rdagi biron tashbeh, hatto so'z ham shoir niyat chizig'idan tashqarida harakat qilmasligi, shoirning ezgu niyatiga zid bo'lmasligi zarur. She'rda ana shunday mukammallik yuzaga kelgandagina, u o'quvchini yulduzli osmonday o'ziga sehrlab oladi. She'rga yuklatilgan ruh esa o'ta qudratli va muqaddas»¹ – deb yozadi A.Sharopov.

Darhaqiqat, badiiy yaxlitlik lirik ifoda o'lchamini tayin etadi. Hatto ifoda tugallanmaganligi va cheksizligi ham «qat'iy intizom»ga bo'ysunadi. Fikr hamda mantiq ijodiy yo'sin, qurilish, ohang va maromni tartibga soladi. Tashbeh, tushuncha, band hamda matnda shakllanadigan aloqa badiiy uyg'unlik qonuniyatini yuzaga keltiradi.

Shavkat Rahmon degan
bir o'jar shoir,
bir kuni qaytadan yaraladimi?
Hayotim ma'nisin juda ko'p o'ylab,
sayladim so'zlarning
saralarini.
Har bir so'z
yuz so'zning o'rnini bosar –
Vatan, Xalq, Jasorat, Kurash, Ozodlik.
Har bir so'z yetajak yuzta umrimga,
Har biri baxsh etar
ruhimga shodlik.

(Antologiya, 264-bet.)

Shavkat Rahmonning «Qasam» she'ri inson irodasi tahliliga bag'ishlangan. Shoir mushohadani zinapoya usulida falsafiy boyitar ekan, inson ibtidosi va intihosini so'z, ijod hamda e'tiqod bag'riga joylaydi. «Rost va yolg'on» orasida kechayotgan hayot oqimi qator

¹ O'zbek adabiy tanqidi tarixi antologiyasi. – T.: Turon-Iqbol, 2011. – B. 192.

fazilat-u illatlarni qamrab oladi. Vaholanki, odamzod ruhiyatidagina «har bir so‘z, yuz so‘zning o‘rnini bosar». Mohiyatan asar «Qasam», – deya nomlansa-da, aslida mualif vasiyatidek yangraydi. Ijodkor hamisha «Nonday zarur, qilichday keskir so‘zlar»ni axtaradi, «so‘zlarning saralari»ni tanlashga intiladi. «Vatan», «Xalq», «Jasorat», «Kurash» va «Ozodlik» sezimlarini tuyish har inson maslagiga aylanishi joiz. Binobarin, mazkur tuyg‘ular odamzod kamolotini belgilab berish barobarida ijtimoiy hayotni sog‘lomlashtiradi. «Tokim so‘ylamasin yolg‘onni hech kim, tokim buyuk tog‘lar sultanatida egilgan boshlarni qilichlar kessin» istagi shoir estetik tamoyillarini tasdiqlaydi.

Adabiyotshunos D.Quronov ta’kidlaganidek, «Badiiy muloqotga kirishayotgan ijodkor reprezentativ, ekspressiv va appellativ maqsadlarni ko‘zlarkan, asarning tashkillanishi (struktura) shu uchala maqsadning ro‘yobga chiqishi uchun optimal imkoniyat yaratadigan bo‘lishi lozim. Anglashiladiki, gap qurilishi bilan adabiy asar qurilishi orasida yuqoridaqicha maqsadlardan kelib chiqadigan tipologik umumiylit bo‘lishi tabiiy. Inchunun, adabiy asar strukturasini gap qurilishi model (konstruksiya)lariga tayangan holda tushunish va tushuntirish mumkin bo‘ladi».¹ Ushbu mulohaza alohida e’tiborga molik. Birinchidan, ijodkor tasvir, tahlil va talqin imkoniyatlarini badiiy maqsadga yo‘naltiradi, ikkinchidan, tasavvur va ta’sir bir-birini to‘ldiruvchi komponentlar sanaladi, uchinchidan, grammatik tarkib va badiiy nutq tafovuti tipologik mushtaraklik hosil qiladi, to‘rtinchidan, matn konstruktleri muloqot jarayoni izchillagini ta’minlaydi. Shu ma’noda, dialogik aloqadorlik she’riy muhokamaning o‘ziga xosligini tayin etadi.

Men

Yorab, nahot chin bo‘lsa bu eshitganlarim,
Axir Ona ko‘nglida ham g‘araz bo‘lurmi?
Ona hasad qilurmi o‘z nabirasiga?

Turkon xotun

Yo‘q! Yolg‘on!
Mening boshimni egiltirmagan

¹ Quronov D. Cho‘lpon nasri poetikasi. – T.: Sharq, 2004. – B. 58.

Ko'ksimdag'i o'sha bedor g'ururim edi!²

Lirik «men» hamda Xorazm malikasi orasida kechadigan muloqot buyuk Vatan taqdiri bilan bog'liq yo'l qo'yilgan mudhish xatoga mantiqiy urg'u beradi. Mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurash ostonasida turgan sultanat Turkon xotun xatti-harakatlari natijasi o'laroq parokandalikka yuz tutadi. Mamlakat og'ir kunlarni boshidan kechirib, oxir-oqibat janglardan so'ng parchalanib ketadi. Joriy holat tub mohiyatiga kirib borishga intilgan shoira uning ildizlari hasad va riyoga tutashganligini ta'kidlaydi. «Bedor g'urur», – deya o'zini oqlashga uringan ayol aslida urug'-aymoqchilik hamda kibr-havo qurbanbi. «Ona ko'nglida ham g'araz bo'lurmi? Ona hasad qilurmi o'z nabirasiga?» nidosi tasvir kulminatsion cho'qqisini tasniflaydi. Ikki obraz orasidagi munozara dahshatli fojia va undan achchiq saboq chiqarishga zamin hozirlaydi. Badiiy talqinda Xorazm malikasi kalondimog', yovuz kampir sifatida namoyon bo'lsa-da, hayot sarhisobida nuqson va qusurlarini anglab yetadi. Biroq endi har afsus-pushaymonga hech qanday o'rinn qolmagan. Ketma-ket boy berilayotgan qal'alarning ayanchli qiyofasi uni larzaga soladi. Yondirilayotgan shaharlar, halok bo'layotgan aholining oh-nolasi toshni ham eritishga qodir. Har bir muloqot jarayoni she'r mohiyatini mantiqan yakunlaydi. Zero, monologik ong uch adabiy tur o'lchamida bir-biridan keskin farq qiladi. Lirikada talqin o'z-o'zini ifodalashga xizmat qiladi.

Badiiy adabiyot insонning qalb kechinmalari, orzu-istaklarini o'zida aks ettiruvchi o'ziga xos san'at ekan, shu bois ham unda ijodkor estetik ideali, o'ziga xos hayot tarzi ifodalanadi. Bu borada, ayniqsa, she'riyat alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, so'nggi yillar o'zbek lirikasida rang-barang she'riy shakllar orqali hayotni, inson umri va uning qismatini ifodalovchi, qadr-qimmatini ulug'lovchi bir qancha badiiy kashfiyot darajasidagi asarlar yaratildi. Ularda shoirlar har xil mavzu va ohanglarda ijodiy o'ziga xosligini namoyish etib, yangi estetik tamoyillarni vujudga keltirdilar.

Men moviy deb yozdim samoni,
Ta'rifladim tongni, saboni.

² Samandarov S. Sizga aytolmagan so'zlarim. – T.: Adabiyot va san'at, 1996. – B. 51.

– Hayotdan uzilgan, – dedilar.
Sevgi ko‘rki – hijron-u visol,
Deb yaratdim ming lahza, misol.
– Sof tuyg‘u buzilgan, – dedilar.

(Antologiya, 102-bet.)

She’riyatda dialoglar qo‘llash orqali davr va qahramon xarakterini yaratishda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga ahamiyat berish yaratilgan she’rlar badiiyatining yuksalishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Zero, ma’naviy-axloqiy nuqtayi nazar azal-azaldan san’at va adabiyotning badiyligini ta’minlovchi omil bo‘lib kelgan. Chunki ayni shu omil har qanday voqeа-hodisani falsafiy kenglikda talqin qilishga yo‘l ochadi, asarning muayyan davrga xos muammolarini aks ettirishga imkon beradi. She’rlardagi dialoglar mohiyatiga ahamiyat bersak, ularda shoirlar odamlarning fe’li va faoliyatidagi fazilat-u nuqsonlarni shunchaki qayd etish bilan cheklanayotgani yo‘q. Ular inson shaxsiyatida komillik xususiyatlarining asosini belgilovchi ezzgulik, e’tiqod,adolat tuyg‘ularini tarbiyalash, shakllantirish va takomillashtirish borasida har tomonlama barkamol inson bo‘lib kamol topishi uchun ular oldiga muayyan talablar ham qo‘yiladi.

Eshitilar yurak urishim,
Demak, hali aylanmoqda qon.
Do‘sstar, mening tirik turishim –
Qancha gulga keltirar ziyon.
O, bu ne hol?
Bu qanday jazo?
Nega gullar ko‘tarmas suron?
Mening jonsiz vujudim, hatto –
Ko‘p gullarga keltirar qiron.

(Antologiya, 472-bet.)

Psixologik tasvirining namoyon bo‘lishi she’riyatda ancha murakkab kechadi. Negaki, asosan oniy kechinma asosiga quriladigan lirik ifodada tahlil va talqin o‘zaro uyg‘unlashadi. Shu bilan birga yana bir muhim ta’kidlanadigan jihatni shundaki, insonlarning ma’naviy-axloqiy fazilatlari, fikr va ko‘ngil hurriyati barcha zamonlarda ham barcha xalqlar uchun birdek aziz. U insoniyat tarixida benazir bashariy qadriyat bo‘lib kelgan. Negaki,

adolat, ezbilik, ma'naviy go'zallik va intellektual boylik hech qachon, hech bir zamonda irq va millat tanlamaydi. Negaki, jamiyat hayotidagi ma'naviy-axloqiy noqisliklar, illatlar har qanday rivojlanishning yo'liga g'ov bo'ladi. Zero, xoh ijtimoiy-iqtisodiy, xoh ma'naviy-madaniy taraqqiyotning asosini insonning ruhiy komillik xususiyatlari belgilab beradi. Qachonki inson ma'nani va axloqan, intellektual jihatdan komillik xislat-fazilatlari bilan ziynatlanmas ekan, unda milliy qadriyatlarga, ajdodlar xotirasi va merosiga nisbatan hurmat va ularni qadrlash hissi shakllanmaydi.

Birodar!

Qo'lda jom, ko'zda yosh nadir?

Savdolar ichinda yolg'iz bosh nadir?

Nasihat nadir?

Bahs-talosh nadir?

Fano darvozasi abad yopilmaydi.

Dunyo topiladi,

Odam topilmaydi.

(Antologiya, 353- bet.)

Umuman, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ham adabiyot jamiyat hayotida ma'naviy iqlim yaratadi. Bu borada ko'ngil, ma'rifat, tafakkur va tuyg'ular erkinligi, ijtimoiy-siyosiy onglilik darajasi ulkan ahamiyatga ega. Bu narsa badiiy tafakkurning kelgusi taraqqiyot tamoyillarini, realistik tasvir madaniyati imkoniyatlarini, janrlar va ijodiy uslublar rang-barangligini asoslaydi. Bugungi kunda ma'naviy-axloqiy masalalar badiiy asarlarning o'zak mag'zini belgilab berayotir. Shunga ko'ra ulardagi konflikt ko'rinishlari ham insonning o'z-o'zini yengib o'tishi, fe'l-atvoridagi mayjud illatlarini anglab yetishi va ular bilan kurashishi singari ko'rinishlarda ifoda qilingan. Bu narsa shoirlarimizning butkul diqqat-e'tibori, badiiy nigohi inson qalbiga ko'chganligidan dalolat beradi. Shu ma'noda, insonning o'z ko'nglida kechayotgan hissiyotlari tahlili orqali jamiyat tartiblari hamda voqelik jarayoniga munosabat bildirish, ularni badiiy-estetik baholash hozirgi badiiy adabiyotning yetakchi tamoyillaridan biri hisoblanadi.

1.3. Muloqot shakllarida ritorik munosabat hosil qilish.

Poetik tilda uslubiy o'ziga xoslik shartli mohiyatga yo'naltiriladi. Unda ijodkor ichki kechinmasi va muayyan davr nutq intizomi

ziddiyatli munosabatga kirishadi. Nisbatan yuksak va quyi uslub tamoyillarining birikuvi notiqlik ko'rsatmasini hosil qiladi. Til aloqadorligi bilan bog'liq umumiy xossalardan o'sib chiqadigan nutqiy malaka tadriji ichki (obrazlar tizimi) va tashqi (badiiy mazmun) shakllar uyg'unligini vujudga keltiradi. Professor H.Umurov ta'kidlaganidek, «Badiiy dialog holatni, o'y-xayolni talqin qilmog'i – uning ochiq mazmunidan yashirin mohiyati sari borishga kitobxonni «majbur» qilishi – bosh talab»¹ ekan, unda qahramon xarakteri, ruhiyati hamda manfaat-ehtiyojlarini ixcham tarzda ifodalash imkoniyati ortadi. Nutq shakli tasvir va tahlil hamda talqin madaniyatini birlashtiradi. Dialog va monolog ifoda aniqligini yetakchi usul darajasiga ko'taradi. Semantik-sintaktik munosabatlar tizimi nutqiy ta'sirning ijtimoiy amaliyotini ancha teranlashtiradi. E'tiborli jihat shundaki, mazkur holatda ijodkor individual uslubi orqali namoyon bo'lgan ritorik shakl badiiy idrokning kengayishiga zamin hozirlaydi.

Darhaqiqat, she'r monologik talqin hosilasi sanaladi. Unda o'z-o'ziga nisbatan taftish, tavsif, tahlil va muhokama in'ikos topadi. Ong va sezim munosabatini shakllantiradigan lirik ibtidoda hissiy kechinma yetakchi omilga aylanadi. Shu ma'noda, nutqiy muloqot shakllari badiiy maqsad va talab o'ziga xosligi namoyishida muayyan vazifaviy ahamiyat kasb etadi. Harakatdagagi bиринчи shaxs nutqida aslida hayotiy-estetik mohiyat psixologiyasi qarama-qarshi tomonlarga ajraladi. Rivoya texnikasi tezkorligi va o'zgaruvchanligi bayon izchilligini belgilaydi.

Har bir muloqot shaklida semantik-sintaktik aloqa tizimining turli manzaralari qorishib ketadi. Nutq shakllari jamlanmasi bevosita va bilvosita noadabiy omillar bog'lamiga daxldor mohiyatga erishadi. Ifodada ritorik munosabatlar rang-barangligi ma'no-mohiyatning aniqligini ta'minlaydi. Bu holat bayonning talqin bilan erkin ijodiy birlashuviga sharoit yaratadi. Zotan, rivoya subyekti intizomiy o'zgaruvchanligi tezkor ziddiyat hamda hissiy uyg'unlik mutanosibligiga zamin hozirlaydi.

Ta'kidlash kerakki, badiiy to'qima voqelikning yaxlit ko'rinishi sifatida namoyon bo'lishi bir tekis kechmaydi. So'z strukturasining

¹ Umurov H. Badiiy asar nazariyasi. – Samarqand: SamDU nashri, 2002. – B. 66.

lug‘aviy hamda uslubiy ittifoqi badiiy mantiq maydoni tabiatiga mansub bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, subyektlashgan nutqda monolog va dialog tig‘izlashuvi jarayoni kuzatiladi. Lirik asarda muloqot shakli badiiy ifodaning o‘ziga xos umumlashmasini vujudga keltirishga imkon yaratadi. Unda so‘zning qo‘llanilishi hayotiy va badiiy mantiq hamda mezon darajasida konkretlashadi.

Darhaqiqat, insonni ma’naviy barkamol, vatanparvarlik va umuminsoniylik ruhida tarbiyalashda badiiy adabiyotning roli beqiyosdir. Zero, ma’naviyat va ma’rifat, insonparvarlik, istiqlol va erkinlik hamda iqtisod tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Shu ma’noda, butun bashariyatga xos qadriyatlarni ulug‘lagan, inson taqdiri va uning orzu-istiklarini tarannum etib kelayotgan badiiy adabiyot faqat ma’naviyat uchungina emas, balki hayotning barcha jabhalari uchun ham xizmat qiladi. Chunki har bir asarda ifodalangan maqsad va g‘oya, albatta, o‘quvchiga muayyan bir ma’noda o‘z ta’sirini o‘tkazadi, asar mazmunidan o‘ziga tegishli xulosa chiqarishga chorlaydi.

Lirikada ijodkor ichki olamining namoyon bo‘lishini uning ifoda uslubidagi o‘ziga xoslik vujudga keltiradi. Shu ma’noda, ijodkorning ichki hissiyot boshqaruvi va tashqi muhit bilan o‘zaro muloqoti badiiy idrok imkoniyatlarini shakllantiradi. Mazkur jarayon voqelikka nisbatan munosabatli nutq sifatida (men, sen, o‘zga) aks etadi. To‘g‘rirog‘i, anqlik va mavhumlikaro mutanosiblashgan tasvir hamda tasavvur uyg‘unligini hosil qiladi. Badiiy idrok etish jarayoni esa bilvosita ritorik shakl va vositalarning o‘zaro aloqasiga tayanadi. Mavjud poetik o‘lcham badiiy talqin davomida tipologiya va mantiq ichki uyg‘unligini yuzaga keltirishini inobatga olsak, nazmda ifoda yo‘sini imkoniyati cheklanganligi ayonlashadi. Vaholanki, she’riyat hamisha inson ruhiyatini tahlil etishga xizmat qiladi. O‘z navbatida, ma’lum bir tushuncha muayyan ma’no ifodalashida muallif hayotiy konsepsiyasini dialog tarzida namoyon etadi. Ya’ni, ijodkor ongida shakllanadigan monologlashgan ifoda dialog hamda jonli so‘zlashuv uslubiga mansub savol-javoblarni vujudga keltiradi. Mazkur muhokama jarayonida tavsiifiy bayon ustuvorlashadi, shuningdek, she’r tili va ijodkor ruhiyati hamda matn umumiy mohiyati orasida aloqa vazifasini bajaradigan shoir subyektida o‘zga bir mohiyat (shaxsiy kechinma va umumiy

kayfiyat, lirik ifoda va ritorik munosabat) raqobati kuzatiladi. Unda muallifning badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahorati, adabiy pozitsiyasi, ifodalamoqchi bo‘lgan fikrning mazmun-mohiyatini aks ettirishda tahliliy imkoniyatlarning kengayishi aniq seziladi.

Ta’kidlash kerakki, matn shakllanishi fikr mantiqiy taraqqiyotining muayyan bosqichidir. Nutqning tuzilishi o‘z-o‘zicha mustaqil ifodani hosil qilmaydi, balki u faqat uslubiy vazifadoshlikda adabiy mohiyat kasb etadi. Zero, ushbu holatda idrok taomillari bilan baholash mezonlari uyg‘unlashadi. Muloqotning kechishida hayrat, zavq, taajjub, istak, murojaat va ularni anglash mohiyatan o‘zaro tutashadi. To‘g‘rirog‘i, monologlashgan dialog aloqalari tizimida tasavvur ziddiyatining (mohiyatni tasdiqlash yoki inkor etish) davomiyligi yetakchi tamoyil darajasiga ko‘tariladi.

Ma’lumki, badiiy nutq muntazam yangilanib turadi. U an’anaviy janr tizimiga yangilik kiritish va lirik ifodani o‘zgacha muhokama etishga zamin yaratadi. Zero, she’riy qahramon «men»i borliqning umumlashgan ko‘rinishidir. Shu ma’noda, tushuncha ma’no tabiatini ijtimoiy mohiyatga qadar yuksaltirgan holda psixologik jihatdan kuzatish va qiymatni bir-biriga tutashtiradi. Muayyan makon va zamonda gavdalanadigan tasvir miqyosi umumbashariylik kasb etadi. Bu o‘rinda hayotiy-maishiy asosdan badiiy talqinga o‘tish tarzi tuyg‘ular nazoratini o‘rnatishga imkon tug‘diradi, ong boshqaruvi esa asosiy maqsadni ro‘yobga chiqaradi. Shu nuqtayi nazardan, dialog va monolog ifodani mantiqan kuchaytirish barobarida bir xil yo‘sindagi stereotiplarga barham berishga intiladi.

Ta’kidlash kerakki, nutqiy malaka ritorik munosabatni oydinlashtirish bilan cheklanmaydi, balki tasavvur mohiyatini tiniqlashtiradi. Adabiy tilning umumiyy mezonlariga nisbatan qarama-qarshi munosabat hosil qiladigan badiiy muloqot tizimida so‘z g‘oyaviy mohiyat kasb etadi. Vaholanki, mavhum tushunchadan aniq obraz yaratish jarayoni ichki va tashqi uyg‘unlikni vujudga keltirishga yo‘l ochadi. Boshqacha aytganda, tasvirning mazmundorlikka yo‘naltirilganligi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Undagi ziddiyat badiiy nutq maydoni murakkabligini amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Negaki, muallif va qahramon ovozi she’riy muhokamada inkor-tasdiq ziddiyatini sodir etadi. E’tirof

etish lozimki, badiiy ong ijtimoiy yo‘naltirilganlik va estetik idrok nisbatidan oziqlanadi. Unda ijodiy jarayon hamda ijodkor ruhiyatı bir-birini to‘ldiruvchi mazmun-mohiyat kasb etadi. Aynan adabiy tafakkurning ong qatlamlaridan hissiy idrokka o‘tishi nutqiy birliklar mohiyatini to‘g‘ri tushunishga zamin hozirlaydi.

Mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Istiqlol davri o‘zbek she’riyati mohiyatini belgilovchi yetakchi mavzularni qanday izohlaysiz?
2. Qaysi shoirlar ijodida vatanparvarlik mavzusi yetakchilik qildi?
3. Istiqlol davri o‘zbek she’riyatida an’naviylik va novatorlik masalasi haqida qanday fikr dasiz?
4. Istiqlol davri o‘zbek she’riyatida shakl va mazmun jihatdan qanday yangilanishlar vujudga keldi?
5. Istiqlol davri yoshlar she’riyati xususida mulohazalaringiz qanday?
6. Istiqlol davri o‘zbek she’riyati xususida qanday monografik tadqiqotlarni bilasiz?

ISTIQOLOL DAVRI O'ZBEK HIKOYALARIDAGI ADABIY- NAZARIY O'ZGARISHLAR, O'ZBEK MODERN HIKOYALARI

Mustaqillik tufayli ijod imkoniyatlarining kengayganligi. O'zbek hikoyalarda yangicha sujet yechimlari, davr va qahramon masalasi. Hikoyalarda o'tmish va bugungi kun voqeligining boshqacha nigoh bilan ta'sirchan ifodalanganligi. Zamondoshlarning turlicha obrazlari yaratilganligi. O'zbek moderncha hikoyalar. Hikoyalarda ramziy-majoziy talqin. Qahramon xarakterini yaratishning yetakchi tamoyillari. Ijodiy individuallik.

Tayanch tushunchalar: Shakliy uslubiy yangilanish. Ijodiy niyat va badiiy g'oya munosabatlari. Badiiy g'oyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning namoyon bo'lishi. G'oyaning obrazli tasviri. Ijodiy induviduallik. Xarakter yaratish mahorati. Hayotiy va badiiy haqqa tuyg'unligi.

XX asr oxiri XXI asr boshi xalqimiz hayoti yangilanishlar, o'zgarishlar jarayoni ichra kechmoqda. Bu jarayonda voqealar nihoyatda shiddat bilan o'zgarib, qadriyatlar yangilanmoqda. Ana shu jarayonda hikoyachiligidan qanday qahramonlar kirib keldi? Ularning xarakter xususiyatlarini gavdalantirishda, badiiy idrok va tasvir prinsiplarida qanday badiiy talqinlar kechmoqda? Uning beshigini qaysi iste'dodlar tebratayapti? Ushbu savollar bugun adabiyyotshunosligimizdan aniq, ilmiy jihatdan asosli javoblar kutmoqda.

Gegel haqli ravishda ta'kidlaganidek, «...hayotni badiiy idrok etishda voqelikning mag'zi nasriy asarlar asosini tashkil etadi. Bunda odamlar ruhiyati bilan jamiyat psixologiyasini vobasta anglash, ko'rsatish va ifodalash adib badiiyatini belgilab beradi». ¹ Qolaversa, «Voqelikni realistik ifoda va idrok etishda san'atkorning estetik ideali, ijodiy nuqtayi nazari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Voqelik xossalari ikir-chikirlari, mayda tafsilotlari bilan detallashtirib tasvirlash orqali hayotning real manzarasi yaratiladi.

¹ Гегель. Сочинения. – М.: Худож. лит., 1958. Том. XIV. – С. 153.

Bu hayotni epik miqyoslarda ko‘rish va ko‘rsatish tamoyillaridandir. Bu – badiiy tasvir mazmundorligining realistik ifoda shakllaridan biri»¹ ekan, bu ma’noda mustaqillik davri o‘zbek hikoyachiligidagi adiblarimiz bir qancha yangi tamoyillarni yuzaga keltirayotir.

2.1. Qahramon xarakterini yaratishning yetakchi tamoyillari. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, bugungi hikoyachiligidagi muhim fazilatlardan biri adiblarimizning shirin yolg‘ondan uzoqlashib, hayotning konkret va real muammolari xususida mushohadakorlikka berilganida ko‘zga tashlanadi. Negaki, adabiyotimiz uzoq yillar umumxalq baxt-saodati haqidagi va’dalar girdobida kuymalanib, aldanib yashadi. Bugun esa, u o‘z rivoji uchun yangi-yangi manbalar izlayapti, topyapti. Bu o‘zligini tanib, bilib borayotgan, erkin va sog‘lom fikrlovchi, siyosatlashmagan individual qahramonlar obrazlarini yaratishga intilishdir.

Hozirgi hikoyachiligidagi mazmun-mohiyatida mahzun o‘ychanlik, mulohazakorlik kuchayib bormoqda. Chunki unda shaxs psixologiyasini jamiyat, tabiat voqeа-hodisalarini bilan omuxta badiiy-falsafiy tadqiq etish tamoyili ancha kuchaydi. Ko‘ngil deb atalmish ulkan dunyoning sirlarini anglashda hikoya qahramonlaridagi hissiy intellektuallikning mavqeyi ortdi. Zero, adabiyotshunos N.Rahimjonov ta’kidlaganidek, «badiiy fikrning mo‘jizakorligi shundaki, u shaxs va jamiyat siyrati bilan suvratini bir mag‘izning ikki bo‘lagi sifatida aks ettira olsagina, o‘z davrining bosh qahramoni bo‘lib qoladi. Barcha zamonlarda bo‘lgani singari yaxshi odam ham, yomon odam ham bugungi kun san’atining qahramoni bo‘lishga haqli».²

Bundan shuni anglash mumkinki, bugungi kunda adabiyotimiz, xususan, hikoyachiligidan yaratilayotgan qahramonlarga ijobjiy yoki salbiy jihatdan emas, balki insoniylig, insoniy burch, mas’uliyat nuqtayi nazaridan yondashish alohida ahamiyat kasb etadi. Negaki, insonga xos bo‘lgan aql va ko‘ngil tushunchalari doim ham bir-birini qo‘llab-quvvatlayvermaydi.

¹ Теория литературы. Основные проблемы в историческом освещение роды и жанры литературы. – М.: Наука, 1964. – С. 47.

² Rahimjonov N. Bugunning qahramoni kim? // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2001. – № 6. – B. 11.

Adabiyotshunos B.Sarimsoqov ta'biri bilan aytganda, «...realistik tasvirning vujudga kelishi badiiy obraz mazmuni va shakli o'rtasida to'g'ri proporsional munosabat hamma vaqt ham badiiylikning bosh mezoni bo'lavermasligini ko'rsatadi. Darhaqiqat, ezgu niyatli, doimo ezgu ishlarni amalga oshiradigan to'la ma'nodagi ijobjiy shaxs tashqi qiyofa jihatidan o'ta xunuk bo'lishi mumkin. Bu uning hayotiyligi, haqqoniyligini inkor etmaydi, balki oshiradi. Hayotda shaklan chiroyli, qaddi-qomatli, go'zal qiyofali shaxslar mohiyatan o'ta qabih niyatli, inson deyishga arzimaydigan kishilar ham uchrab turadi». ¹

A.Muxtorning «Fano va baqo», Sh.Xolmirzayevning «Ozodlik», X.Do'stmuhammadning «Bugun ertalab», N.Eshonqulning «Xayol tuzog'i» singari hikoyalari tajribasida kuzatadigan bo'lsak, keyingi yillar hikoyachiligidagi olam va odam sir-sinoatlarini, tevarak-atrofini o'ragan ijtimoiy muhitni falsafiy idrok etishga qaratilgan insonnnig yangicha dunyoqarashi, fikrlash tabiat qahramonlarning asosiy xususiyatiga aylanib bormoqda. Ularda voqealar, sujet oqimi qanchalik qiziqarli va e'tiborli bo'lsa-da, tabiat va jamiyat hodisalarini, odamlar fe'l-atvorini baholashda, umumlashmaxulosalar chiqarishda o'quvchiga ham fikrlash uchun keng imkoniyatlar qoldiriladi. Bu keng kitobxon ommasining tafakkur madaniyatini yuksaltirishda g'oyat muhim omildir.

Bugungi kunda ma'naviy-axloqiy masalalar hikoyalarning o'zak mag'zini belgilab berayotir. Shunga ko'ra ulardag'i konflikt ko'rinishlari ham shaxs va jamiyat, shaxslararo ziddiyat shakllarida emas, ko'proq shaxsnинг o'zini-o'zi yengib o'tishi, fe'l-atvoridagi noqislik illatlarini anglab yetishi, shaxsiyatidagi qusurlar bilan kurashishi singari ko'rinishlarda ifoda qilingan. Bu narsa adiblarimizning butkul diqqat-e'tibori, badiiy nigohi shaxs ruhiyatiga, inson qalbiga ko'chganligidan dalolat beradi. Insonning o'z ko'nglida kechayotgan hissiyotlari tahlili orqali jamiyat tartiblari va voqelik jarayoniga munosabat bildirish, ularni badiiy-estetik baholash hozirgi hikoyachiligidagi yetakchi tamoyillardan hisoblanadi. Zero, «Badiiy adabiyotning yangi xususiyatlari o'ziga xosligi birinchi navbatda inson konsepsiyasida o'z ifodasini topadi.

¹ Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T.: Fan, 2004. – B. 94.

Chunki inson konsepsiyasida davr va jamiyatning butun borlig‘i-rivoji, zamon talabi asosida tug‘ilgan ziddiyatlar, muammolar, negativ holatlar o‘z ifodasini topadi».¹

Demak, bugungi kunda shaxsni ijtimoiy-psixologik yo‘nalishda tahlil qilish badiiy-estetik tadqiqotchilikning muhim xususiyatlaridan biriga aylandi. Xususan, Asqad Muxtorning «Fano va baqo» hikoyasida ko‘ngil deb atalgan o‘ziga xos dunyoning bir ko‘chasiga nigoh tashlanadi. Agar e’tibor bersak, adib o‘z umrining so‘nggi yillarda yaratgan hikoyalarida («Fano va baqo», «Chodirxayol», «Jinni» va h.k.) fojeiy ohangning kuchli ekanligi seziladi. Konflikt va xarakterlarning fojeiyligidan tashqari badiiy talqindagi fojeiy ifoda yo‘sini adibning avvalgi izlanishlarida ko‘rinmagan edi. Ta’kidlash kerakki, ijtimoiy voqelikning o‘zida yovuzlik g‘ij-g‘ij qaynab yotibdi, uni haqqoniy aks ettirish uchun dunyoning fojeiy ruhini aks ettirish lozim. So‘nggi yillarda yaratgan hikoyalaridagi fojeiy ohang orqali Asqad Muxtor hayotning shafqatsizligi oldida kishilarni domdirab esankiramaslikka da’vat qilayotgandek tuyuladi. Negaki, ko‘ngildagi sanchiqlar, dilimizdagи og‘riqlar qanchalik o‘kinchli va alamli bo‘lmasin, haqiqat, ezgulik va adolat undan baland turadi.

Demak, so‘nggi yillar o‘zbek hikoyachiligidagi «psixologizm – inson taqdiridagi xoh fojeiy yoki romantik, xoh jo‘mardlik yoki satirik holatlar bo‘lsin, barchasini realistik o‘zanga solayotir. Bu – realistik tasvir va tafakkur madaniyatining yangi ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi».² Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, mazkur qarashlar har bir davr uchun o‘z yangiligini yo‘qotmaydi. Chunki davr almashgani sayin insonlar (qahramonlar) psixologiyasi, tafakkur madaniyati ham yangilanib boradi.

Ko‘rinadiki, fojeiy qismatlarni realistik o‘zanda tasvirlab berish ham san’atdagi go‘zallikning o‘ziga xos ko‘rinishlaridan biridir. Shu ma’noda aytish mumkinki, «kishilararo munosabatda go‘zallikni xunuklik, eskiliklardan ajratib olish, ajratib olganda ham, realistik san’at qonuniyatlari chegarasidan chiqmasdan, uni kitobxonga ta’sir qiladigan darajada jozibali, zarur paytlarda biroz qabartirib,

¹ Karimov H. Hozirgi o‘zbek nasrida hayot haqiqati va inson konsepsiysi: Filol. fanlari dok ...diss. – T., 1994. – B. 304.

² Теория литературы. Основные проблемы... – М.: Наука, 1964. – С. 137.

romantik rang berib aks ettirish oson ish emas. Kishilararo munosabatlarda ro'y beradigan hayot go'zalliklarini, «man a men» deb ko'zga yarq etib tashlanavermaydigan hayot murakkabliklari orasida yashiringan, aksariyat paytlarda hayotning mayda ikir-chikirlariga qo'yilgan go'zallik namunalarini chinakam iste'dodli realistlargina o'z vaqtida butun borlig'i, ko'r kamliji bilan his qilib anglay oladi. O'z asarlari bilan uni boshqalarga ham his qilish va anglab olishga vositachi bo'la oladi». ¹

«Fano va baqo» hikoyasining oxiri quyidagi band bilan yakunlanadi: «Ha u ham tirik, bu ham tirik. Endi to oxiratgacha ular bir-birlarini ta'qib qiladilar. Yana oldinda umr, yana hayot, yana gunoh, yana jinoyatlar... Azobli yo'lni baribir bosib o'tish kerak. Fanoda ham, Baqoda ham. Xudovand bir insonga ikki dunyoni berib qo'yibdi. Ammo iymonni boy berganga ikkalasi ham harom ekan». ² Hikoyaning fojiali falsafiy mag'zi ana shu so'nggi jumlada mujassamlashgan. Iymonini kuydirgan, iymonini yo'qotgan, ikki dunyosini barbod etgan kimsalar kim o'zi? Odatda, jahon klassikasining fojeiy asarlari qahramonlarning o'limi bilan yakunlanar edi.

A.Muxtor hikoyasidagi iymonsiz Xolxo'ja ham, Ochil ham bir-birini tiriklay «bo'g'izladi», tiriklay «chavaqladi», lekin har ikkisi ham tirik qoladi. Hayot deganlari shu ekan-da. Yo'qsa, to'ppato'g'ri yo'lda ketaturib, to'satdan chalinib yiqilgan odam o'lib ketishi hech gap emas. Ajali yetsa, kuni bitsa, shu-da. Yurib turgandami, o'tirgan paytidami, osmonda uchib ketayotgandami dorilbaqoga rihlat etishi – Ollohnning irodasi.

Tragediya janridagi katarsis holati, ya'ni qahramonlarning ruhiy evrilishi, poklanishi jarayonidagi hayrat, qo'rquv, dahshat bugungi o'zbek hikoyachiligidagi psixoanaliz-ruhiyatlar badiiy tahlili tarzida zohir bo'layotir. Asqad Muxtorning «Fano va baqo» hikoyasida ana shu sifat o'zgarishining inkishofini ko'ramiz.

Hikoya qahramonlari Xolxo'ja bilan Ochil tasodifan, zilzila sabab zax, qorong'i yerto'lada qolib ketishadi. Chiqishga yo'l yo'q, bino buzilib, eshig-u tuynuklari tuproq ostida ko'milib ketgan. Ikkisi

¹ Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. Adabiy tarixiy jarayon. II jild. – T.: Fan, 1979. – B. 162.

² Muxtor A. Fano va baqo // Sharq yulduzi. – 1992. – № 6. – B. 105.

uzoq muddat och-nohor yer ostida tiriklay ko‘milib qoladi. Tanishishadi, o‘lib ketmaslik uchun bir-biriga yordam ham berishadi.

Jahon klassikasining tragediya janri namunalarida fofija, odatda, an’anaviy uchliklar zimmasiga yuklanar edi. Endilikda, zilzilalar o‘chog‘i vulqonlar bag‘riga yashiringani kabi fojialar markazi ko‘ngillar tubiga cho‘kdi. Ollohnning qahridan qo‘rqmasdan, gunohga botgan osiy bandalar vijdon azobidan qutilish uchun dilini poklashga tutinadi. Dastlab Xolxo‘ja o‘z gunohini izhor etadi. Qanday qilib begunoh bir kimsani odam o‘ldirishda ayblab tuhmat bilan qamatib yuborganini so‘zlab beradi. Ochil ham o‘z aybini bo‘yniga olib, Xolxo‘jaga kechmishini gapiradi. «...Qisqa umrimizda shuncha gunoh! Ming yil yashasak, nima bo‘lardikin? Dahshat! Yosh ekansiz – bilmaysiz! Hayot o‘limdan yomonroq. Men ne vaqtdan beri shuni o‘ylab, boshim yorilay deyapti. Hayot zararli, odam shunday o‘ladi asli. Ammo-lekin dorilbaqo... Ostonasida turgan kishi uchun fanoning o‘zi ham, u tug‘dirgan mudhish gunohlar ham hech nima emas. Faqat ularni dunyoga tashlab ketish kerak».¹

Bir so‘z bilan aytganda, Xolxo‘ja ham, Ochil ham sha’nini, qadrini nafsga almashtirgan bandalar. Aybiga iqror bo‘lish, tavbatazarru u dunyosini obod, oxiratini saodat etadi, deb biladi. Eng muhimi va dahshatlisi, o‘z qilmishlariga o‘zlarini adolat yuzasidan baho berishga intiladi. Eng hayratlisi, vijdon azobi – adolat mezoni, deb tushunadilar.

Qahramonlarning gunohi tarixi – bu ojiz bandalarning fe'l-atvoridagi nuqsonmi? Yoki qilmish-qidirmish, yozug‘i shumikan? O‘ziga qolsa, tabiatidagi qusurlar, yengil hoy-u havaslarga moyillik shunchalar fojiaga olib kelishiga indamay qarab turarmidi? To‘g‘ri, beayb parvardigor, lekin inson bolasi bir qoqilsa, munkib yuztuban ketishi, gunohi azim chohiga yiqlishi shunchalar tez kechadimi? Ha, darvoqe, qachon u o‘z sha’nini oyoqosti qilgan, qadrining yuziga tupurgan edi? Xolxo‘ja ham, Ochil ham sirtdan qaraganda odamlar ko‘z o‘ngida bamisolari farishta. Biroq ular nafs arzandas, nafs gazandas, ular o‘z irodasining egasi emas. Ularning aqli-shuurini

¹ Muxtor A. Fano va baqo // Sharq yulduzi. – 1992. – № 6. – B. 98.

nafs boshqaradi. Gunohini odamlarga bildirmaslik uchun, bir-birini yana boshqa gunohlar botqog‘iga tortib ketadi. Avval ular nafs quli bo‘lgan bo‘lsalar, endilikda o‘z gunohlarining quliga aylanishadi.

Xolxo‘ja ham, Ochil ham qilib qo‘yan gunohining passiv tomoshabini emas. Har ikki qahramon jamiyatda, odamlar o‘rtasida tutgan e‘tibor-mavqyeiga putur etkazmaslik uchun harakat qiladilar. Ana shu qo‘rquv hissi, odamlar ko‘z o‘ngida o‘z qadrini tushurmaslik tuyg‘usi galdeg'i fojiaga olib boruvchi qaltsi qadamlarni keltirib chiqaradi. Bir-biriga do‘sit bo‘lib aytgan iqrirlari endilikda bir-birini yo‘qotish, o‘ldirish niyatini yuzaga chiqaradi. Chunki ular gunohlarini hech kim bilmasligini, misoli farishtadek yurishni istaydilar. Biri ikkinchisining gunohini – jinoyatini aytib qo‘yishidan qo‘rqadilar. Qo‘rquv, hadik-xavotir, nomalum dahshatli ertangi kun oldida yuragini hovuchlab yashash hissi hikoyaga o‘ziga xos fojaviylik, dramatizm bag‘ishlaydi.

Bir-biriga bo‘lgan shubha saboq emas, galdeg'i mudhish oqibatni keltirib chiqaradi. Demak, bu yerda shubha-gumon fojianing ichki tadrijini namoyon etayotir. Xolxo‘ja Ochilning taomiga zahar qo‘sib qo‘yadi, Ochil esa o‘z navbatida Xolxo‘janing tog‘dan tushadigan mashinasining tormozini buzib qo‘yadi. Ochil zaharlanib o‘lishi, Xolxo‘ja esa mashinasi bilan tog‘dan qulab tushib halok bo‘lishi kerak edi, lekin har ikkisi yana baxtli tasodif tufayli omon qoladilar.

E‘tibor berilsa, har ikki qahramonning yovuz qilmishi ba‘zi hollarda ma’naviy-axloqiy tasavvurlarimizning chok-chokidan so‘kilib ketayotganligidan dalolat ekanligi anglashiladi. Chunki, ular ma’naviy-axloqiy tushunchalarimizni tuproqqa qorishtirib yuborishyapti. Avvalgi kichkina qo‘rquv keyinchalik dahshatga aylanadi. Endi u ertaga yana qanaqa fojialarni keltirib chiqarar ekan? Ertangi kunining esa yorug‘ saodatmand bo‘lishiga kafolat yo‘q, chunki har ikki qahramon bir-biriga sirdosh birodar emas, ko‘rishga ko‘zi, otishga o‘qi yo‘q murosasiz g‘anim. Bu o‘rinda, eng katta fojia, har ikki qahramon o‘z qilmishi va kechmishini, ko‘ngliga tugilgan ertangi qabohatlarni ham adolat nuqtayi nazaridan baholamoqchi bo‘layotganidadir. Eng achinarlisi, ana shunday yovuz holatda ham har ikkisi o‘zini haq, deb biladi. Demak, har ikki

qahramonning tanazzuli, ma’naviy o‘limi axloqiy qadriyatlari barbod bo‘lgan shaxsning ruhiy kechinmalaridan bir dalolatdir.

Ruhiy poklanish oqibatida qahramonlar o‘z boshiga solgan fojeiy «savdo»ning axloqiy saboqlari nimada? Har ikki fojiali taqdirdan qanday ma’no uqish mumkin? Fojianing ishonarli jihat shundaki, u hayotiy muhit va insoniyatning axloqiy oqibati. U shunday bir axloqiy qonuniyatki, inson iqtidorini to‘g‘ri yo‘nalishga solsa, gullab-yashnaydi, aksincha, o‘zligini unutsa, ne-ne g‘alvalar, ko‘z ko‘rib qulq qulq eshitmagan savdolarni boshiga sotib olishi hech gap emas.

Yovuzlik ham ana shunday ruhiy muhit, uni o‘z ko‘nglida gullab-yashnatadigan ham, qovjiratib so‘ldiradigan ham odamning o‘zi. Yovuzlik shunday bir kuchki, odamdagи odamiylikni tavonining tagida ezib, majaqlab tashlaydi. Odamdagи buyuk yaratuvchilik salohiyatini, muhabbatini chalajon, majruh etadi. Qo‘rquv, hadik-xavotir, shubha-gumon inson erkini xarobaga aylantirgan bir yalovdir. «Men g‘olibman», «Men – erkinman», degan odam o‘zini o‘zi aldaydi. Chunki uning ichida muzaffar qo‘rquv hukmronlik qiladi.

«Bir xil bemorlik jomasi kiygan bu ikki kishi, ikki shumshuk it-mushuk, bu dunyoda bir-birlarni ko‘rmaslik uchun qolgan umrlarini berishga tayyor edilar. Oldinga bir qadam qo‘ymay, tikilib qolishdi. Uzoq, juda uzoq tikilishdi». «Yo rab, sen ham qaytdingmi, sen ham tirikmisan?! degan xitob bor edi ikkalasining ham ko‘zlarida. «Bo‘lmasa, yerto‘ladagi gapni ovoza qilishni endi ko‘r!» der edi ikkalasi ham ichida. Va hamon tikilishar edi».¹

Ruhan poklanish niyatidagi har ikki hamsoya yana gunohi azimga botadi. Demak, ruhan evrilish ma’naviy pokdomonliksiz amalga oshmas ekan. Iymon salomatligi – odamning ikki dunyosini ziynatlovchi sha‘ni, davlati. Uni boy bergen kimsaning esa har ikki dunyosi unut bo‘ladi.

Har qanday badiiy asar ham aniq bir hayot haqiqatini ro‘yobga chiqarish uchun xizmat qiladi. Bunda yozuvchining iste’dodi, mahorati va matonati eng muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, «Iste’dod – murakkab ijtimoiy muhit. Iste’dod – yozuvchining ijodiy

¹ Muxtor A. Fano va baqo // Sharq yulduzi. – 1992. – № 6. – B. 105.

kuchlari kompleksi va uning ijod qilish ishtiyoqi, shunga layoqati, qobiliyatি.² Shuning uchun ham iste'dodi yuksak adiblar asarlarida o'z davrining ma'naviy qiyofasi yaqqol aks etib turadi.

Bu narsa esa asar qahramonlarining faoliyati va xarakter xususiyatlari orqali ifodalanadi. Illo, «Xarakter va uning psixologiyasi tahlili adabiyotning kamoloti, yozuvchining mahorati darajasini belgilovchi omildir».³

Iste'dodli adib T.Murod ijodi, xususan, hikoyalarda ham ruhiy tahlil va falsafiy ma'nodorlik ancha kuchli. Ana shu ma'noda, garchi T.Murod hikoyalari istiqlol davrida yozilmagan bo'lsa-da, qahramon va uning xarakterini yaratishdagi nozik psixologizmning o'ziga xos ko'rinishlarini o'rganish, davr jihatidan taqqoslash maqsadida adibning «Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi» kitobiga kiritilgan hikoyalari haqida qisman mulohaza bildirib o'tishni lozim topdik. Kitobga kiritilgan «Bobosi bilan neverasi», «Kuzning bir kunida», «Ku-ku-ku...», «Er-xotin» hikoyalarning voqealari har kuni atrofimizda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hayotiy epizodlardan iborat. Lekin har bir hikoyadagi bir-birini takrorlamaydigan o'ziga xoslik bilan yozuvchi hayot haqiqatini aytishga, tasvir mantig'iga amal qilishga intiladi. Ma'lumki, hayot haqiqati xarakter mantig'iga muvofiq bo'lmasa, obrazning mohiyati ham yaxshi ochilmaydi. T.Murod hikoyalardagi xarakterlar nosirning real hayot bilan estetik ideali yig'indisidir. Buning natijasida yozuvchi o'tgan asrning 70-yillari voqeligiga muayyan munosabat bildiradi.

Individual xususiyatlarga boy xarakterlar ruhiyatini ochishda yozuvchi kontrast usulidan foydalanadi. Hikoyalarning hayotiyligi, realligi va g'oyaviy-estetik yuksakligini konfliktlarning ishonarli ekanligi ham ta'minlaydi. Eng muhimi, bu hikoyalarda T.Murod o'sha davr hodisalariga tanqidiy yondashib, inson va uning taqdiri, buguni hamda kelajagi haqidagi muammolarni ko'tarib chiqadi. Qahramonlar talqinida o'sha davr qiyofasini va uning fojeiy holatlarini aks ettiradi. Negaki, bu hikoyalar yozilgan vaqtida bizda inson shaxsiga bo'lgan e'tibor tamomila boshqacha edi.

² Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O'zbekiston, 2002. – B. 63.

³ Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – T.: Sharq, 2002. – B. 38.

Sh.Xolmirzayevning «Yashil niva», «Ustoz», «Ko‘k dengiz», T.Murodning «Kuzning bir kunida», «Ku-ku-ku...» kabi hikoyalari misolida aytish mumkinki, o‘tgan asrning 70-80-yillarda adiblarimiz, asosan, shaxsning jamiyatda tutgan o‘rnini va qadr-qimmati kabi muammolarni aks ettirishning o‘ziga xos tamoyillarini vujudga keltirgan edi. Bugunga kelib esa bu muammoning mohiyati tubdan o‘zgardi, endi yozuvchilarimiz ko‘proq shaxsning ko‘ngil kechinmalari orqali «Inson kim va u nimalarga qodir?» kabi savollarga javob izlab, insonning ichki olamini tadqiq qila boshladi. Bu xususiyat badiiy adabiyotda yangidan-yangi tamoyillarni ro‘yogba chiqardi.

Bugungi hikoyachiligidan badiiy psixologizm – tuyg‘ular realizmi tahlili nuqtai nazaridan qaraydigan va o‘rganadigan bo‘lsak, unda avvalgi o‘n yilliklardan farqli o‘laroq hayotni, insonni tuyg‘ular tarhi, kechinmalar dinamikasi orqali badiiy tadqiq etish madaniyati shakllanganligini kuzatish mumkin. Avvalgi o‘n yilliklarda sotsiologik talqin va o‘shanga mos badiiy idrok va ifoda yetakchilik qilgan bo‘lsa, bugunga kelib insonni falsafiy-psixologik tushunish hamda tushuntirish ustuvor tamoyil bo‘lib qoldi. X.Do‘stmuhammadning «Bugun ertalab», N.Eshonqulning «Xayol tuzog‘i» hikoyalari bu borada fikr yuritish uchun asos bo‘la oladi.

«Haqiqiy san’atkor qay davrda yashashidan qat‘i nazar, hayotning taraqqiyot tendensiyalarini shunga qarab belgilashi uning birinchi darajali ijodiy yutuqlaridan hisoblanadi»,¹ – degan edi, I.Sulton. Qolaversa, V.G.Belinskiy uqtirganidek, «...badiiy asarda tasvir etilayotgan go‘zallik hayotning o‘zida mavjud va shu go‘zallikni yorqin ko‘rsatishning o‘zi badiiylik va haqqoniylilikning birinchi shartidir».² Nazar Eshonqul ijodiy izlanishlari misolida uning amaliy tasdig‘ini ko‘rishimiz mumkin.

Adibning «Xayol tuzog‘i» hikoyasida falsafiy ruhiy tahlilning o‘zgacha ko‘rinishining shohidi bo‘lamiz. Hikoyada axloqiy pokdomonlik – boqiy ma’naviy qadriyat hamma vaqt adolatning asosiy mezonlaridan biri sifatida talqin etiladi. Bu – masalaning bir jihat. Ikkinchi va eng muhim jihat shundaki, barcha baxtsizlik,

¹ Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. Adabiy-tarixiy jarayon. II jild. – T.: Fan, 1979. – B. 162.

² Белинский В.Г. Полное собр. соч. – М.: Наука, 1954. Т. 5. – С. 556.

xo‘rliklar va xorliklar ko‘nglimizda o‘sib-ulg‘ayib mutelik tuyg‘ulari tarzida hosil berar ekan, hammasiga o‘zimiz sababchi bo‘lamiz. Yo‘qsa, aql-hushi butun, iste’dodli Voqif vos-vos kasaliga chalinib, savdoyi bo‘lib qolarmidi?

N.Eshonqul «Ijod-ruhning hurligidir» mavzusidagi suhbatida shunday degan edi: «Bugungi o‘tish davri kabi o‘tkinchi «asar»lar serob. Shunday bo‘lsa ham bozorbop yoki bugun bozori chaqqon asarlarni adabiyot deb baholayvermaylik. Adabiyot – millat ruhining, millat madaniyatining bir qismi. U sotilmaydi, sotib olinmaydi, yolg‘on gapirolmaydi. Inson nomini asrlar osha mag‘rur kuylab turadi. U har qanday jamiyatda ham inson ruhining mash’alasi bo‘la oladi. Ijod – Olloh taolo insonga bergen eng buyuk ne’mat. Ijod inson ruhining hurligidir. Shu sababli unda yolg‘on gapirib bo‘lmaydi».³

Adibning mazkur estetik konsepsiysi «Xayol tuzog‘i» hikoyasida go‘zal badiiy tajassumini topgan. Asar ijodkor shaxs fojiasini, savdoyilikka muftalo bo‘lgan inson qismatining o‘kinchi va dahshatini iste’dodli a’zosini himoya etolmagan va aksincha, odamni jinni bo‘lishga majbur etgan muhitning kasallik ildizlarini ochib ko‘rsatishga yo‘naltirilgan.

Akademik I.Sulton ta’kidlaganidek, «realizm hayotdan nusxa ko‘chirish emas, hayotni fikr «elagidan» o‘tkazib, uning «mag‘zini chaqib» tasvirlashni talab etadi».¹ Bu narsani akademik M.B.Xrapchenko asarlarida yanada chuqur ta’riflangan holatini kuzatamiz. «Realistik metodning mohiyatini, uning jonini, qalbini ijtimoiy tahlil, insonning ijtimoiy tajribasini tadqiq va tasvir qilish orqali shaxs bilan jamiyat orasidagi sotsial munosabatlarni, hamda jamiyatning ichki tartiblarini o‘rganish va tasvir etish tashkil qiladi».²

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, insonning iqboli-yu zavoli o‘z tabiatini va shu inson voyaga yetgan jamiyatning ma’naviy-axloqiy asoslari bilan bog‘liqdir. «Yirtqichdan qochgan quyon ovchi tuzog‘iga tushib qolganidek, Voqif ham o‘zining omadsizlik,

³ Eshonqul N. Ijod-ruhning hurligidir // Yozuvchi. 1998-yil. 21-yanvar.

¹ Sulton I. Adabiyot nazariyasi. –T.: O‘qituvchi, 1980.-B. 306.

² Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – М.: Худож. лит., 1970. – С. 191.

tushkunlik va umidsizlikdan iborat umr bo‘ronlaridan qochib, xuddi o‘zi tasvirlagan shahar o‘rtasidagi ulkan binodan mahobatli va servahm xayol tuzog‘iga tushib qolgan edi. Odam hayotiga mahbusligini, bu hibsxonadan faqat xayollar orqaligina uchib chiqishi va shu yo‘l bilangina ko‘ngli va ruhini ozod qilishi mumkinligini uzoq uqubatlardan so‘ng anglab yetgan kishigina shunday tuzoqqa tushishi mumkin».³

Ko‘ngil va ruh erkinligi – bu masalaga tasavvufiy tasavvur tushunchalar orqali tiriklik mohiyatini baholash emas, u insoniyatni ma’naviy nafs masalasining rangin qirralaridan biri tariqasida o‘ylantirib kelayotgan muammodir. Insonga ato etilgan tiriklik saodathli ne’matmi yoki ruhiy qullik ko‘rinishlaridan birimi? Balki Hayot deb atalgan tuzoq Insonni ovlash uchun yaratilgan vositadir? Inson shunchalar shafoatga va shunchalar qabohatga moyil xilqatmi? U shunchalar buyuk va shunchalar tuban mo“jizami? Inson o‘zining dunyoga kelish sabablari-yu bu dunyodan ketish oqibatlarini o‘ylab o‘zini-o‘zi adoyi tamom qiladimi? Agar u Hayot deb atalgan bino bilan tiriklik deb atalgan Nafasning quli bo‘lmasa, oqibat nima bilan tugardi?

N.Eshonqulning «Xayol tuzog‘i» hikoyasida yuqoridaagi mulohazalar asosida adib o‘z qarashlarini ifoda qiladi. Hikoya qahramoni Vojifni halokatga, fojiaga olib kelgan omillar shunchalik serobki, uning sevgi-muhabbatda ham, kasb-kor etagini tutishda ham baxti butun emas. Sevgilisi Robiya bilan oila qurishda qarshilikka duch keladi, tirikchilik bir navi o‘tib turishi uchun esa o‘rtamiyona bir gazeta tahririyatida ishlashga majbur bo‘ladi. Qolaversa, uning irodasining tizgini ham o‘z izmida emas, u ixtiyorini muhitning ra‘yiga, tartib-tuzumlariga topshirib qo‘ygan shaxs. Vojif tomonidan yo‘l qo‘yilgan gunohlardan biri ham aynan shunda. Irodasining sustligi, o‘z ixtiyorini qo‘ldan boy berishi Ollohning irodasiga befarqliq bilan barobardir. Bu esa o‘z iroda kuchiga ham ishonchi sust demakdir. O‘zigaki ishonmagan, o‘z ko‘ngligaki tayanmagan inson Yaratganning irodasiga ham sustlik ko‘rsatadi. Ishonch tuyg‘usi esa ma’naviy mas’uliyatdan, ichki zaruratdan, ko‘ngil qat’iyatidan vujudga keladi. O‘z irodasi kuchiga mas’ullik,

³ Eshonqul N. Xayol tuzog‘i // Sharq yulduzi. –1994. – № 9. – B. 152.

ruhiy ehtiyoj va qat'iyat Olloh irodasiga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Olloh irodasiga tayanib o'zining yo'lidan toymaslik insonni gunohga chalinishdan asraydi. Yorug' saodat, ezgu amallar sari undaydi.

«Bu dunyoda noma'lum narsalar shunchalik ko'pki, bu noma'lumlik har qanday odamni yutib yuborishi hech gap emas. Eng yomoni – o'zingga o'zing noma'lum bo'lib qolishing. Noma'lumlik har kecha mening ustimga lashkar to'plab keladi, tuzoq tashlab ko'radi. O'ziga-o'zi noma'lum odam – qiyofasi yo'q odam. Qiyofasi yo'q odam tiriklar binosida yashay olmaydi. Bu eski, badbo'y binoni qanchalar kezmasin, o'ziga qiyofa topolmaydi. Qiyofasi yo'q odam esa o'lgan odamdir...»¹ Hikoya qahramoni Voqifning ushbu muhokama-mulohazalari bu o'z irodasi tizginini boy bergen, ruhi so'niq, ko'ngli mute yigitning e'tirofidir. Zero, irodasi erkin bo'lмаган kimsaning dili ham qul bo'ladi. U o'z xatti-harakatlariga mas'ul emas va u o'z bosgan qadami ezgulikka yoxud yovuzlikka olib boradimi, buni ham tugal idrok etolmaydi.

Voqifning fojiasi shundaki, o'zidagi iroda salohiyatini, tabiatidagi himmat, olijanoblik, iste'dodini namoyon etish o'mniga ko'proq o'z erkini yuzaga chiqarish yo'llarini izlab, mulohazaga beriladi xolos. Hikoyadagi oq uy – qamoqxona, bolta, qon – shunchaki timsollar emas, ular – erk kushandalari. Voqif shaxsini sindirgan, iste'dodini bo'g'ib, ko'ngil erkining zohir bo'lishiga imkon bermagan yovuzlik kuchlari tariqasida namoyon bo'ladi. Odam botinidagi Ezgulik bilan Yovuzlik olishuvida ulardan birining ustunligi Iroda erkinligining parvozi yoxud tanazzuli demakdir. Shunday ekan, Voqif o'z erkini o'zi boy berdi, uning fojiasi ham ana shunda. U o'zini o'zi yengolmay, zohiri va botinidagi yovuz kuchlar qurbaniga aylandi. Shu kabi mulohazalar xususida adib va olim X.Do'stmuhammad shunday yozadi: «Chinakam fojia boshga tashvish tushganida emas, boshga tushgan tashvishdan xolos bo'lish chorasiini topa olmaslikni anglab yetishda».¹

Sinov – bu insonning ma'naviy evrilish bosqichlari, ruhiy poklanish imkoniyatlaridir. Olloh taolo o'n sakkiz ming olamni

¹ Eshonqul N. Xayol tuzog'i // Sharq yulduzi. – 1994. – № 9-10. – B. 153.

¹ Do'stmuhammedov X. Hozirgi o'zbek hikoyachiligidagi badiiy tafakkurning yangilanishi: Filol. fanlari nomzodi ... dis. – T., 1995. – B. 77.

boshqargani singari odamning ruhi ham vujudini boshqaradi. Agar ko'ngil qul bo'lsa, bu ruhning aksi, ruh tabiatidagi holatning muayyan bir ko'rinishi xolos.

«...Voqifdan qolgan xotira yoki ikkalalari o'rtasidagi muhabbatning timsoligina emas, balkim do'zaxdan ham yuz karra mudhishroq va ayanchliroq bo'lgan umrdan ma'no va mazmun izlagan odamning hayot haqidagi xulosasi ham ekanligini, Robiyaning o'zi e'tirof etganidek, binoning mavjud bo'lishi yoki bo'lmaslidan qat'i nazar, bedaraklikka yuz tutgan qalbni faqat Yaratgangina muhokama qilishga qodirligini va hammamiz ham ertami-kechmi baribir shu yo'lni tanlayajagimiz va shu xulosani topajagimizni yoqib bo'lingan o'choqdek oftobning so'lg'in nurlari to'kilib turgan, xuddi odamning o'tgan kunlari kabi xazonlar uyulib yotgan o'sha kuz oqshomi juda yaxshi tushunib yetgandim; alohal, o'lim malikasi quvlab yurgan va yelkasida uning nafasini his etib borayotgan g'ulu hamda aldovga mubtalo bo'lgan qalbning yo'qlik olamiga chekinishini tushunish unchalik qiyin emas edi... Yo'qlik binosini ko'ra olgan Voqifga tiriklar orasida ham, o'liklar orasida ham joy qolmagan ekan». ¹

Voqif bu dunyodan o'z o'rmini topolmagan, hayotini yo'lga qo'ya bilmagan ekan, u dunyosidan ham norozi. U dunyosiga ham borgisi yo'q va u o'zga uchinchi dunyoga, aniqrog'i, ruhlar dunyosiga bosh olib ketadi. U yer yuzida tirik yurgan chog'ida ham o'zini ruhiyat bandasi deb bilardi va yolg'iz ruhi bilan suhbatlashar, yolg'iz ruhining irodasiga bo'ysunar edi.

Bu o'rinda Ruhning mohiyatini tiniqlashtirib olish zarurati tug'iladi. Ruh deganda nimani tushunamiz? Ruhning tabiatini nimadan iborat? Ruh – odam vujudidagi obihayot. Ikkinchidan, Olloh irodasi bilan Inson ko'ngliga joylangan hayot quvvati. Uchinchidan, bu Olloh taoloning amri bilan bog'liq bilgich dunyosi. «...Olloh aytdi: men siz bilmagan narsalarni bilaman. Va u zot Odamga barcha narsalarning ismlarini o'rgatdi... Keyin aytdi: Sizlarga, Men Yer-u osmonlarning sirlarini va sizlar oshkor qilgan va yashirgan

¹ Eshonqul N. Xayol tuzog'i // Sharq yulduzi. – 1994. – № 9-10. – B. 153.

narsalarni bilaman, demaganmidim» (Qur’oni karim. Baqara surasi, 31-33-oyatlar).

Demak, fonyi va boqiy dunyodan tashqari yana ruh olami – Bilgich dunyosi ham mavjud ekan. Odam ana shu uchinchi dunyoning sohir saodati – obi hayotdan totib, ilhom olib, yashashga shavqi-zavqi ortadi. Demakki, o‘zligini qancha teran anglagan sayin hayot va umr sirlaridan voqif bo‘lib boradi.

«Xayol tuzog‘i» hikoyasining qahramoni Voqif fojiasi yana shundaki, u Bilgich dunyosining Yo‘qlik vodiysida chalg‘ib, cho‘kib ketgan inson. Bu narsa aksariyat hollarda Olloh bilan ijodkor odamlar o‘rtasidagi muloqotda ko‘ngil bilan bog‘liq kechadi. Xususan, Olloh bilan ijodkor shaxs o‘rtasida kechayotgan ilohiy suhbat chog‘ida u ko‘ngil ra‘yiga mukkasidan ketadi. Olloh irodasini negadir hisobga olmay qo‘yadi. Ya’ni Ollohni bir lahma bo‘lsa-da unutadi. Voqifning Borliqdan Yo‘qlik chohiga yiqlishi uchun ana shu soniya ham kifoya qiladi. Bu bilgich dunyosida turib, o‘zini-o‘zi bilmaslik, ko‘ngliga joylangan erkinliklarning mohiyatini unutishlik oqibatidir.

Ana shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, hozirgi hikoyachiligidizda qahramonlar xarakterining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri adabiyotshunos N.Rahimjonov ta’kidlaganidek, «hamma gap adibning qanday mavzu va qahramonlarni tanlamasin, falsafiy-psixologik tahlil etishi va insonning zafari yoki inqirozi orqali tiriklik falsafasini, jamiyat psixologiyasini, umr hikmatini badiiy mujassamlashtira olishi, ma’naviy qadriyatlarni himoya qiluvchi umumbashariy mazmundagi xulosalar chiqara bilishida ekan».¹ Demak, bugungi kunda ham «Shaxs taqdirini ijtimoiy-falsafiy yo‘nalishda badiiy tadqiq etish hikoyachilikdagi epik idrok va ifoda madaniyatining yangi ko‘rinishidir. Zero, hayotning rang-barang qirralarini to‘laqonli ifodalashda mazmundorlik birinchi planga chiqadi. Shaxs taqdiri va jamiyat psixologiyasi esa mazmun teranligining asosidir»². Adabiyotning bu xususiyatiga akademik M.B.Xrapchenko ham alohida urg‘u berib, san’atkorning ijodiy tafakkur madaniyatini bilan voqelikning rivojlanish xususiyatlari

¹ Rahimjonov N. Bugunning qahramoni kim? // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2001. – № 6. – B. 10.

² Теория литературы. – М.: Наука, 1964. – С. 101.

uyg‘unligiga diqqat qaratadi. «Realistik adibning ijodiy fantaziysi, ijtimoiy voqelikning taraqqiyot jarayonlarini qanchalik xolis va chuqur aks ettirishga erishgan taqdirdagina o‘zining amaliy, faol vazifasini ado etgan bo‘ladi».³

X.Do‘stmuhammadning «Bugun ertalab» hikoyasida psixologik tahlil, tuyg‘ular realizmi o‘zgacha ko‘rinishga ega. Qahramon ham hamma hikoyalaridagidek ism-sharifli emas. U she’rlardagi lirik qahramonga o‘xshab ketadi, ya’ni dilidagini zohir etayotgan shaxs. Adibning lirik qahramoni o‘z ko‘nglini taftish etish, tuyg‘ular holatini tushuntirish, mazkur kechinmalar tabiatini voqelik, hayot reallikkleri bilan uyg‘unlikda kuzatayotgan, o‘z kechmishidan falsafiy ma’nolar o‘qishga hamda uqishga moyil intellektual shaxs. «Kallani ishlatish kerak». Ana shu ta’kid, uqtirish, da’vat qahramonni o‘ziga, o‘zligiga, kechmishiga, buguni va ertasiga nazar tashlashga, o‘tayotgan kunlaridan ma’no topishga undaydi. Xususan, insonning o‘tgan besamar damlari, xatolari uchun yozg‘irish yoki samarali kunlari uchun olqishlash ham mumkin, lekin eng muhimi bu emas, insonni tushunish – tiriklikning bosh mezoni.

«Odamzod yaratilibdiki, inson inson qiyofasini olib shundan ulug‘roq kashfiyat qilgan emas. Odamzod qavmi dunyoga kelib orttirgan dunyosi ham shu kallani ishlatish! Illo, yana bir marta tavbalar qilayki, ayni saharmardondan aql-shuurimni qiyin-qistovga olayotgan bu g‘alati «Kallani ishlatish kerak!» degan malomatomuz jumlaning bugunga qanday dahli bor?!. Nima, kallalar ishlamayaptimi? Axir insonning kallasi ishlayaptiki, dunyo mayjud, aks holda naq Quyoshning qorasi o‘chadi. Qanaqasiga o‘chishini ham aytaymi, Oftobning harorat manbayi bor-ku, o‘sha odamlarning miyasiga joylashgan, tushundingmi, azizim. Miyalar qanchalik baquvvat va sog‘lom ishlasa, Quyoshning nuri shu qadar kuchayadi, kuchayish sur’ati sekinlashsa bormi, quyosh so‘nadi-qoladi».¹

Yozuvchi qahramonning qismat deb atalgan yozug‘ini anglashga, kechmishi sahifalarini o‘qish barobarida bizga ham tushuntirishga intiladi. Qahramon o‘z qalbida qilt etib tebrangan

³ Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писатель и развития литературы. – М.: Сов. писатель, 1970. – С. 85.

¹ Do‘stmuhammad X. Bugun ertalab // Sharq yulduzi. – 1994. – № 9-10. – B. 135.

hissiyot ma'nosini uqishga moyil va shu bilan barobar, atrof-tevaragidagi voqeа-hodisalarni ham anglashga tashna. Ularning yuzaga kelishi, tug'ilishi, o'sishi, so'nishi bir-biriga bog'liq, biri-ikkinchisini to'ldiruvchi, boyituvchi jarayonlardir. Axir tug'ilish va o'lim oralig'ida kechgan bir chimdim nafas tiriklik ma'nosini belgilaydimi? Hamma odamlar ham shu taxlit mulohazalarga beriladimi? Odamlar bir-birini tushunsa, biri-ikkinchisiga mehr-shafqat ko'rgazsa, davlati kamayib qolardimi? Odam hamisha insoniy mehrga tashna. Qaynoq mehr odamning ko'nglini isitadi, hayotiga harorat bag'ishlaydi. Sog'inch, tashnalik hissi odamlarda qachon va qay taxlitda vujudga keladi? Yozuvchi masalaning ana shu qirralariga diqqatni tortar ekan, qismat – taqdir yozug'ida ushbu omil eng tansiq, eng kamyob hisoblanar ekan, deb biladi. Olamni, odamni bilish – tushunish esa uning ibtidosidir. Buning uchun esa o'yplash, kallani ishlatish lozim.

Yozuvchi qahramonni eng nozik va qaltis holatlarga solib qo'yadi, borlig'ini, bu yorug' dunyoda borligini kuzatadi. «...Odamzod qavmi aqldan qochib qutulolmaganki, hayoti qil ustiga kep qoldi! Manman degan odamlar aqldan voz kechaman, aqlning izmiga yurmayman, degan qarorga kelgan zahoti bilish, bilishga tashnalik, boy aytganim – qiziqish butun a'zoyi badanni zanjirband etadi, (jahannam isitmasi) zanjirband etib dunyoni ko'zingga shu qadar tor va qorong'u qilib qo'yadiki, zimmasiga o'n sakkiz ming olam muvozanatini saqlash yuki ortilgan birdan-bir fikrlovchi (kallali!) jonzod – Inson Oliy muvozanat chizgan chiziqdan uzoqlasha olmaydi, balki o'sha taqdir chizig'iga monand tug'iladi, ko'payadi, yashaydi, o'ladi, qiriladi. Yaxshi ham, yomon ham, shoh ham, gado ham...».¹

Tuyg'ularning fikrini o'qish, kechinmalarning ma'nosini uqish, anglash sari tutingan tuyg'ular realizmi Xurshid Do'stmuhammad hikoyasida badiiy psixologizmning o'ziga xos tabiatini belgilayotir. Shunisi diqqatga sazovorki, odamni va olamni faqat aql bilan bilishning o'zi kamlik qiladi. Uni dil-dildan his etish ham kerak. Qahramonning ana shu taxlit qil ustida turgan, qilichning damida

¹ Do'stmuhammad X. Bugun ertalab // Sharq yulduzi. – 1994. – № 9-10. – B. 140.

yurgan nozik va keskir holatlari yozuvchini ko‘proq qiziqtiradi. Ana shu betakror asnolardagi hissiy idrok bilan bilihning fikrga aylangan tafakkur sahifalari suratini chizadi.

Inson onadan tug‘iladi, o‘sadi, ulg‘ayadi, qarib-qartayadi, vaqtisoati yetib «u yoqqa, boqiy dunyoga» o‘tib ketadi. Xo‘sh, umr sarhisobi nimadan iborat? Tiriklikning yakuni o‘lim bilan belgilanadimi? Cheki-chegarasi shumi? Odam faqat qartaygandagina orqa-o‘ngiga qarab olishi, kechgan fasllarga yakun yasashi, muayyan xulosalarga kelishi shartmi? Bu kech emasmi? Umr besamar kechdi, degani emasmi? Axir Odam «u yoqqa» o‘tib ketgani bilan badar yo‘qlikka yuz tutdi degani emas-ku.

Qahramonning izmida, ertangi kunida katta bir ufqlar borki, bu – yashash imkoniyati. O‘zini bilish olamni anglash orqali o‘n sakkiz ming olamni o‘z tizginida tutib turgan qodir Yaratganni bilish baxti. Bu tushunchalar olam va odamning ko‘ngli singari cheksizlikka mahkum emas, u inson umri singari hisob-kitobli, o‘lchovli, aniq bir to‘xtamga ega. Shu bois ana shu sezgini tuyishning o‘zi saodat sohili. Insonning Olloohni bilishi, Yaratganning borligini tanishi boqiy saodatdir. Umr o‘tkinchi, bilish esa boqiyidir. Shu boisdan ham inson bilimlari o‘zidan keyin ham yashab qoladi.

«Adabiyotning bosh vazifasi bu – insonni himoya qilish, insonni ulug‘lash. Undagi g‘ayriinsoniy illatlar va odamiylik fazilatlarini kashf etish. Insonning ko‘nglidagi rahmon bilan fe’lidagi shaytonning sir-sinoatlarini, qilmish-qidirmishlarini ochib berish»¹ ekan ko‘rinadiki, XX asrning 90-yillaridan e’tiboran, X.Do‘stmuhammadning badiiy estetik izlanishlarida falsafiy-psixologizm chuqurlashdi. Ushbu hodisa nafaqat X.Do‘stmuhammad, shuningdek, yuqorida kuzatilganidek, A.Muxtor, Sh.Xolmirzayev, N.Eshonqul hikoyalarida ham insonni tushunish, hamda tushuntirishdagi falsafiy ma’nodorlik badiiy tafakkurning ustivor xususiyati bo‘lib qoldi. Birgina Xurshid Do‘stmuhammadning keyingi yillar hikoyachiligi misolida aytadigan bo‘lsak, adibning avvalgi o‘n yillik izlanishlarida («Yo‘lakdagи odamlar», «Oq libos», «Qoyalardan balandda», «Saf»,

¹Rahimjonov N. Bugunning qahramoni kim? // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2001. – № 6. – B. 10.

«Vasiy») lirizm, publitsistik o‘ylar, shaxsning hayotdagи o‘rni, umrining ma’no-mohiyati xususidagi mushohadakorlik sinkretik uchrardi. Ana shu uyg‘unlik yaxlit bir badiiy sistemaga aylanib borayotgan edi.

Mustaqillik, milliy mafkuraning ma’naviy asoslarini mustahkamlash sari safarbarlik adib ijodiga ham sifat o‘zgarishlarini olib kirdi. Inson va jamiyatga bashariy miqyoslardan nigoh tashlash, o‘rganish va baholash madaniyati ustuvor tamoyilga aylandi. Shu ma’noda, inson bebaho intellektual qadriyat, degan konsepsiya mustaqillik davri o‘zbek nasrinинг mazmun-mundarijasini ham belgilab bermoqda. Shaxsning ruhiy hamda fikriy erkinligi bashariy qadriyatdir, degan falsafiy konsepsiya Xurshid Do‘stmuhammadning istiqlol davri nasrinинг o‘zak mag‘zini tashkil etadi. «Jajman», «Bugun ertalab», «Yolg‘izim – siz» singari asarlari adibning ko‘p yillik ijodiy zahmatlari hamda ilohiy va dunyoviy adabiyotning muayyan darajada umumlashtirilgan sintezi sifatida maydonga keldi.

Xurshid Do‘stmuhammadning ham, Nazar Eshonqulning ham har biri o‘z badiiy-estetik dunyosini yaratayotgan ijodkorlardir. Ana shu individuallik va ular nasrinинг mushtarak jihatlari ham jamiyatning ma’naviy-intellektual tarixini yaratayotgan bugungi zamondoshlarimiz ruhiyati, tafakkur tabiatini nechog‘lik haqqoniy aks ettirishdagi o‘ziga xoslik bilan ham izohlanadi. Xususan, inson ko‘nglini, fikr-o‘ylari-yu kechinmalarini tushunish, bilish va anglashdagi farqli jihatlar bilan belgilanadi. Qolaversa, adabiyotning boqiy mavzulari bo‘lmish shaxsning jamiyatga, davrga, tabiatga, odamlarga munosabatini yoritishdagi individuallik, mushtaraklik orqali namoyon bo‘ladi. Ana shu nuqtayi nazarlar, badiiy nigoh va tafakkur tabiatining o‘ziga xos betakror belgilaridan, umummushtarak xususiyatlaridan har ikki adib ijodining falsafiy-psixologik asosini anglash mumkin.

Xususan, X.Do‘stmuhammad hikoyasida («Bugun ertalab») ham, N.Eshonqul asarida («Xayol tuzog‘i») ham jamiyat qahramonlar faoliyat ko‘rsatayotgan jismoniy maydongina emas, yana davr va odamlar ruhiyatini inkishof etayotgan ko‘zgudir. Lekin badiiy ko‘zgu, degan bilan masala mohiyati to‘liq oydinlashayotgani yo‘q. Har ikki hikoyada ham jamiyat ruhiy asos bo‘lishi bilan birga yana qahramon sifatida ham gavdalanayotir.

«Men ham har qadamda odamda tahlika va vahm uyg‘otadigan, yo‘limda mislsiz haykal yanglig‘ qad kerib turgan Noma‘lumlik va Yo‘qlikka duch kelaverdim...»,¹ - deydi qahramon. Xurshid Do‘stmuhhammad qahramoni uchun esa jamiyat ijtimoiy bir muhit. «Bilishni istash, bilish – anglash, o‘rganish – idrok etish... davom etaveradi, etaveradi, o-o-oh, tiroqcha haqiqatni o‘zingiz, shaxsan o‘zingiz kashf etish baxtiga musharraf bo‘lganmisiz? Kashf etayotib, bu yorug‘ dunyoga odam qiyofasida kelganingiz uchun Yaratganga shukronalar yog‘dirganmisiz?!»: yoki «Yo‘l yurgani sayin bola-chaqasidan, el-yurtidangina emas, o‘zidan uzoqlashadi, daxldorlik ibtidosidan daxlsizlik intihosi sayin uzoqlasha-uzoqlasha Koinot, Zamin va sarhadsiz Saltanatni tutashtirgan o‘ylov arshiga – uyg‘unlikka yetadi... yetdimikan?!».¹

Mazkur holatlarga ko‘ra ham qahramonlarning umr va tiriklik ma’nosи, shaxsnинг o‘z-o‘zini bilish asnosida Olloho ni tanishi, oliy saodatga yetishi, aslida tengsiz insoniy baxtdir, degan ishonch-e’tiqodini anglatadi. Odamiylik burchi, tiriklik mas’uli, o‘z-o‘zini bilishdan Olloho ni tanish sari kechgan oliy saodat sarhadlaridir. Bu – bir, ikkinchidan, mazkur omillar zamondoshlarimizning fikrлаsh – tafakkur madaniyatidan ham voqif etayotir. Inson sha’ni matlabi, tiriklik mas’uliyati – umuminsoniy qadriyatlar xususida bashariy miqyoslar zamirida mulohaza yuritayotgan zamondoshlarimizning ma’naviy-intellektual dunyosi xususida muayyan tasavvurlar uyg‘otayotir.

Har ikki adib ijodidagi insonni tushunishi, bilishi hamda anglashi asnolaridagi mushtaraklik, yaqinlik hissi badiiy tadqiqot madaniyatidan ham boxabar etadi. Ular bir-birini to‘ldirishi va boyitishi barobarida istiqlol mafkurasining ma’naviy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan o‘zining oljanob yo‘nalishini ta’kidlash imkoniyatini ham beradi. Zero, ruhiy erkinlik, tafakkur – fikr erkinligi milliy mustaqillik mafkurasining o‘zak asoslarini tashkil etadi.

A.Muxtorning «Fano va baqo», X.Do‘stmuhhammadning «Bugun ertalab», N.Eshonqulning «Xayol tuzog‘i» hikoyalaridagi inson va

¹ Eshonqul N. Xayol tuzog‘i // Sharq yulduzi. – 1994. – № 9-10. – B. 145.

¹ Do‘stmuhhammad X. Bugun ertalab // Sharq yulduzi. – 1994. – № 9-10. – B. 140.

jamiyat masalasining badiiy talqinidagi nuqtayi nazarlar va estetik baho madaniyati bugungi hikoyachiligidan nechog'lik ilgarilab ketganligidan dalolat berayotir. Oftob koinot gultoji ekan, insoneering guli, har ikkisi hayot gultojidir, degan falsafiy konsepsiya bugungi hikoyachiligidan o'zak mag'zini belgilab berayotir.

Demak, inson va jamiyat fenomenlarining falsafiy-psixologik tahlilidagi nuqtayi nazarlar yangiligi, badiiy tahlil madaniyati mustaqillik davri o'zbek nasrinining avvalgi bosqichlardan farqli jihatlarini oydinlashtirib, yetakchi tamoyillarini ko'rsatadi. A.Muxtor, X.Do'stmuhammad, N.Eshonqul hikoyalarida kuzatilganidek, bugungi davr kishisi yozuvchilarimizni faqat subyekt individ sifatidagina qiziqtirib qolayotgani yo'q. Adiblarimizni qahramonlarning odamiyligi, ma'naviy-intellektual madaniyati, ijtimoiy qiyofasi ko'proq o'ziga jalb etadi. Mustaqillik davri kishilarining xarakter xususiyatlarini namoyon etish orqali ijtimoiy erkinlikning psixologiyasini ochish yetakchilik qiladi. Xurshid Do'stmuhammad ham Nazar Eshonqul ham o'z hikoyalarida qahramonlar talqini orqali shaxs erkining ijtimoiy huquq va imkoniyatlari, mas'uliyati va burchi haqida mulohazalarga beriladi.

Milliy istiqlol millat hayotiga qanday o'zgarishlar olib kirdi? Ruhiy erkinlik, tafakkur hurriyati zamondoshlarimiz uchun qanday mas'uliyatlar yuklayapti? Aytish joizki, bugungi shaxs o'zini, o'zligini va shu asosda Yaratganni bilish saodati sari yuz burdi. Zero, «Bilishga qiziqish ham, bilag'onlikka aldanish ham taqdir» («Bugun ertalab»). Aqliy hurlik insonga erkin fikr yuritish salohiyati va imkoniyatini beradi.

Shaxs o'z tirikligini anglash, yaratish jarayonida erkin hayot nash'-u namosini emas, sevinch-g'urur tuyg'ularini ham poydor etadi. Negaki, u yorug' dunyoda sudralib yuruvchi, qurt-qumursqa yoki biron-bir maxluq emas, odam bo'lib yaratilganligidan tengsiz baxt tuyadi. Shu boisdan ham u jamiyatdagi u yoki bu mavqelarni egallahsh, olamshumul yumushlar – vazifalarga yetishishdan ko'ra ko'proq odamiylik masnadiga munosib bo'lish mas'uliyati haqida qayg'uradi.

Shu narsaga e'tibor berish joizki, mustaqillik davri hikoyachiligidan mustaqillik sharofati bilan ko'pirib-toshgan, baxt va

quvonch kayfiyatlaridan entikkan, jamiyatdagi faxrli o‘rnidan, farovon turmushi va erkin mehnati huquqlaridan adoqsiz faxr-iftixor tuygan nog‘ora-karnay sadolarini eshitmaymiz. Huda-behudaga ko‘kragiga urib hayqirishlar yo‘q, «Hayotimiz tubdan yangilandi. Endi, mustaqillik nashidasini surib, rohatlanib yashaymiz», kabi tumtaroq kayfiyat, havoyi balandparvozlik yo‘q. Aksincha, mustaqillik eng buyuk mas’uliyat ekanligini his etish, ana shu tuyg‘uni badiiy obrazlarda mujassamlashtirish hozirgi hikoyachiligidizning ustuvor xususiyatidir.

«Bugun ertalab» va «Xayol tuzog‘i» hikoyalari dagi badiiy tajriba misolida aytish mumkinki, shaxs ruhiyatini, botiniy evrilishlarini aks ettirish orqali jamiyat psixologiyasini gavdalantirish bugungi hikoyachiligidizdagи yetakchi tamoyillardan biri bo‘lib qoldi. Shuning uchun ham bugungi shaxs faoliyatida bashariy qadriyatlar silsilasida o‘zi ham oltin halqa ekanligini chuqur anglagan va ana shu mas’uliyat hissi o‘laroq odamiylik xususiyatlarini ko‘z-ko‘z etib, yorug‘ fazilatlarga ega bo‘lishlik oliv bir maqom sifatida badiiy tadqiqotchilikning mehvarini tashkil etayotir. Shaxs taqdiri, tiriklik ko‘rguliklari xususidagi faol fikrchanlik hikoyachiligidiz qahramonlari tabiatidagi ijodiylikning nurli qirralari tariqasida gavdalanganmoqda.

Tuyg‘ular sintezi, lirk ehtiros, falsafiy mushohadakorlik insonni badiiy idrok va ifoda etishdagi yetakchi prinsiplar sifatida zohir bo‘ldi. Mazkur xususiyatlar yaxlit mujassamlashgan holda insonni tushunish hamda tushuntirishda falsafiy-psixologizm asosiy tamoyilga aylanganidan dalolat beradi.

«Bilishga tashna bo‘lsang, kallang ishlaydi, kallang ishlagani sayin quyoshning tafti saqlanadi, shundan zaminda hayot sha’mi so‘nmaydi. «Bilgil va qo‘rqgil!» degani ham shu, ya’ni bilmasang bilishga intilmasang holing voy! U holda... pirovardida qo‘rquvga olib boruvchi bilishga mubtalo ekan-da, inson?.. Bilish qo‘rquvga emas, muhabbatga olib borsa-chi? Ya’ni, «bilgil va qo‘rqgil» emas, «bilgil va sevgil!» Tushunyapsanmi, tinimsiz bilish, bilishga qiziqish o‘ylov arshidagi muhabbat koshonasiga olib chiqsa, nimasi yomon?! Nahotki, insoniylik maqomining mungli va munis

musiqasini tinglab orom topmoq uchun muhabbatdan ko‘ra qo‘rquv, tahlika qulayroq bo‘lsa?».¹

Ko‘rinadiki, bugungi hikoyachiligimiz qahramoni «Bugun ertalab» asari misolida kuzatilayotganidek, insonni, jamiyatni, dunyoni, voqelik jarayonlarini falsafiy idrok va ifoda etishdagi tafakkur teranligi bilan umuminsoniy xislat-fazilatlar kasb etayotir. Ko‘ngil deb atalgan ma’naviy-psixologik olamning ziddiyatli, murakkab, ham nurli va yana ayni paytda qorong‘u ko‘chalarini, odamiylikning yangi-yangi qirralarini kashf etayotir. («Fano va baqo», «Hayol tuzog‘i» va h.k.)

Har uch adib hikoyalarining mushtarak tomonlari ham, bir-biriga yaqinlik belgilari ham bor. Asqad Muxtor tabiatan faylasuf ijodkor. Uning she‘r va dostonlari, qissa va romanlari adibning mutafakkirona tafakkur madaniyatidan suv ichadi. Adib hikoyalarida ham («Fano va baqo») qissadan hissa tarzidagi hikmatli mazmundorlik ustivorlik qiladi. Xuddi shuningdek, «Xayol tuzog‘i» va «Bugun ertalab» hikoyalarining qahramonlari ham ruhiy hamda fikriy erkinlikning qadri va mas’uliyati umr, tiriklik haqida hikmatli muhokamalar yuritmoqda. Uchala hikoya qahramonlari ham boqiy qadriyatlар to‘g‘risidagi bashariy-umuminsoniy ma’no kasb etuvchi tafakkur tarzi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham hayot xossalariiga, voqelik jarayonlariga munosabatdagi nuqtayi nazarlar hikmatga moyil bo‘lganligi uchun badiiy yechim-xulosalar ham falsafiy mazmun kasb etayotir. Shu boisdan ham har uch hikoyada zohir bo‘layotgan badiiy tahlilni falsafiy psixologizm, deyish mumkin.

Asqad Muxtor, Xurshid Do‘stmuhammad, Nazar Eshonqul hikoyalarida kuzatilayotganidek, adiblarni insonning ichki kechinmalari, tuyg‘ulari, hissiyotlari, fikrlari ko‘proq o‘ylantiradi. Uchala hikoya qahramonlari ham insonning hissiy tafakkuri bosh qahramon sifatida namoyon bo‘ladi. Adiblar qalb haqiqatini inkishof etish orqali hayot haqiqatini izlaydi. Zero,adolat va go‘zallik ham ezgulikka chorlash sifatidagi bashariy qadriyatdir.

¹ Do‘stmuhammad X. Bugun ertalab // Sharq yulduzi. – 1994. – № 9-10. – B. 141.

Tahlil qilingan hikoyalarda ichki qalb nidolari, monolog, da'vat, iqror, inkor singari belgilar lirik ehtiros, publitsistik jo'shqinlik, falsafiy o'ychanlik bilan yaxlit birlikda, sinkretik uyg'unlikda o'ziga xos tasvir tabiatini belgilab bermoqda. Mazkur belgilar realistik tasvir madaniyatining nechog'lik katta imkoniyatlarga ega ekanligidan dalolat beradi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, inson qalbidagi yorug'lik hayotidagi riyo, razillik, zo'ravonlik, qabohat, yolg'on, zulm singari illatlar bilan ro'baro' keladi. U ana shu zulmatli ko'rinishlarining yo'q bo'lishini istaydi. Shu ma'noda, bugungi hikoyalarimiz qahramonlari yorug'lik tantanasi uchun kurashda ko'ngil pokdomonligini saqlab kelayotir.

Yozuvchilarning qahramon va uning xarakterini yaratishdagi mahorati va asar badiiyati nuqtayi nazaridan, shakl va mazmun jihatidan qiyoslash hamda badiiy idrok muammosining o'ziga xos xususiyatini ta'kidlash maqsadida keyingi yillarda hikoya janrida ijod qilayotgan T.Mahmudov asarlari xususida ba'zi mulohazalarni bildirib o'tishni lozim topdik.

Tilab Mahmudning «O'tin», «O'n so'mlik qizil pul», «Terak», «Navvos», «Maqbara», «Oqar daryo oqmasmidi jimgina», «Tumor», «Tilla uzuk» va boshqa hikoyalarida tuyg'ular realizmining ifodasi o'zgacha. Adib ko'zga oddiydek ko'ringan maishiy hayot ikir-chikirlaridan ruhiyat hayotini lov-lov suratlantiruvchi psixologik manzaralar yaratishga harakat qiladi. Adib yaratgan qahramonlar har kuni ko'rib, suhbatlashib yurgan tanish-bilishlarimizga qaysidir jihatlari bilan xiyla qora tortsa-da, yana fe'l-atvorining qaysidir alomatlari bilan ularni ham takrorlamaydi. Ularni shu paytgacha tasavvur va tushunchamizda shakllangan na ijobjiy va na salbiy qahramonlar deyishga tiling bormaydi.

Qahramonlar o'tirib-turishi, so'zlash-tarzi, gap-so'zлari, qilig'i-yu xatti-harakatlari bilan xotirangda mixlanib qoladi. Bular Totim xola, Risqitilla, Samar kampir, Mavjuda xola, Qorasoch kampir, Risolat kampir, Sattor buva, zakunchi Inombobo, Toshgul kampir, Abdulla xir-xir, Ko'char aka, Qanar oqsoqol. Ularning har biri individual xarakter xususiyatlarga ega bo'lgan odamlar. Adibni, asosan, hayot taqozosizi bilan qahramon boshiga tushgan u yoki bu ko'rgiliklar jarayonida namoyon bo'lgan odamiylik yoki

g‘ayriinsoniylik ko‘proq qiziqtiradi. T.Mahmud tog‘ kishilarining fe'l-atvorida, tiriklik tarzida zuhur topgan go‘zal xulq-atvor bilan barobar ma‘naviy qashshoqlik alomatlarining suratlarini chizishni maqsad qiladi.

E’tirof etish lozimki, T.Mahmud asli faylasuf olim bo‘lgani va adabiyotga kechroq kirib kelganidanmi, adabiy jamoatchilik uning ijodini yaxshi qabul qilolmayapti. Biz ham T.Mahmudov hikoyalari har taraflama mukammal asarlar, degan fikrdan yiroqmiz. So‘nggi yillarda yaratilayotgan asarlar sirasida ozmi-ko‘pmi mulohaza bildirib ketishni lozim topdik xolos. T.Mahmudning «Oqr daryo oqmasmidi jimgina», «Omonat dunyo» kitoblaridagi hikoyalari misoldida shuni aytish mumkinki, aksariyat hollarda adib hikoyalari voqealar, voqealar so‘zlar tizmasidan iborat bo‘lib qolgandek ko‘rinadi. Lekin bu hikoyalarda shaxs fe'l-atvoridagi noqisliklarni hayotning turli jabhalarida aks ettirish qisman bo‘y ko‘rsatib turadi, ammo bu muammolarni talqin etishda badiiy mahorat hali yetarli darajada shakllanmaganligi aniq seziladi.

O‘zbek hikoyachiligi tarixida qishloq kishilari hayoti ko‘p bor qalamga olingan. Qishloq ahlining ma‘naviy dunyosiga, axloqiy jihatlariga bir nuqtayi nazar T.Mahmudov hikoyalarida ham qalamga olinadi. Adib o‘z badiiy nigohi orqali anglangan hayot haqiqatlari, ko‘rgulik ko‘chalaridan ilg‘angan yorug‘ va qorong‘u lahzalar haqida o‘quvchi bilan sidqidildan suhbatlashadi. Ularni ham o‘zi ko‘ra olgan ruhiy dunyo realliklariga oshno etadi. Sevinchlari-yu dardlari, o‘ksik va alamli yig‘isi hech bir o‘quvchini befarq qoldirmaydi. Adibning aksar hikoyalarida oqibat va xiyonat, mehr va shafqatsizlik, yaxshilik va riyo, olijanoblik va munofiqlik singari boqiy masalalar turli xil hayotiy muhit va sharoitlardagi taqdirlar orqali badiiy idrok etiladi. «Terak» hikoyasidagi Huri xola bilan Ortig‘alining qo‘snnichilik munosabatlarini oling. Huri xola yolg‘iz beva kampir. Olis shahardagi o‘g‘li o‘qishni tugatib kelsa, unga atab imorat solish, uylash niyatida keng hovlisini gir aylantirib terak qadab chiqadi. Hash-pash deguncha teraklar sarrov va to‘singa yaraydigan bo‘lib qoladi. Katta kuyovi kelib yiqitib ketgan teraklarni arralab saranjomlashda Huri xolaning qo‘li kalta. «Huri xola soyning narigi tomonidagi qo‘snnisiga bir og‘iz gapirmasdan ustachilik qo‘lidan keladigan, tesha, bolta deysizmi, arra bosqon deysizmi,

hamma buyumlari taxt turadigan Ortig‘ali soydan o‘tib, Huri xolaga arra tortishib yuboradi».¹

Qishloq odamlari o‘zi shunaqa, yaxshi odatlari ko‘p. Biron yumushga chaqirsang, vaj-karson qidirmay, qarashib yuboradi. Odamni yolg‘izlatib qo‘ymaydi. Ortig‘ali ham shunaqa hayrixoh, lekin oradan xiyyla fursat o‘tar-o‘tmas Huri xola uyida yo‘q mahali uch-to‘rtta sarrovbop teraklarini o‘g‘irlab, o‘z imoratining to‘sining ishlatib yuboradi. «Ha, endi, olsa, olibdi-da. Qo‘li kaltalik ham og‘ir ko‘rgulik, davosiz dard», deb qo‘yish mumkin. Lekin hamma gap fojia –Ortig‘alining shirin kunlarini zahar-zaqqumga aylantirgan, guldek umrini xazon qilgan, o‘limnga taqab olib borgan narsaga ana shu nojo‘ya qilmishi sabab bo‘ladi. Bilib-bilmay, anglab-anglamay bosgan qadami o‘z boshiga yetadi. Vos-vos kasaliga chalinadi. Huri xolaning sarrovbop to‘sining ko‘zi tushgan zahoti goh yo‘g‘on ilon tilini chiqarib, buralib kelayotgandek bo‘laveradi. Kulimsirab turgan Huri xolaning istehzoli nigohi yuragini tilka-pora qilib yuboradi. Ortig‘ali vijdon azobida, yurak o‘ynog‘ida, ko‘ngil qiyognog‘ida tamom bo‘ladi.

Adib hikoyalari odam olasi ichida degan falsafa mohiyatini ochishga qaratilgandek, odamlar ko‘nglidagi rahmon bilan shaytonni ko‘rsatayotgandek tuyuladi. Zero, mavridi kelib, odam ichidagi ezgu kuch g‘olib kelsa, ojiz asnolarida esa yovuz kuch ustunlik qilarkan. Demak, tuyg‘ular shaklidagi yorug‘lig-u qorong‘ulik odamlarning ichida ham yashar ekan. Bu narsa odamning xayrli amallari yoxud noqis qadam olishlarida ko‘proq o‘zligini namoyon etarkan.

«O‘tin» hikoyasidagi «zakunchi» Inombobo, ombor mudiri Abdulla xir-xir, «Alam» asaridagi qishloq soveti raisi Qodirxo‘ja, «Oltin olma, duo ol» hikoyasidagi Abdulla raislarning ham o‘ziga yarasha hayot falsafasi bor. Zamon senga boqmasa, sen zamonga boq, degan aqida ularning bosh a‘moli. Shu boisdan ular sho‘ro hukumatining oldi odami bo‘lishga, har bir yumushda peshvolikka intilishadi. Ular uchun eng muhimi, zamon yo‘rig‘i. Qarindoshurug‘mi, ota-onami, hamqishloqmi, kim bo‘lishidan qat‘i nazar, hukumat siyosatiga to‘g‘ri kelmagan joyda sariq chaqalik qadri yo‘q, ular oddiy insoniylikni bir pulga olishmaydi. Qo‘yingki, qolgan

¹ Mahmudov T. Oqar daryo oqmasmidi jimgina. – T.: Sharq, – 1999. – B. 147.

hamma narsa tovonlarining tagida, deb bilishadi. Bu hikoyalarda T.Mahmudov o‘zi yaxshi bilgan siyosatlashgan odamlar toifasini yaratgan. Bu qahramonlar aslida salsa deyilsa, kallani uzib oladigan odamlar xilidan. Har bir davr o‘z qahramonlarini yaratar ekan-da. Bular kommunistik mafkura kamol toptirgan sho‘ro tuzumining mevalari.

«Yozuvchi hikoya yozmoqchi bo‘lar ekan, ko‘pgina voqeа va hodisalarni nazarda tutadi. O‘sha voqeа va hodisalarning kulminatsion nuqtasini bitta-ikkita kishining taqdirini aniqroq qilib ko‘rsatadigan joyini olib tasvirlaydi. Bundan hikoya chiqadi. Boshqacharoq qilib aytganda hikoya yozuvchi tomonidan qalamga olinmagan boshqa ko‘pgina voqeа va hodisalarning yakuni, natijasi sifatida maydonga keladi»¹ - degan edi, akademik M.Qo‘shjonov.

T.Mahmudov «zakunchilar» qiyofasini qishloq soveti raisi Qodirxo‘ja obrazida umumlashtirishga intiladi («Alam» hikoyasi). Lekin hikoyaning badiiy yechimi o‘quvchini unchalik ishontirmaydi. Qodirxo‘jani yashin urib o‘ldiradi. U onasining iltijoli gaplari tugul qishloq oqsoqollarining ham tilidagini yoqasiga yopishtiradi. Chunki hamma ishda rahbarning aytgani-aytgan, degani-degan bo‘lishi lozim, deb tushunadi. Aslida, bunday odamlarni zamonning o‘zi bir qo‘lida ko‘tarib, ikkinchi qo‘li bilan shapaloqlab urib qo‘yan. Yomonni yapaloq, yaxshini osh tovoq, deyish oson. Lekin hayotda yaxshilikni qaror toptirish-u yomonlikni yo‘qotish uchun qancha zamonlar o‘tadi, necha-necha avlodlar almashadi. Hikoyada Qodirxo‘janing mafkuralashgan psixologiyasini ochishdan ko‘ra izohlash, tushuntirish, bayon kuchli.

T.Mahmud ijodi xususida fikr bildirar ekan, iste’dodli adibimiz Sh.Xolmirzayev shunday yozadi: «...Gapimiz Tilab akaning hikoyalari haqida. Qiziqda: ayrim hikoyalari, xudo haqqi, chexovona, qahhorona yozilgan. Va xulosasi ham aniq – suyjetdan sitilib chiqadi. Ba’zilari esa... anchayin maqoladan farqsiz».²

T.Mahmudovning ba’zi hikoyalaridagi qahramonlar talqinini ko‘zdan kechirib, bir fikr tug‘iladi. Bir zum xayolga erk beraylik-da, tasavvur qilib ko‘raylik. Aytaylik, Esxilning Oresteyasi yoki Yusuf

¹ Qo‘shjonov M. Hayot va nafosat. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1970. – B. 44.

² Xolmirzayev Sh. Istisno adib // Omonat dunyo. – T.: Sharq, 2004. – B. 10.

Xos Xojibning O‘gdulmishi, Homerning Odisseyasi yoki Alpomish, Shekspirning Xamleti yoki Alisher Navoiyning Farhodi, Husayn Jovidning Shayx San’oni yoki Fitratning Abulfayzxoni, Abdulla Qodiriyning Otabegi va Anvari – eng yaqin yoki begonami, bironbir kimsani hamyonidagi pulni o‘g‘irlaganlikda nohaq ayblas, qo‘sniisining navvosini molxonaga tang‘ib, o‘zimmi deb o‘tirsa, o‘zi yo‘qning-ko‘zi yo‘q qabilida ish tutib, beva kampirning to‘sinqalarini olib imoratiga ishlatib yuborsa, ularning shaxsini bezab ko‘rkamlashtirgan odamiylik, olijanoblik, go‘zallik,adolat, ezungulik haqidagi tasavvurlarimiz shu zahoti barbod bo‘ladi.

Demak, ma’naviy-axloqiy xislat-fazilatlar barcha zamonlarda odamzodning aziz va mukarram, beba ho bashariy qadriyatlarini silsilasini tashkil etgan. Ular ma’naviy go‘zallikning suvda cho‘kmaydigan, o‘tda yonmaydigan boqiy xususiyatlari sirasidan ekan. Faqat shubha-gumon, tuhmat, birovning haqiga xiyonat, aldov va yolg‘on singari illatlar boqiy qadriyatlar kushandasidir.

Fojeiy holat, fojeiy ohang, fojeiylik shaxs taqdiri bilan bog‘liq qanday muhitda, vaziyatda zohir bo‘layotir? Odatda, jahon klassikasidagi fojeiy asarlarda shohlar, qirollar, sultonlar, amirlar, shahzodalar hayoti fojiali yakunlanadi. Aksar omma nazaridan chetda, ko‘philikning ko‘ziga tushmagan, hech kimning mushugini «pisht» demagan xokisor odamlar hayoti ham fojiaga boy bo‘lishi mumkinmi? Ha, inson qadri, shaxs sha’ni – eng buyuk va beba ho qadriyat. Qachonki, odam sha’ni poymol etilgan, qadri oyoqosti qilingan joyda zulmga, istibdodga zo‘ravonlikka qarshi Odamzod bosh ko‘taradi. Bu – shaxsning jamiyatda, hayotda tutgan o‘rni va mavqeyini mustahkamlash uchun kurashning bir ko‘rinishi bo‘lib, shaxs ruhiyatini badiiy idrok va ifoda etish shakllaridan biridir. Buni realistik tasvir madaniyatining o‘ziga xos sahifalaridan biri sifatida, xususan, fojiaviy psixologizm, deyish ham mumkin.

Demak, mustaqillik davri o‘zbek hikoyalariда qahramon xarakterini yaratishning yetakchi tamoyillari yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalarimizdan shunday xulosalarga kelishimiz mumkinki, xoh Asqad Muxtor yoki Xurshid Do‘stmuhammad, xoh Nazar Eshonqul yoki Tilab Mahmud hikoyalari misolida kuzatadigan bo‘lsak, adiblar estetikasida axloqiy va ijodiy qarashlar uyg‘unlikda tajassum topib, axloqiy mazmun va falsafiy-ijtimoiy g‘oyalar

mehvariga aylanib borayotir. San'atda ezgulik bilan yovuzlik, go'zallik bilan xunuklik – barcha boqiy masalalarga bashariy qadriyatlar nuqtayi nazaridan yondashilib, haqiqat boqiy mezon sifatida baholanmoqda. Bugungi hikoyachiligidizda insonning sha'ni, ko'ngil boyliklari, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini e'zozlash, himoya qilish ustivor tendensiya bo'lib qoldi. Natijada insonni yovuzlik, zulm-istibdod va riyoy-yolg'ondan muhofaza qilish, ardoqlash va ikki dunyo ziynati ekanligini eslatish bugungi hikoyachiligidiz taraqqiyotining yana bir ustuvor xususiyatiga aylandi. Garchand tabiatan yomon, yovuz odam bo'lsin, ko'nglini poklashga, iyomon-e'tiqodini salomat qilishga safarbarlik hikoyachilik san'atining ijtimoiy-estetik prinsipi bo'lib qoldi. Yovuzlik, makr-xiyonat, yolg'on-qabohat esa ijtimoiy illatlar sifatida badiiy o'rghanila boshladi.

Ta'kidlash kerakki, Ezgulik, Adolat – boqiy go'zallikning obyekti, xolis ko'rinishlari. Ular o'z holicha insonni yer yuzida baxtli qilib qo'ya olmaydi. Jamiyatning ijtimoiy tartiblari, prinsiplari hayotni o'z izmiga soladi, shu asosda inson naslining yer yuzida baxtli umrguzaronligi uchun yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi. Qanday baxtsaodatga munosiblik har bir insonning ma'naviy intellektual darajasiga bog'liq. Yashash – kurash san'ati. Har kimning o'z baxtini topishi, o'z saodatiga yetishishi, o'zligini namoyon etishi yo'llarini belgilay bilishdan iborat. Shu ma'noda, hikoyachiligidiz xoh o'g'ri yoki qotilmi, xoh arbob yoki dehqonmi – odam tabiatidagi odamiylikni ko'rish, anglash va kashf etish sari yuz burdi.

Kuzatganimizdek, mustaqillik davri hikoyachiligidizda qahramon xarakterini yaratishda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga ahamiyat berish shu davr hikoyalaringin badiiylik darajasining yuksalishiga ham ta'sir ko'rsatdi. Ma'naviy-axloqiy nuqtayi nazar azal-azaldan san'at va adabiyotning badiiyligini ta'minlovchi omil bo'lib kelgan. Chunki ayni shu omil har qanday voqeа-hodisani falsafiy kenglikda talqin qilishga yo'l ochadi, asarning muayyan davrga xos muammolarini birinchi planga olib chiqishga imkon beradi.

2.2. Badiiy talqinda ramziy ma'nodorlik. Istiqlol davri o'zbek nasri tarixini yaratayotgan bir necha avlodga mansub so'z

san'atkorlari izlanishlarida inson shaxsiga nisbatan yangicha ijodiy qarashlar yetakchilik qilayotir. Xususan, bugungi insonni tushunish hamda tushuntirishdagi o'ziga xosliklarni o'rganish bilan birga mustaqillik davri odamlari haqidagi tasavvur va tushunchalarning mushtarak tomonlarini umumlashtirish ehtiyojini hamda zaruratini ham yuzaga chiqarmoqda. Mazkur mushtaraklik mustaqillik buniyodkori bo'lgan insonning ma'naviy-axloqiy jihatlari nimalardan iborat? Istiqlolning istiqbolini belgilayotgan erkin jamiyat kishisi qanday xislat-xususiyatlar sohibi bo'lishi kerak, degan bosh ma'no hozirgi nasrimizdagi inson konsepsiyasi masalasining o'zak mag'zini tashkil qiladi. Zero, «...badiiy asar qahramonlarining ta'sir kuchi – ularning ijobiy yoki salbiy bo'lishida emas, balki bu qahramonlarning hayotiyligida, ya'ni hayot haqiqatiga mosligidadir».¹ Qolaversa, keyingi yillar hikoyachiligidagi «...qahramonlar ong oqimining hissiy-assotsiativ tafakkur tarzi orqali shaxs va jamiyatning bog'liqlik aloqalarini badiiy tahlil qilish...»² ustuvor yo'nalish kasb etadi.

Inson konsepsiyasi hamisha san'atkorning dunyoqarashi, g'oyaviy-estetik qarashlari, hayotiy ideali va ijodiy pozitsiyasidan tarkib topadi; ana shu yaxlit va yagona sistemadan babra oladi; tiriklik suvini ichadi. Shu boisdan ham istiqlol davri o'zbek nasrida shaxs konsepsiyasi masalasini o'rganish, bu – Sh.Xolmirzayev, X.Do'stmuhammad, N.Eshonqul, S.Vafo kabi bir-biriga o'xshamagan, hayotni va insonni mustaqil badiiy idrok va ifoda etish madaniyatini tobora takomillashtirish yo'lidan borayotgan o'ziga xos yorqin iste'dodlarning bugungi inson haqidagi tasavvur va tushunchalarini, mustaqillik davri odamlarining ma'naviy-axloqiy dunyosini, fikrlash tabiatini o'rganishdan iboratdir. Bugungi zamondoshlarimiz mustaqillik uchun nimalar beryapti, mustaqillikning iqtisodiy hamda ma'naviy asoslarini mustahkamlash uchun qanday yumushlarni ado etyapti; ozod va obod jamiyatni barpo etishdagi faol ishtiroki nimalardan iborat; va shu asosda ezgulik,adolat, haqiqat singari badiiy qadriyatlarni qaror toptirishdagi xizmatlari qanday kechyapti?

¹ Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O'qituvchi, 1980. – В. 193.

² Поспелов. Г.Н. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 1978. – С. 162.

«...Hayotning har qanday sohasi va ko‘rinishining tasviri o‘quvchi fikri-zikrini band etadi. San’at asarida go‘zallikning (tabiat go‘zalligi, insonning ichki va tashqi go‘zalligi), qahramonlik (do‘stlikda, muhabbatda sadoqat va h.k.) tasvirini ko‘rganimizda zavqlanamiz, quvonamiz. Xunuklik (axloqiy buzuqlik, zulm,adolatsizlik, xudbinlik) kishilarning eng yaxshi hayot haqidagi tasavvurlari nuqtayi nazaridan «baholanib», ya’ni masxara qilib tasvirlanganda, bizda xunuklik emas, balki xunuklikka san’atkorning tanqidiy nazari va xunuklikning «vajohati»ni ko‘rsatib berishdagi mahorati (Tolstoy aytganidek, o‘zingda uyg‘otganing hisni boshqalarga «yuqtirish» mahorati) zavq uyg‘otadi. Bu esa san’at asarlarining katta estetik tarbiya quroli ekanligidan guvohlik beradi».¹ Zero, akademik M.B.Xrapchenko ta’kidlaganidek, «o‘quvchilar ahlining barcha tabaqalari va guruhlariga estetik ta’sir ko‘rsatish badiiy tafakkur takomilining barcha taraqqiyot bosqichlari uchun xos xususiyatdir».²

Hozirgi hikoyachiligidizda adiblarimiz bugungi kun odamlari ma’naviyatidagi fe’li va faoliyatidagi fazilat-u nuqsonlarni shunchaki qayd etish bilangina kifoyalanishayotgani yo‘q. Ular inson shaxsiyatida komillik xususiyatlarining asosini belgilovchi ezgulik, e’tiqod,adolat tuyg‘ularini tarbiyalash, shakllantirish va takomillashtirish borasida har tomonlama barkamol shaxs bo‘lib kamol topishlari uchun muayyan talablar qo‘ymoqdalar. Zotan, ushbu vazifalar bugungi nasrimizning ustivor ma’naviy-axloqiy kredosini tashkil etadi. Bu borada Sh.Xolmirzayevning «Ozodlik», N.Eshonqulning «Maymun yetaklagan odam», «Shamolni tutib bo‘lmaydi», «Xaroba shahar surati», X.Do‘stmuhammadning «Jajman» singari hikoyalarini alohida e’tirof etish mumkin.

«Biz ozodlikka erishdik, mustaqil bo‘ldik. Aslida, ozodlik ko‘hna ne’mat, mustaqillik ko‘hna ne’mat» deb yozadi, adib Sh.Xolmirzayev. Lekin biz bu ilohiy ne’matlarning ta’mini paqqos unutmagan bo‘lsak-da, unutayozgan edik; pana-panada: «Eh, ota-bobolarimiz ozodlikda yashaganlar-a, eh, ota-bobolarimiz mustaqil bo‘lishgan-a!» deb xo‘rsinibgina qo‘yardik, hech kimga

¹ Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. Adabiy asar. I jild. – T.: Fan, 1978. – В. 21.

² Храпченко М.Б. Горизонты художественного образы. – М.: Худож. лит., 1982. – С. 4.

ko‘rsatmasdan... yig‘lab-yig‘lab olardik. Endi biz ozodmiz, mustaqilmiz. Ming-ming afsuski, ba’zilarimiz: «Ozodlik menga nima berdi?!» deb nolishni o‘rgandik. Ozodlikning sharofati shumi? Shumi mustaqillikning sharofati?». Biz teskari yashashga, teskari o‘ylashga o‘rganib qolgan ekanmiz chamamda. Yo‘qsa, allaqachon: «Men ozodlik uchun nima qilayapman? Men mustaqillik uchun nima xizmat qilyapman?» deb o‘zimizni-o‘zimiz bedor qillardik. Shukurki, bedor yashayotgan insonlar ko‘pchilikni tashkil qiladi.

Madomiki, biz yangi davrga qadam qo‘yan ekanmiz, adabiyot yangi qahramonlar, yangi timsollar, yangi ideallar yaratishi kerak, toki o‘sha qahramonlarda timsollar-u ideallar Ozodlikning, Mustaqillikning haqiqiy qadriyatlarini ifodalasin, adashgan yo‘lovchiga yo‘l ko‘rsatsin, muqaddas safarga otlangan insonga qiblani ko‘rsatsin va bu yo‘ldagi qiyinchiliklar, barcha tabiiy jarayonlar ham diqqat-e’tibordan chetda qolmasin».¹

Sh.Xolmirzayevning «Ozodlik» hikoyasini keng o‘quvchilar ahli, ilmiy-adabiy jamoatchilik ham chuqr ramziy ma’nodorlikka ega, deya baholashdi. Darhaqiqat, hikoyada ozodlikka, erkka intilish maylining tabiatini turfa fe‘l-atvorini odamlarnng ruhiyatini, ongi-saviyasini jonli tabiat og‘ushida, jonzotlar (kaklik) misolida aks ettirish yetakchi. Hikoya boshdan oxirigacha ramziy mazmunda bitilgan. Undagi ilk tasvir ham shunchaki holat ifodasini anglatib qolayotgani yo‘q. U inson ko‘nglida kechayotgan tuyg‘ular to‘lqini, fikrlar izdihomini anglatuvchi chuqr ma’nodorlikka ega. «Tashqarida shamol uvillar, burchakdagi tunuka pech otashxonasidan lop-lop etib alanga chiqar, shunda otashxona o‘t purkovchi afsonaviy ajdarining komiga o‘xshab ketardi. Ammo shiftga o‘rlab, tomini teshib chiqqan karnayning chirsillashi va uning ulama joylaridan tutun silqishi ko‘ngilni tinchitardi, chunki tom uzra esayotgan shamol tutunni qaytarib ichkariga urgani, shuning zarbida otashxonadan olov nafasi chiqib qaytganini unsiz anglatardi».²

Hikoya qahramoni Mansur qamoqdan chiqib kelgan, hamqishloqlarining ta’biri bilan aytganda, «turemshik». Tuhmat bilan o‘n yil o‘tirib chiqqan. Lekin u irodasi sust, bo‘sh-bayov bir

¹ Xolmirzayev Sh. Ozodlik. Hikoya so‘zboshisi // Vatan. – 1994. – № 8.

² Xolmirzayev Sh. Saylanma. Hikoyalar. II jild. – T.: Sharq, 2005. – B. 278.

kimsa emas, aqlli, tadbirli, mehnatkash inson. Hayotda adashgan, qoqilgan bo'lsa-da, yuz-tuban yiqlimaydi, o'zini o'nglab oila quradi, farzandli bo'ladi. Mol-hol orttiradi, uzoq-yaqinda, tevarak-atrofda «Mansurboy», «boy ota» degan nomga ega bo'ladi. Kimdir havas bilan, mehr bilan «boy» deb aytsa, unchalik xush ko'rmanalar esa kesatiq-piching aralash zaharxanda tilga oladi.

Asar qahramoni Mansurning ruhiyatini, fikridagi to'qnashlari tabiatini ifodalovchi mo'jaz bir holat ifodalangan ushbu hikoyada ham yozuvchi an'anaviy uslubiga sodiq qoladi. Qahramon kechmishining, voqealarning shafqatsiz haqiqatini uning qalb tarixini yoritish orqali ochishga muvaffaq bo'ladi. Xususan, kaklik oviga chiqib, «ozodlik gashtini suryapmiz» deya kerilgan Shoto'ra muallim, qorovul chol, direktor muovini hamda Mansur o'rtasidagi suhbat asnosida har bir qahramonning fe'l-atvori, qalb kechinmalari – psixologiyasi ochiladi.

Xarakterli shtrixlar, ya'ni aniq-tiniq detallar vositasida har biriga xos muhim belgilarni ko'rsatadi. Xususan, musiqa muallimi «makkor, o'lgudek qo'rkoq». Qorovul chol esa «yaqin-yaqingacha piyonistalik qilib, kechalari vino sotardi. Endi, machitga qatnaydigan bo'ldi bu kishi. Qarang, tekin tamoq yoqar ekan. Xo'rozday qip-qizil.¹ «Bu chol galvars, ammo tulkilik ham qo'lidan keladi. Bunda iymon-e'tiqod degan narsalarning urug'i ham yo'q. Biroq o'rgangan besh-o'n kalimasi bor, ularni ham tirikchilik jo'nida ishlatadi va lozim paytida o'ziga qalqon qiladi».²

Adib talqiniga ko'ra, inson tabiat farzandi; unda qanchalik oqillik, zukkolik mujassamlashgan bo'lsa, shunchalik yovuz hamdir. Inson komil bo'lishi uchun ezgulikni, go'zallikni,adolatni himoya qiladigan, yoqlaydigan fazilatlar egasi bo'lishi lozim. Shu ma'noda qanchalik achchiq va shafqatsiz bo'lmasin, insonga o'z aybini, o'zi ko'ra olmagan va bila bilmagan qalb haqiqatini, hayoti haqiqatini ro'yrost aytishimiz kerak, degan fikrni ilgari suradi adib. Insonning fe'li-faoliyatida nuqsonlar bilan birga fazilatlar ham yonma-yon yashaydi. Shu bois insonga, uning ijodiy imkoniyatlariga, yaratuvchilik qudratiga hamisha ishonish kerak, degan konsepsiya

¹ Xolmirzaev Sh. Saylanma. Hikoyalar. II jild. – T.: Sharq, 2005. – B. 298.

² O'sha yerda. – B. 294.

hikoyaning o‘zak g‘oyaviy asosini tashkil etadi. Tabiat hodisaları, holatlari, jonzotlari bilan muqoyasa asosiga qurilgan badiiy talqin mazkur niyat ifodasiga ma’nodorlik bag‘ishlaydi.

Sheriklari Mansurni qotil deb ayblaydi. «Sizlar meni qotil deyapsizlar». Axir eng katta qotil – sizlar ham-ku?» deya fig‘onidan tutun o‘rlaydi Mansurning, u sheriklarini, hokim muovini-yu melisani kakliklarni qirishda, urug‘iga qiron keltirishda ayblaydi. Tabiatni xarob qilish, jonzotlarga zug‘um, inson ko‘ngliga, ko‘ngil erkiga tahdid qilish bilan barobar. Bu aslida, ma’nан qashshoqlikning ko‘rinishi. Qolaversa, o‘z erkini, o‘z huquq va imkoniyatlarini oyoq osti qilish bilan ham barobar.

Hikoyaning ana shu sahifalarida keyingi yillar nasrida voqe bo‘lgan muhim bir tamoyil belgisini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, hayot hodisalarini, turmush realliklarini bejamasdan, ortiqcha bezamasdan, jimpimadorliksiz shafqatsiz realistik yo‘sinda ifodalash, inson umrining mohiyatini, tiriklik-hayot ma’nosini izlash bilan uyg‘unlikda, omuxtalikda yoritish mayllari ko‘zga tashlanadi. Bu narsa adibning ijodiy izlanishlarida ijtimoiy faoliyoning ko‘chayishini belgilash bilan barobar asarlaridagi badiiy-falsafiy ma’nolar quyuqligini ham belgilayotir.

Atoqli rus adibi V.Shukshin «Hikoyani men qanday tushunaman» maqolasida shunday yozadi: «inson va yaxshilik to‘g‘risidagi, yovuzlik xususidagi, go‘zallik haqidagi samimiyy, behalovat o‘y-mulohazalarsiz yozuvchi shaxsini ham, ijodini ham tasavvur qilolmayman».¹ Adibning ko‘ngil e’tirofi «Калина красная» asari munosabati bilan aytilgan bo‘lsa-da, uni o‘zbek yozuvchisi Sh.Xolmirzayev ijodi psixologiyasini ochishga qaratilgandek qabul qilishimiz mumkin. U Sh.Xolmirzayevning insonni tushunish hamda tushuntirishdagi hayotiy hamda ijodiy pozitsiyasini anglashimizga ham yordam beradi. Xususan, birgina «Ozodlik» hikoyasida kuzatilayotganidek, adibni asosan qahramonlarning qalb kechinmalari, ichki olami ko‘proq qiziqtiradi. Shu boisdan bo‘lsa kerak, adib o‘zini hayajonga solgan qahramonlari ichki dunyosining, qalb hayotining zohiriyl

¹ Шукшин В. Как я понимаю рассказ // Литературная Россия. – 1964. – 20 ноябрь. – С. 15.

tafsilotlarini ongli ravishda tushirib qoldiradi. Mayda ikir-chikirlarga, voqealarni miridan sirigacha hikoya qilishga berilmaydi. Adibning o‘z qahramonlariga nisbatan munosabatiga ko‘ra, darhaqiqat, inson shaxsi va uni o‘rab turgan ijtimoiy muhit, qahramonlarning o‘zi haqidagi, o‘zi tug‘ilib o‘sgan hayotga, jamiyatga, sharoitga munosabatlari to‘g‘risidagi tasavvur tushunchalari san’atning va shu ma’noda bugungi hikoyachilikdagi inson va shaxs konsepsiyasining tabiatini belgilab beradi.

Hikoyada qahramonlarning psixologiyasi, xarakter-xususiyatlari ular o‘rtasida kechgan suhbatda ham aniq ifoda qilinadi.

«...—Aytingchi, qamoqdan chiqqandan keyin, ya’ni ozod bo‘lganingizdan keyin o‘zingizni qanday his qilgansiz?

Mansur buning javobi ancha muhim ekanini uqib, illo musiqa muallimi ham o‘ziga diqqat bilan tikilib turganini ko‘rib, o‘ylanib qoldi.

– Xo‘s, chiqqanimdan keyin... shu, qo‘limda picha pul, yo‘l xarjini berishdi... Shu, qayerga borishimni bilmay qoldim. Holbuki, men bilar edim: institutga olishmaydi. O‘qish tamom bo‘lgan. Uchinchi kursdan ketgan edim-da... Keyin, meni biron ishga olishlariyam amri mahol – buniyam bilar edim. So‘ngra, uka, ko‘p tanish-bilishlarning mendan yuz o‘girganlarigayam ishonar edim.

– Tushunarli.

– Shunday. Nimaga desangiz, qamoqqa qayta tushgan bir-ikkita yigitlarning gaplarini eshitgan edim. E, ular juda xafa edi...

– Ular alamzadalikdan gunoh qilib qayta tushishganmi?

– Sababi ko‘p... Ammo, ba’zilar borki, qamoqqa o‘rganib qolishgan. Menga ishoning, ularni bugun ozod qiling, ertaga albatta, qaytib borishadi.

Muovin muallimga ma’noli jilmaydi.

– Sabab?

– Endi, sababi shu-da: qo‘li o‘rganib qolgan o‘g‘rilikka.

– Ha-a. Siz esa, ko‘nikib ketdingiz-a ozodlikka?

– E, uka-e, – Mansur mayin – yoqimtoy jilmayib chayqaldi. – Ozodlikka nima yetsin... Uning qadriga, masalan, siz ham etmaysiz.

Siz ham, Shoto‘ra aka. Boboy ham... Axir, tabib – tabib emas, boshidan kechirgan tabib deydilar-ku».¹

Ozodlikka erishgan jamiyat kishisi qanday fazilatlar egasi bo‘lishi kerak. Uning shaxsiyatidagi qaysi ma’naviy-axloqiy xususiyatlar qahramon tabiatidagi odamiylik mohiyatini belgilab beradi? Ushbu savollar keyingi paytda o‘zbek adiblarining nasrchipilikdagi inson konsepsiyasini yoritish borasidagi olib borayotgan badiiy izlanishlarining mushtarak jihatlari haqida muayyan tasavvurlar beradi. Har bir adibning, shu jumladan, Sh.Xolmirzayev bilan N.Eshonqulning «Ozodlik», «Maymun yetaklagan odam», «Zulmat saltanatiga sayohat» hikoyalardagi bugungi mustaqillik kishilarini tabiatidagi ma’naviy-axloqiy xislatlarni topish va aks ettirish, adiblar tanlagan qahramon ko‘nglida kechgan tuyg‘ular ziddiyatini, ong-shuuridagi fikrlar evrilishlari ma’nosini so‘zga ko‘chirish hikoyalardagi shaxs konsepsiyasiga oid nuqtayi nazarlarni, badiiy tadqiqotchilik prinsiplarini ko‘rsatadi.

Zotan, hikoyalarning badiiy barkamolligi qahramon psixologiyasi nechog‘lik xolis va hayotiy yorqin aks ettirilgani bilan belgilanadi. Modomiki, inson konsepsiyasi san’atkor dunyoqarashi, estetik pozitsiyasi bilan uyg‘unlikda namoyon bo‘lar ekan, ularning mushtarakligi adibning badiiy salohiyatini tayin etadi. Ulug‘ rus tanqidchisi V.G.Belinskiy ta’biriga ko‘ra «...badiiy asarning betakror o‘ziga xos tarovati uni yuzaga keltirgan san’atkor shaxsiyatining betakrorligi bilan asoslanadi».²

Xalqimizda bir miri kam dunyo degan gap bor. O‘n sakkiz ming olam bekamu ko‘st, to‘rt ko‘z tugal mukammal. Aslida, odamlar noqis, odamlar ideal emas. Bu xildagi mulohaza-muhokamalarning yuzaga kelish sababi dunyo va inson haqidagi tasavvur va tushunchalarga borib taqaladi. Har bir inson, shu jumladan, adib o‘z e’tiqodi-a’molidan kelib chiqib, bu yorug‘ ochunni ham, o‘z tushunchasidagi yaxshi odamni ham muayyan idealida tasavvur qiladi. Va shu asosga tayanib, insonning psixologiyasini, fikriy sajiyasini, atrof-tevaragini o‘z ra'yiga qarab o‘zgartirishga intiladi.

¹ Xolmirzayev Sh. Saylanma. Hikoyalari. II jild. – T.: Sharq, 2005. – B. 305-306.

² Белинский А.Г. Полное собр. соч. Т.7. – М.: Наука, 1955. – С. 530.

Yanada go'zal va mukammal bo'lishi uchun yonib yashaydi. Demak, bu yorug' olam ideal mukamallikka, komil mumtozlikka ega bo'lsa-da, insonning olam va odam haqidagi tasavvur tushunchalari hamisha unga rahna solib turadi.

Yozuvchi qahramonlarining qalb tarixini yoritishda tabiat va inson o'rtasidagi mushtarak va ayri jihatlarni qiyoslashga, Mansur, musiqa muallimi, qorovul chol, direktor muovinining qalb e'tiroflariga, ichki monologlariga, o'y-muhokamalariga alohida e'tibor beradi. Hikoyadagi badiiy talqin va tasvir xususiyatlari haqida Sh.Xolmirzayevning o'zi adib Sh.Hamroyev bilan bo'lgan suhbatida shunday deydi: «Men hecham ramziy ma'noda yozishni o'ylaganim yo'q. Shunchaki qafasda katta bo'lgan kaklikni tabiat bag'riga chiqarib qo'yvorishganida uning daf'atan don topolmay qolganini, xo'sh mustabid tuzum qafasidan qutilgan odamlarning ba'zi birlarining arosatda qolganlariga o'xshatganman xolos. Umuman, ramz deganimiz o'xshatishga o'xshamaydими? Ramzda teranroq ma'no bordir-u, baribir. Qiyoslashning bir xili, ehtimol kuchliroq xilidir».¹

«Ozodlik» hikoyasida qahramonlar faoliyati orqali hayqirayotgan ozodlikka, erkka intilish qiyoslar mag'ziga singdirib yuborilgan. Beayb parvardigor. Banda borki, kam-ko'stsiz emas, mukammallikka da'vo qilolmaydi. Shu ma'noda, xato qilmaydigan odam ham yo'q. Albatta, hech kim ongli ravishda atayin xatoostonasidan hatlab o'tmaydi. Yashash, tirikchilik – bu insonga berilgan buyuk bir sinov. Tug'ilish va o'lim oralig'idagi ushbu sinov muhlatini qay taxlit kechirish har bir kimsaning salohiyatiga, ong-shuuriga, qalb haqiqatiga bog'liq. Shu boisdan ham yozuvchi qahramonlarning ruhiy dunyosiga murojaat qiladi. Ko'nglida kechgan, «qilt» etgan tebranishlarigacha qayd etishga intiladi.

Sh.Xolmirzayevning adiblik mahorati ham shundaki, qahramonlarning o'z hayotidan orttirgan saboqlariga urg'u beradi. Har kim o'z xatolaridan saboq olgani ma'qul, degandek tuyg'ular – kechinmalar realizmiga asosiy diqqat-e'tiborini qaratadi. Tirikchilik saboqlari qahramonlarning, xususan, Mansurning taqdirini tubdan

¹ Xolmirzayev Sh., Hamroyev Sh. Adabiyot, adabiyot, adabiyot // Yozuvchi. 1997-yil. 15-yanvar.

o‘zgartiradi. Zero, har kimning yashash tarzi, tirikchiligi, bu qalb haqiqatining namoyon bo‘lish shakllaridan biridir. Qalb tarxini o‘zgartirish mumkin, lekin uning borlig‘ini, haqiqatini yo‘q qilib bo‘lmaydi. Qalbning yuziga chiziq tortish mumkin emas, qalbning ko‘zini ko‘r qilish – umrni zavol toptirish bilan barobar.

Shu ma’noda, Mansurning qalbiga qulq solish mumkin, lekin qo‘l suqish nojoiz. U dangali-to‘pori, jasur vaadolatpesha, haqgo‘y va hayosevar «turemshik» Mansurning g‘ashini keltiradi, g‘azabini qo‘zg‘aydi. Sababi, bu narsa uning ruhiy dunyosiga qadam qo‘ygandek tuyuladi. Vaholanki, tuyg‘ular yuziga oyoq qo‘yib bo‘lmaydi. Bu – gumrohlik. Bu – odam sha’nini tahqirlash bilan barobar. Shu boisdan ham direktor muovini kaklikning kallasini tiriklay uzib olganda Mansur uni yirtqichlikda ayblaydi. Tuyg‘ularini oyoqosti etuvchi bepisand, hurmatsiz muomala singa javoban musht tushiradi.

«Direktor muovini unga qiya qarab:

- Biz har holda odam o‘ldirmadik-ku?-dedi. – Yirtqich deysiz...
- So‘ng o‘z joyiga o‘tirib, kabobni ag‘darib qo‘ydi. – O‘ylab gapirish kerak» (o‘sha manba, 292-bet).

Hikoyadagi badiiy g‘oya takomilini ko‘zdan kechirar ekanmiz, hayotiy sharoit, muhit taqozosiga ko‘ra qahramonlar ruhiyatidagi evrilishlar qalb haqiqatining galdegisi ko‘rinishi tarzida voqe bo‘ladi. Hikoya qahramonlarning tabiatga, kaklik oviga, tabiat xossalari ga bo‘lgan munosabati Ozodlikka nisbatan munosabat tarzida talqin qilinadi. Hamsoyalarning tabiat og‘ushida kaklik tutib kabob qilib yeyishini, maishatini musiqa muallimi «Ozodlik gashtini suryapmiz», deya baholaydi.

«...Kaklik uning butlari orasidan o‘rmalab chiqdi. Ana shunda direktor o‘rinbosari kaltaklardan birini olib jahl bilan urgandi, qushning bo‘yni sinib yotib qoldi.

Musiqa muallimi bo‘lsa, qushni shartta ko‘tarib oldi-da, boshini burab tortdi-bosh uzilmadi. Keyin birdan tishi bilan kekirdagini uzdi va niroyat, kallasini ajratib otib yubordi. Cho‘ltoq bo‘yindan qon oqar, ammo hamon joni bor ekan, oyog‘i tipirchilar, sog‘ qanoti qorniga urilardi» (o‘sha manba, 291- bet).

Ana shu xil yovuzlik ko‘rinishlariga Mansurning munosabati aniq. Yuragi ezilib ketadi. U ich-ichidan, o‘ziga o‘zi «Erk nima?

Ozodlik nima?» deya savol bergandek bo‘ladi va shu savollariga javob topishni istaydi. Bu shunchaki oddiy qiziquvchanlikdan yoki ermak uchun aytيلayotgani yo‘q. Nazarida, ana shu savollarga javob topolsa, umrining ma’nosini, yer yuzida yashash, oilani – farzandni sevish, go‘zalliklar yaratish, ana shu hayotning asoslarini boqiyalashtirish uchun kurashish zaruratin anglagandek bo‘ladi. Ko‘ngli ko‘tarilgandek, boshi ko‘kka yetgandek his qiladi o‘zini. Umrining esa ana shu go‘zalliklar va qadriyatlarsiz o‘z holicha hech qanday ma’nosi yo‘q. Tiriklikning ma’nosi Erk – ozodlikda. Inson shu yorug‘ hayotning zarrasi ekan, umri ham o‘ziga yarashiqli mazmunga ega. Odamlarning yuragi, aqli-shuuri, mehnati shu zaminga qatra bo‘lib singadi. Ko‘katlar, dov-daraxtlar bo‘lib unadi. Tuproqqa qatra bo‘lib singish uchun esa odamlarni, hayotni, tiriklikni sevish kerak. Ozodlikning quli emas, egasi bo‘lishi o‘z erkini to‘la-to‘kis poydor eta bilishi lozim.

«Ozodlik» hikoyasidagi ramziy ma’nodorlik shuni anglatadiki, vaqt o‘tishi, davr almashuvi insonlar dunyoqarashi va tafakkur madaniyatiga ham katta ta’sir o‘tkazadi. Hikoya qahramoni Mansur yangi voqelik, yangi davr mohiyatini anglab yetadi va yangi maqsad, g‘oyalar bilan nafas oladi. Asardagi boshqa toifa qahramonlar esa buning mutlaqo aksi. Ular erk va uning mohiyatini aslo tushunmaydigan yoki tushunishni istamaydigan gumroh kishilar obrazidir. Aytish mumkinki, inson bu dunyodan o‘tganda tanasi yorug‘ dunyoni tark etib ruhi qoladigan bo‘lsa, bu qahramonlarning ruhi eski zamona aqidalarining qurbaniga aylanib, yangi zamonga faqat tanasi bilan kirib kelgandek ko‘rinadi. Boshqacha aytganda, «Ozodlik» hikoyasida mustaqillik davrida kishilar ongi-ruhiyatidagi o‘zgarishlar, voqelikka munosabati konkret sharoitda ko‘rsatiladi. Hikoyada bu holat juda mohirlik bilan tasvirlanganki, asarning yechimiga kelib biz katta bir hayotiy haqiqatni anglaymiz. Asarda uzoq vaqt bandilikda yashab, tamomila boshqa sharoitga moslashtirib tarbiyalangan xalq kaklik obraziga qiyos qilinadi».¹

«Ozodlik», «Jajman», «Maymun yetaklagan odam» singari hikoyalardagi badiiy idrok va ifoda ma’nolarini ko‘zdan kechirar

¹ Tavaldieva G. Shukur Xolmirzaev hikoyalarida voqelikni badiiy idrok etish prinsiplari: Filol. fanlari nomzodi dis. ... avtoref. – T., – 1991. –B. 17.

ekanmiz, davr taqozosiga ko‘ra, hikoya janri tabiatida ham sifat o‘zgarishlari sodir bo‘layotganini ko‘rish mumkin. Xususan, hikoyachilik o‘z mundarijasida mustaqillikka erishgan jamiyatning talablari va ehtiyojlarini aks ettirish sari yuz tutdi. Shu jihatdan ularda bashariy qadriyatlar asosini tashkil etgan yuksak gumanizm baland mavqe kasb etayotir. Zero, odam poshnalar ostidagi chang‘ubor emas, aksincha, odam Olloh taolonning yer yuzidagi o‘rinbasari, xalifasi. Shu ma’noda Sharq xalqlarining inson shaxsi va sha’nini e’zozlash nuqtayi nazaridan ifodalanib kelgan gumanistik saboqlari, tajribalari mustaqillik voqeligi va odamlarining dunyoqarashini, qiziqishlari va tafakkurini aks ettirishda yangicha nuqtayi nazarlar ila namoyon bo‘layotir. Uning mag‘zi-mohiyatini birgina shaxs konsepsiyasining badiiy ifodasi bilan bog‘liq insonning tabiatga, go‘zallikka munosabatida yangi talqinlarda ko‘rishimiz mumkin.

Ruhiy ehtiyoj kutilmaganda, bexosdan paydo bo‘lgani yo‘q. U davr taqozosi, hayot talabi, ma’naviy kamolot zaruratidir. Shuning uchun ham u bugungi nasrimiz rivojining ustuvor g‘oyaviy-badiiy keredosiga aylandi.

Qaynoq hayot quchog‘ida, voqelik jarayonlarida inson fe'l-faoliyatini, umrining mazmunini badiiy shaklda qayta yaratish, undan chuqur ijtimoiy-falsafiy ma’nolar chiqarishga, uqishga intilish adiblarimiz izlanishlarida o‘ziga xos betakror bunyodkorlikni, badiiy tafakkur tarzidagi xilma-xillikni, ifoda yo‘sinlaridagi rang-baranglikni yuzaga keltirmoqda. Xususan, «Ozodlik» hikoyasida davr ruhini, zamon qalbini, qahramonlarning qalb kechinmalarini ifoda etish orqali hayot – tiriklik falsafasini aks ettirish yetakchilik qiladi. Mansur ruhiyatidagi birda to‘porilik yoki qat’iyatsizlik ko‘rinishlari deysizmi («To‘g‘ri, ba’zi masalalarni tushunishda cho‘pondan ham battarman, – dedi Mansur va chirani portladi: – Bu boshboshdoqlik nega? Hamma tartibni buzsa! Hamma brakaner bo‘lsa, hech kim o‘ylamasda tabiatni..») (o‘sha manba, 303-bet) yoki musiqa muallimi kayfiyatidan, direktor muovininining gap-so‘zлari yoki qorovul chol kechinmalari – o‘ylaridagi o‘zgarishlar tabiatidan mustaqillik davri ayrim kishilarning hali to‘la-to‘kis shakllanib ulgurmagan qat’iy e’tiqodlaridan voqif topamiz. Ular ruhiyatidagi tebranishlar ma’nosidan saboq o‘qiyimiz. Qahramonlar ruhiyatidagi

tebranishlar ongi-shuurida yuzaga kelgan o‘y-mulohazalar bilan omuxta kuzatiladi. Aytish mumkinki, qahramonlarning obyektiv hayotdan uqqan va anglagan, dil-dildan fahmlagan qalb haqiqatlari sifatida anglashiladi.

Hayot haqiqati bilan qalb haqiqatining uyg‘un sintezi, davr psixologiyasi bilan qalb manzaralarining omuxta ifodasi hikoyachiligidagi falsafiy-psixologizmning o‘ziga xos ko‘rinishidir. Ushbu tamoyilning qutlug‘ samarasi sifatida psixologik holatlar, kayfiyatlar silsilasidan hayotning ma’nosи, tiriklikning mohiyati xususidagi falsafiy ma’nolar kelib chiqadi. Bu narsa mustaqillik davri hikoyachiligidagi psixologik tahlil teran fikrchan o‘y-mushohadalar bilan to‘yinib bormoqda, demakdir. «Iloyi, oh, odamlarga shu qadar ishongim keladi! Shunchalik yaxshilik tilayman... Lekin buning bo‘lgan-turgani, nima desam ekan, juda ojiz, xudbin maxluq ekan-da bu odamzod» deydi Olimboy. «Dunyoning haqiqati bu yoqda ekan-ku, deyman. Kecha Hazrati imom mashvarat qilib: «Xudodan qo‘rqmagandan qo‘rqingiz», deb aytdilar. Biz buni ko‘p muhokama qildik. Xulosa shu bo‘ldiki, jamiyatdagi barcha nuqsonlar, buzuqchiliklar bari... Xudodan qo‘rmaslik orqasidan!» deydi qorovul chol (o‘sma manba, 313-bet).

Ko‘rinadiki, voqelik mazmuni badiiy obrazlar psixologiyasiga singishib ketgan holda o‘zaro uyg‘unlikda, vobasta tajassum topayotir. Bundan shu narsa anglashiladiki, ozodlik odamlar taqdiriga, psixologiyasiga qanday o‘zgarishlar olib kirganligini badiiy tadqiq etish ham hozirgi nasrimizdagi yetakchi xususiyatlardan biridir. Illo, qahramonlarning qalb kechinmalarini – psixologiyasini o‘rganish orqali davr psixologiyasi, zamon ruhiyati xususidagi badiiy umumlashma-muhokamalar tafakkur manzaralarini, fikrchan miniatyuralarni eslatadi. Zero, «Badiiy asarda g‘oya tasvir etilgan kishilarning psixologiyasi, taqdiri, voqealarning va narsalarning mohiyati ichiga singib ketadi. Shunchalik singib ketadiki, biz u g‘oya muallif tomonidan ishora qilinmagan holda ham o‘zimiz o‘sma muallif chiqargan xulosaga kelamiz».¹

¹ Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi, 1980. – B. 68.

Adabiyotshunos B.Sarimsoqov alohida ta'kidlaganidek, «Nazariy jihatdan san'at asari tabiatga – hayotga taqlidan yaratiladi. Biroq bu taqlid hayotning oddiy nusxasidan iborat bo'lmasligi lozim. Ijodkor yaratgan badiiy voqelik hayot haqiqatiga mos, lekin o'ziga asos bo'lgan ana shu voqelikdan ustun bo'lmos'i lozim. Hayotga taqlid badiiy ijodda muayyan iste'dod his-tuyg'usi, tafakkuri, ideali ta'sirida umuminsoniy qadriyatga ega bo'lgan yangicha badiiy hayot yaratish demakdir».²

Iste'dodli adibimiz X.Do'stmuhammad ijodi, xususan, «Jajman» hikoyasida ushbu mulohazalarning o'ziga xos tasdig'ini ko'rish mumkin. Hikoyada bozorda yuz bergen voqealar asosida oddiydek tuyulgan faktlar, detallar mohiyatidan ma'naviy qadriyatlar mag'zini uqishga qaratilgan ramzli holatlar, kayfiyatlar, kartinalar chiziladi. Maishiy hayot realliklarini bitta-bitta tasvirlab, ulardan badiiy umumlashma-xulosalar tariqasida yaratilgan ramzli obraz va ifodalarda psixologik tahlilning o'ziga xosligi ayonlashadi. Shafqatsiz realistik idrok va ifoda adib hikoyalaridagi bosh estetik mezon sifatida ko'zga tashlanadi. Ularni ko'ngil bahridan terib jamlangan tuyg'ular, kechinmalar, o'y-fikrlar sintezi, deyish mumkin.

Hikoyada voqealar bozor va unda oralab yurgan g'alati bir maxluq atrofida yuz beradi. Odamlardan bir xillari maxluq, ya'ni Jajmanni oldiga chaqirib uning qornini to'yg'azsa, bir xillari uni quvib soladi. Hammani o'zining yeb to'ymasligi bilan hayratda qoldirgan bu maxluqni yozuvchi shunday tasvirlaydi: «Bobo xayolga chalg'ib, maxluq qachon va qanday qilib yerga tushganini payqamay qoldi, faqat uning sakrab-irg'ishlab darvoza tomon borayotganini ko'rgachgina, hushini yig'di. Bobo ko'rdi – maxluqning ko'zi, qulog'i, tumshug'i dam sichqonnikiga, dam tulkinikiga o'xshab, tinimsiz tovlanar edi... «Olmaxon-ku!» deb yubordi ichida bobo va shu zahoti boshini chayqab «tulkiminan sichqondan tarqagan ko'rinati», degan xayolga bordi, birpas jim qolgach esa, «Qorni kenguruniki...», dedi pichirlab, lekin maxluq qaddini rostlab ikki oyoqlab borayotganini ko'rib, «Yo odamdan

² Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T.: Fan, 2004. – B. 97.

tarqaganmikan?!» deb o‘yladi va beixtiyor shak keltirib qo‘ygandek shoshib yoqasiga tupladi...».¹

Ko‘rinadiki, bu yerda Jajmanning tasvirlanishida ham katta ramziy mazmundorlik yetakchilik qiladi. Jajmanni ko‘rganda Zardusht bobo dastlab uni olmaxonga, keyin dam sichqonga, dam tulkiga va oxiri odamga o‘xshatadi. Hikoya davomida shu narsa ma’lum bo‘ladiki, adib ushbu maxluq qiyofasida nafs balosini ifoda qiladi. Zero, nafsga mukkasidan ketgan, o‘z nafsini jilovlay olmagan inson tashqi jihatdan qanchalik (olmaxondek) chirolyi bo‘lmasin, (tulkidek) ayyor va bunday odamlar jamiyat uchun (sichqondek) zararlidir. Ma’lumki, tulki ham, sichqon ham boshqalarning rizqiga ko‘z tikib yashaydi.

«Bobo hiyla mahal maxluqni kuzatdi, uning qo‘li-oyog‘i tinmas, lekin hali-veri to‘yadiganga ham o‘xshamas edi. Uning qandoq qilib birovning mayizini tortinmay-netmay tushirayotganidan bobo hayron-u lol bo‘lganicha, ko‘zlariga ishonmas, xayolida esa: «Bu qanday maxluq o‘zi? Bu qanday maxluq?» degan savol charx urardi».² Adib hikoyada Zardusht boboning o‘y-xayollari badiiy tasviri va talqini orqali fikrlash, xulosalar chiqarish uchun o‘quvchiga ham keng imkoniyatlar qoldiradi. Yana bir alohida ta‘kidlash lozim bo‘lgan narsa shuki, hikoyadagi Zardusht bobo obrazi asarda jismonan mavjud emas, u insoniyatni g‘oyibdan kuzatib turadi.

O‘tgan asrning 90-yillar o‘zbek hikoyachiligi bo‘yicha ilmiytadqiqot olib birgan G.Sattorova ham o‘z ishida X.Do‘stmuhammadning «Jajman» hikoyasini tahlil qilib, asarning ramziy ma’no-mohiyatini juda to‘g‘ri anglaydi. U yozadi: «X.Do‘stmuhammadning «Jajman» hikoyasida sharq falsafasining o‘ziga xos talqini badiiy falsafiy ravishda mujassamlangan. Bu bilan yozuvchi muayyan tarixiy sharoitda, xususan, sho‘ro tuzumi muhitida ildiz ota boshlagan millat tabiatidagi salbiy xususiyatlarni

¹ Do‘stmuhammedov X. Jajman // Siz sog‘ingan asarlar. – T.: Sharq, 2003. – B. 71.

² O‘sha yerda. – B. 70.

ko‘rsatadi. Nafs orqasidan kelishi mumkin bo‘lgan falokatlardan bizni ogohlantiradi».¹

Ko‘rinadiki, X.Do‘stmuhammad mazkur hikoyada inson shaxsining fe’lidagi noqisliklar uchun kurashish, ulardan imkon qadar qutulish kabi umuminsoniy muammolar xususida qayg‘uradi. Hikoyada ramziy tarzda aytimoqchi bo‘lgan axloqiy-falsafiy ma’no ancha teran. Axir qaltis bir qadam, nojo‘ya bir og‘iz so‘z, noma’qul bir harakat, nafsni jilovlay olmaslik insonlik maqomini barbod etishi hech gap emas. Odamning o‘zi cheksiz bir olam, uning hissiy-fikriy dunyosini anglab, oxiriga yetib bo‘lmaydi. Odam avvalo, o‘zini o‘zi anglab bilmog‘i, o‘z ko‘nglini tushunib yetmog‘i, nafsni jilovlay bilmog‘i lozim.

Adib hikoyasidagi Bozor – hayot, Jajman – nafs ma’nosida talqin qilinib, hikoyaning estetik ta’sirini ancha oshirgan. Lekin shuni ham e’tirof etish lozimki, Asqad Muxtor ta’kidlaganidek, «Chinakam badiiy asar hamma vaqt javobsiz savoldir. Bordi-yu adib unda biror muammo ko‘targan bo‘lsa ham bu – amalda hal qilib bo‘lmaydigan muammodir».²

Shu ma’noda, N.Eshonqulning «Maymun yetaklagan odam» hikoyasini ham nazardan o‘tkazish o‘rinlidir. Adib keksa rassom chol obrazini yaratish orqali ushbu masalalarga badiiy-falsafiy yo‘sinda javob izlaydi. Hikoyada shaxs konsepsiysi va ijtimoiy muhit masalasi ramziy obrazlar zimmasiga yuklangan falsafiy mazmundorlik orqali yoritilgan. Xusan, ma’naviy-intellektual erkinlikni qo‘lga kiritish oson ish emas; aksincha, ushbu hodisa yangi ruhiy hadlarni egallash evaziga axloqiy xislat-xususiyatlar kasb etish orqali kechadi. Ana shundan keyingina insonning ma’nan hamda fikran komillik xususiyatlariga ega bo‘lishi tafakkur erkinligiga yetishish natijasi o‘laroq vosil bo‘ladi. Mazkur g‘oyaviy-badiiy fikr hikoyadagi shaxs konsepsiysi talqinidagi o‘zak ma’noni belgilab beradi.

«Maymun yetaklagan odam» hikoyasining bosh qahramoni sharti ketib, parti qolgan, munkillagan rassom chol. U o‘zining

¹ Sattorova G. 90-yillard hikoyachiligidida milliy xarakter muammosi: Filol. fanlari nomzodi dis. ...avtoref. – T.: 2002. – B. 13.

² Muxtor A. Uyqu qochganda... // Adabiyot-ruhiyat mulki. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000. – B. 43.

tirikligi singari to‘kilib, uvadasi chiqib qolgan, sho‘ppaygan uyda yolg‘iz yashaydi. U yurganda «...go‘yo necha qadam umri qolganini o‘lchab yurgandek» bo‘ladi. Odamlarga, atrof-tevaragiga qarashi ham nafratga, adovatga yo‘g‘rilgan. «Zaharli, odamni bo‘g‘ib, holsiz qilib qo‘yadigan bu adovat menga o‘sanda uning butun tanasidan, vujudidan, qoqshol bo‘lib qolgan barcha qon tomirlaridan hamda chakalakzor ichidagi tilsimli qo‘rg‘on kabi menga noma’lum bo‘lgan umr qal‘asidan ufurayotgandek tuyulgandi».¹

Har bir kimsaning ruhi, qalbi bo‘lgani singari har bir asarning, shu jumladan, hikoyaning ham o‘ziga xos ma’naviy dunyosi bo‘ladi. Bu esa ijodkorlarning o‘ziga xos va betakror ma’naviy-intellektual salohiyatidan barpo bo‘ladi. Shu ma’noda, hikoyani hikoya darajasiga ko‘tarib turgan narsa uning ana shu ma’naviy-psixologik, tafakkur qudratini barpo etgan badiiy tafakkur madaniyatidir. Zero, adib uslubidagi timsollar, tafakkur tabiatini badiiy asar uslubini ham belgilab berayotir. Ana shu o‘ziga xos botiniy, hissiy sezim va fikriy miqyos hikoyaning qalbi, deyish mumkin. Ana shu badiiy ifoda yo‘sini hikoyaning joni va qoni. Bu narsa «Maymun yetaklagan odam» hikoyasining badiiy uslubidagi ramziy ma’nodorlik tabiatini asoslaydi va o‘quvchiga emotsional-estetik ta’sir ko‘rsatib, o‘quvchini fikrlashga da’vat etishi, mushohadalar girdobiga, kechinmalar po‘rtanasiga tortib ketishi orqali ayonlashadi. Xususan, rassom cholning yurish-turishi, fe'l-atvori, gap-so‘zlari, uy muhit, yashash va ishslash sharoitlari bizga, avvalo, hissiy sezimlar, kechinmalar ozuqasini beradi. Keyin fikr uyg‘otadi, mushohadalarga undaydi. Shu boisdan ham rassom chol taqdiri, hayoti bilan bog‘liq har bir detal, holat, kayfiyat hikoyaning emotsional-psixologik muhitini yuzaga keltiradi. Bu hol, tabiiyki, qalbimizni rom etadi, fikri-zikrimizni butkul band qiladi. Negaki, hikoyadagi muhit biz bilan qalb tilida so‘zlashayotir; biz bilan hamroh do‘stlar singari ishonch ko‘rsatib fikrlashayotir. Ko‘rinadiki, «haqiqiy san‘at asarining obrazlari o‘zida yozuvchining dunyoqarashini, ta‘bi, didi, ijtimoiy munosabatlari chizimini ham yorqin aks ettirib turadi». ¹

¹ Eshonqul N. Maymun yetaklagan odam. – T.: Yangi asr avlod, 2004. – B. 120.

¹ Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. Adabiy asar. I jild. – T.: Fan, 1978. – B. 152.

Hikoyadagi badiiy ifoda tarziga ko‘ra, undagi har bir jumla qahramon ruhiyatini, qilmish-qidirishlarini ayon etish barobarida, yana yangi fikr tug‘diryapti. N.Eshonqul hikoyalarda so‘zlar aslo jaranglamaydi, yaltiramaydi, shovqin-suron ko‘tarmaydi. Ular ma'yus, mahzun, dardchil va dilgir suhbatdosh, sifatida hosil bo‘ladi. Ular hamisha odamni o‘ylashga, o‘zini tanishga, o‘zligini anglashga va shu jarayonda o‘zligini ayon etishga undaydi. Shu taxlit ajib va sirli tafakkur hayotiga olib kiradi. Ma‘naviy-intellektual hayotidagi kechinmalar manzarasi bilan tanishtiradi. Fikrlarning rangi va ma’nosи ila oshno etadi. Ruhi, qalbi bor asar ana shunaqa joziba salohiyatga ega bo‘ladi. U adib qalbidan andoza olganligi boisdan ham ijodkor ko‘nglining qayta tiklangan adabiy-badiiy ko‘zgusi bo‘lib qoladi.

Inson mustaqil fikrash, u yoki bu masalada o‘z qarashlarini ishonchli, asosli qilib bayon eta olishi uchun ongidagi zanjirlarni, to‘siqlarni yengib o‘tishi talab qilinadi. Rassom chol hayoti esa mutelik, tobelik iskanjasida kechgan. Hikoyadagi voqealar tafsilotidan ayonlashadiki, rassom chol qirchillama yoshlik yillarida chizgan, ya’ni o‘rmondan maymun yetaklab chiqib kelayotgan yigitning shahdam odimlari, ko‘zlaridan umid alangasi lovullab turgan holati suratining tagiga «1921» sanasi yozib qo‘yilgan edi. «Suratda quyuq o‘rmondan maymumni yetaklab chiqayotgan barvasta gavdali yigit tasvirlangan edi. Yigitning ko‘zları tiyrak va ishonch bilan porlab turar, maymunning bo‘yniga solingan kishan tarang tortilgan edi».²

Shu o‘rinda diqqat qilinishi lozim bo‘lgan ikki holat bor. Bu bo‘yniga kishan tortilgan maymun hamda yigitning ishonchdan porlagan ko‘zlaridir. Maymun bilan nur chuqr ramziy ma’nodorlikka ega. Maymun – qahramonning mutellikka mahkum etilgan ko‘ngli. Uning bo‘yniga solingan (zanjur emas) kishan ham tarang tortilgan, mustahkam. Qarangki, ong-shuur, ya’ni fikr mute, tuyg‘ular tobe bo‘lar ekan, inson o‘zini emin-erkin his etmas ekan, unda dadillik va jo‘shqinlik, fojialar bilan turfa xil muammolar sababini o‘z nomi bilan atash shijoati qaror topmaydi. Zero, rassom

² Eshonqul N. Maymun yetaklagan odam. – T.: Yangi asr avlod, 2004. – B. 123 (boshqa misollar ham shu manbada olinadi).

chol suratlaridagi ranglar va buyoqlar rost so‘zning keskin ruhi har qanday kelishmovchilik, befarqlik, itoat va jur’atsizlik illatlarini tagtomiri bilan yanchishga qodir kuchga aylanmaydi. «...Suratlarda huvillab qolgan qishloqlar va ko‘chalar, egalari tashlab ketgan uylar, o‘ziga chorlab turgan qabristonlar, o‘lim isi kelib turgan har-xil qurollar, yig‘layotgan ayollar va bolalar, biyday dalani bosib ketgan o‘laksaxo‘r quzg‘unlar, murdalar ortilgan aravalar, panjarali kameralar, yonib yotgan qishloq, qo‘rquvdan (xuddi «Pompeyaning so‘nggi kuni» kabi) dong qotib qolgan olomon, sirli maxluqlar, yirtqich hayvonlar, yuzlariga har xil jondorlarning niqoblarini kiyib olgan odamlar (karnaval bo‘lsa kerak deb o‘ylagandim), bazm-u jamshid qilib o‘tirgan shotirlar, aroq navlari, turli xil taomlar, yalang‘och ayollar, ma’suma qizlar, qovjirab qolgan gullarning suratlari aks etgan edi» (o‘sma manba, 124-125-bet).

Rassom chol suratlarida tasvirlangan mazkur holatlar uning ko‘ngil kechinmalarini ifodalab, ruhiy dunyosining muayyan ko‘zgusi sifatida zohir bo‘layotir. Qolaversa, bu uning fikr-o‘ylarining ma’lum shaklga kirgan tajallisi hamdir. Ko‘rinadiki, «Badiiy obraz kishilar qalbini ma’naviy jihatdan boyitishi, ular ongiga estetik ozuqa hadya etishi bilan ko‘pchilikda yaxshi kayfiyat uyg‘otsa-da, boshqa birovlni ruhan ezib qo‘yishi va uzoq muddat iztirobda qoldirishi ham hech gap emas. Zero, badiiy obraz obyektiv voqelikning g‘oyaviy-estetik mazmunli subyektiv in’ikosi bo‘lgani uchun odamlar qalbidagi eng nozik his-tuyg‘ularni, ular ongiga o‘rnasholmay turgan eng murakkab fikr va mulohazalarini ham harakatga keltira oladi».¹

Agar e’tibor bersak, rassom cholning o‘zidan, hayot tarzidan achimsiq badbo‘y bir hid anqib turgandek bo‘ladi. Odamlarga adovat bilan tikilib-tikilib qo‘yishlaridan badbo‘y hid anqiydi: «Cholning uyi hashamatli, keng, lekin tashlab ketilgan maydonday huvillab yotardi. Ustun va romlar chirigan, umuman, hovlidan chirkin va badbo‘y hid kelardi. Chirkin hid daraxtlardan, qor ostida qolib qarovsizlikdan xazonlikka yuz tutgan gulzordan, uyning yog‘ochlaridan va ayvonda qalashib yotgan har xil rasmlar uyumidan kelayotgan edi: shaltoq hid esa axlat solinadigan

¹ Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. Adabiy asar. I jild. – T.: Fan, 1978. – B. 152.

unduqadan kelardi» (121-bet). Cholning «...lablari orasidan chirigan ko‘m-ko‘k tishlari ko‘rinadi». Chol «...guyo bir uyum axlatni ko‘rsatayotgandek, ijirg‘anib, qo‘li bilan ayvonning to‘rini ko‘rsatdi». Cholning ayvoni to‘ridan, ashqol-dashqollaridan ham shilta hidi anqiydi. «Boshqa bir kuni cholning oldiga ovqat olib kirganimda yana o‘sha shilta hididan ko‘nglim ozib ketayozdi. Lekin men endi har burchakda puturdan ketayotgan umrning tanazzulidan darak berib turgan qo‘lansa hidga ko‘nika boshlagan edim» (o‘sha manba, 126-bet).

Rassom chol hayoti va tirikligidan anqib turgan hid, bu shunchaki holat yoki kayfiyatlar ifodasi emas. U chirkin umr fasllaridan orttirgan «samaralar». Laxtak-laxtak, bo‘lak-bo‘lak umr salqitlari. Yaxshilik bilan yomonlikni, e’tiqod va maslaksizlikni bilmay, ma’nosini anglamay kechgan tiriklikning benaf va besamar oqibatlari. Agar e’tibor bersak, Nazar Eshonqulning «Maymun yetaklagan odam» hikoyasigina emas, «Zulmat saltanatiga sayohat», «Tobut», «Ozod qushlar» asarlarida ham tabiatdagi, jamiyatdagi voqelik xossalari inson umrining ma’no-mohiyatini ramzlar tiliga ko‘chirish alohida o‘rin tutadi. Yuqoridaq misollarda kuzatilganidek, hid – rassom cholning yigitlikdan to umr shomigacha kechgan yaxshilik nima-yu, yomonlik nimaligini izlay-izlay javob topolmagan, o‘z-o‘ziga ishonmagan, umrini turli aldrovlar va yupanchlar bilan behuda o‘tkazgan odamning o‘y-fikrlari, to‘yg‘ulari timsollaridir. Chunki, «Ramz, xayolning va hayotning shartli ifodasıdir. Adabiyotning ilohiy kuchi, qudrati shu ramzlarning qay tariqa ifoda etilganiga bog‘liq. Ya’ni, ramzlar insonning tasavvur hududini, go‘zallikka ehtiyojini qondira oladimi, yo‘qmi? Insonning go‘zallikka bo‘lgan ehtiyojini faqat ilohiy narsalar qondira oladi. Ramzlarga zuhr etilgan go‘zallik ilohiydir».¹

Shunisi e’tiborliki, har bir badiiy-barkamol asar sobit va qat’iy xarakterga ega bo‘lgan odamga o‘xshaydi. Shu jumladan, N.Eshonqul hikoyalari ham bo‘lar-bo‘lmasga har kim bilan gaplashgisi kelavermaydi. Har kimga ham qalbini ochavermaydi; ko‘ngliga tugilgan, ramzlar tiliga ko‘chgan dardi-hasratlarini,

¹ Eshonqul N. Ijod qudrat, go‘zallik, ilohiyotga daxldorlikdir // Milliy tiklanish. 1998-yil.19-may.

o'kinch-armonlarini oldiga dasturxon qilib yozavermaydi. Adib hikoyalari har kimni ham yuragiga kiritavermaydi. Dardkash, qalbdosh odamlargagina sir-asrorini ochadi, badiiy obrazlari qatlamiga yashiringan ma'nolarga oshno etadi. Nazar Eshonqul hikoyalari ana shunaqa qalbi butun asarlardir. Yuqoridagi misollarda kuzatilganidek, Hid hamda Shu'la ramzları rassom chol hayotining badiiy obrazlar orqali ifodalayotgan umumlashmasidir.

Rassom cholning suratlariiga o'tgan asrning 20-yillaridan to 60-yillargacha kechgan hayoti ko'chib o'tgan. Hikoyaning sarlavhasiyoq kitobxonni o'ylatadi. O'rmon – rassom cholning sokinlik va yolg'izlik alami. Maymun – hayotning beshafqat o'yinlari girdobida xasdek chirpirak kechgan, o'zini anglab yetmagan, o'zligini topmagan va ayon etolmagan mutelik belgisi. Ko'zlarida umid-ishonch shu'lalari balqigan yigit sho'ro jamiyatining, qizil imperiyaning odamxo'rlik tabiatini insonparvarlik deb tushungan, kommunizm istiqbollariga ishongan va lekin umid-e'tiqodda aldangan, u hayotini baxsh etgan yorug' kommunizm qorong'u sarob bo'lib chiqqan bir ro'yo. Hikoyadagi ramzlar hayot haqiqatining botiniy ma'no qirralarini yoritishga qaratilgan mohiyati bilan e'tiborlidir. Demak, «...adabiyot asarlari hayotni faqat tasvirlabgina qolmay, balki hayot hodisalarini tushuntirib ham beradi. Ko'rinadiki, adabiyot asari juda ko'p hollarda hayot hodisalari ustidan hukm chiqarish ahamiyatiga egadir. Adib tomonidan chiqarilgan bunday hukm kishilarning ongini rivojlantirib, hayotni nima uchun va qanday qilib qayta qurish kerakligi haqida muayyan tushuncha tug'diradi».²

«Maymun yetaklagan odam» asari misolida N.Eshonqul hikoyalaridagi inson konsepsiyasining asosiy aspektlarini aniqlash va shu asosda o'ziga zamondosh salaflari ijodiga mushtarak hamda farqli xususiyatlarini ko'rsatish, insonni tushunish hamda tushuntirishda adib izlanishlari tabiatini belgilash, mustaqillik davri o'zbek nasri taraqqiyotida tutgan o'rni va ahamiyatini kuzatish bir yo'la ijodiy individualligini ochish imkoniyatini beradi. Shunisi e'tiborliki, N.Eshonqulning badiiy izlanishlari ramzlarga asoslangan tafakkur tabiatini darj etish bilan barobar mustaqillik davri o'zbek

² Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. Adabiy asar. I jild. – T.: Fan, 1978. – B . 21.

nasri taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqlikda zohir bo‘layotir. N.Eshonqul ijodi istiqlol davri nasri kamolida salmoqli o‘rin tutishi bilan birga realizm ijodiy metodining adoqsiz imkoniyatlarga ega ekanligidan ham dalolat beradi.

N.Eshonqul hikoyalarda («Maymun yetaklagan odam», «Zulmat saltanatiga sayohat», «Tobut», «Ozod qushlar» va h.k.) shaxs konsepsiyasining badiiy talqin xususiyatlarini mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-madaniy hayotining kechish jarayonlari bilan aloqadorlikda o‘rganmaslik mumkin emas. Bunda insonning jamiyatga, ijtimoiy voqelikka, atrof-tevaragidagi muhitga, odamlarga munosabati asarning asosiy diqqat markazida turadi. Yanayam muhimi, shaxsning jamiyatga, o‘zi bosib o‘tgan hayot yo‘liga, ijtimoiy-siyosiy voqelikka munosabati orqali yuzaga kelayotgan ko‘ngil erki, tafakkur hamda tuyg‘ular erkinligi, e’tiqod va ezgulik, ma’naviy go‘zallik masalalari adib izlanishlarida ustivor mavqe kasb etadi.

Inson o‘z tirikligidan, yashagan umridan, ortda qolgan hayoti sahifalaridan qanoat hosil qilsa, tirikligining oydinligi ham shunda. Ne taassuf va ne fojiaki, rassom chol o‘z umridan, hayotidan mammun emas. «E’tiqod qo‘yib, shunga ishonib, kurashib, yonib-kuyib yashasang-u, bir kuni e’tiqod qo‘ygan narsangiz puch, yolg‘on va puflab shishirilgan sharday omonat, siz ezgulik deb sig‘ingan narsalar asli razolat ekanini anglab qolsangiz, bunday demasingiz: ana shunda umringiz yomonlik bilan yaxshilikning farqi qolmagan xuddi yo‘ldan chiqib ketgan shaldur-shuldir, bo‘m-bo‘sh aravaga aylanardi. Siz esa bo‘shliqni to‘ldirish va aravaga nimadir yuklash uchun har qanday yovuzlikdan ham qaytmasdingiz. Shumi e’tiqod?!» (o‘sma manba, 128- bet).

Hikoyadagi fojeiy ma’noning tabiat shundan iboratki, rassom cholning yolg‘iz tirikligi chirigan daraxtning yolg‘izligini eslatadi. Uning hayoti shunday qabohatlarga, yolg‘on, razolatlarga limmolimki, oqibatda, u hech kimga va hech narsaga ishonmay qo‘ygan. Mavhum hayoti ortidan sizib chiqqan yolg‘izlik, ishonchsizlik cholning uzoq kechgan tiriklik kunlarini ma’nisizlikka chiqarib, qorong‘ulik bilan qoplayapti. Yorug‘likka esh, odamlarga, jamiyatga va o‘ziga o‘zi rost kechgan hayot tabiiy go‘zallik timsolidir. Tabiiylik, tabiiy go‘zallik insonga qancha huzur-halovat, oydinlik

ato etsa, sun’iylik, soxta va yolg‘on shunchalik sovuq, yoqimsiz tuyuladi. Zero, jonsiz, hissiz, hidsiz bo’lsa-da, qog‘oz gullardan shilta, chirkin hid gupullab dimog‘ini kuydiradi. Inson ham odamiylikdan ko‘z yumib, qalbini jilovlashga, haqiqatdan yuz o‘girishga borib etsa, odamiylik tuyg‘ulari o‘rnini sun’iy, aldamchi hislar egallashi aniq. Unday kimsa esa, niqobli odamga o‘xshaydi. Sirtdan o‘zini ilmli, mulohazali, muloyim ko‘rsatishga urinmasin, o‘sha tund va qorong‘u qiyofa ortida chirkin, aldamchi, sun’iy, munofiq olam yashiringanini darrov ilg‘ab olish qiyin emas.

Rassom chol bir umr surat chizadi. Lirik personaj sifatida hikoyada ishtirok etayotgan adibni umr shomida chizilgan surat ko‘proq qiziqtiradi. «Sariq matoni nihoyat topdim va uning yuzidagi qog‘ozni yulib olib shosha-pisha suratga tikildim. Ko‘zimga nihoyatda tiniq ranglar lop etib urildi – bu surat qirq yil ichida chizilgan mahzun suratga o‘xshamas edi. Men rasmdagi manzaradan bir nafas tang qoldim; suratda xuddi birinchi rasmdagi o‘rmon aks ettirilgan edi. Faqat bu suratda maymun umidsiz ko‘zlariga g‘am cho‘kkani, yuz ko‘zida hayotdan nishona qolmagan munkaygan bir cholni o‘rmon sari yetaklab ketardi» (o‘sha manba, 131-bet). Darhaqiqat, adibning o‘zi ta’kidlaganidek, «ramz – vogelikning timsolidir. Vogelikning aynan o‘zi go‘zal emas, uning timsoli go‘zaldir. Illo tosh emas, toshga yo‘nilgan xayol go‘zal. Adabiyotning ilohiy kuchi – ana shu xayolni yarata olishda ko‘rinadi. Ijod yaratishdir. Yaratish esa, ilohiyotga daxldorlikdir. Yaratish zavqi barcha zavqdan, yaratish azobi barcha azobdan yuksakroqdir. Go‘zallik yaratish esa – bu ilohiyotni charxlashdir».¹ Ko‘rinadiki, so‘z san’atining, realistik tasvir madaniyatining asosiy tili, bu – ramz ekan.

Inson ham moddiy, ham ma’naviy jihatdan bashariy qadriyatdir. Uning ruhiy olami ham ana shunday benazir mohiyatga ega. Badiiy ifodaga ko‘ra, rassom chol haqida, uning fikrlari, o‘ylari, kechinmalari haqida so‘z ketsa-da, hikoyaning g‘oyaviy-badiiy yo‘nalishi yaxlit bir o‘zanga, nishabga ega. Xususan, cholning

¹ Eshonqul N. Ijod qudrat, go‘zallik, ilohiyotga daxldorlikdir // Milliy tiklanish. 1998-yil. 19-may.

ko‘nglini o‘rtagan alamlari biz – o‘quvchilarning ham vujudimizda og‘riq sifatida anglashiladi.

N.Eshonqul ijodi, xususan, hikoyalarining diqqatga sazovor tomoni shundaki, adib o‘z qahramonlariga bergan ismi yoki qahramonlariga ism bermasligi bilan ham katta ramziy va falsafiy mulohazalarni ilgari suradi. Kitobxonni ham bu xususida kengroq fikrlashga undaydi. Adib ijodidagi mazkur xususiyatga munosabat bildirar ekan, adabiyotshunos olim, tanqidchi U.Normatov shunday yozadi: «Yana bir muhim jihat. N.Eshonqulning bu tur hikoyalarida qahramonlarning nomi yo‘q - ular faqat «u» yoki hayotda amali, kasb-hunari nomi bilan «Kotib», «Qorovul», «Me’mor» deb yuritiladi. Insonning ichki va tashqi qiyofasini chizishda anchagina tajriba orttirgan muallif bu xil personajlar tasviriga kelganda bir qarashda hafsalasizlik qilganday taassurot qoldiradi. Aslida esa shu xil «hafsalasizlik»dan muayyan maqsad bor: hikoya personajlari bema’ni, shafqatsiz hayot tazyiqi ostida shu hayotdan begonalashgan, shaxsini, insoniy qiyofasini yo‘qotgan yoki yo‘qotayozgan kimsalardir».² Darhaqiqat, adib ijodidagi bunday qahramonlar taqdiri va talqini orqali har xil davrlarda inson shaxsiga bo‘lgan munosabat va uning oqibatlari haqida qayg‘urar ekan, umuminsoniy muammolarni ilgari suradi.

Adib ijodidagi, xususan, «Maymun yetaklagan odam» hikoyasida keng palak yozib, chuqur ildiz otgan mazkur xususiyat mustaqillik davri hikoyachiligidagi yorqin ko‘rinish kasb etdi. N.Eshonqulning hikoyalarida kuzatilganidek, qahramon psixologiyasini chizish, ruhiy manzaralarning fikrga yo‘g‘rilgan suratlarini yaratish adib ijodiy individualligining bosh belgisiga ham aylangan. Zero, keyingi yillardagi badiiy tajribalarida («Shamolni tutib bo‘lmaydi», «Tobut», «Xaroba shahar surati», «Ozod qushlar», «Muolaja» va h.k.) psixologik tahlilning o‘ta murakkab shakli ustuvor. Xususan, «Shamolni tutib bo‘lmaydi» hikoyasida Bayna momo ruhiyati manzaralarini tashkil etgan musibat, iztirob holatlari nafaqat o‘z o‘y-fikrlari bilan, shuningdek, o‘z falsafiy ma’nolari bilan zohir bo‘ladi.

² Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – T.: Ma’naviyat, 2000. – B. 9.

Ramzli ma'nodorlik kasb etayotgan badiiy talqinning bosh xususiyati shundan iboratki, u ko'ngil masnadidan boshlanib ko'ngil ostonasiga kelib tushyapti. Insonni otish, o'ldirish, yo'q qilish (Rayim polvon bilan o'g'li) hech gap emas, lekin uni ezgin-ezgin xotiralardan mosuvo etish, ayirish aslo mumkin emas ekan. Ko'ngil yolg'iz bandasiga berilgan. Ko'ngil – bandasining (Bayna momo) yolg'iz saltanati. Ko'ngil – momoning hech kim daxl qila olmaydigan ganjinasi, taxti ravoni bo'lib, hech bir nokas oyog'i tugul nigohi ham tushmaydigan bog'i-bo'stoni. Shu paytgacha inson jamiyatning guli, hayotning ziynati, deb kelingan bo'lsa-da, bular aslida shunchaki yaltiroq gaplar ekan. Negaki, Bayna momo taqdiri bu taxlit mafkuraviy yondashuvlarni, mafkuraviy chuchmal baholarni butkul inkor etayotir. Inson hayot va tabiat quchog'ida, g'uj-g'uj odamlar orasida ko'ngli siniq, yolg'iz, tushkun bir alpozda tiriklik tarzini o'tkazishi ham mumkin ekan.

Bayna momo yolg'izlikni o'z ixtiyori bilan tanlagani yo'q. Bolshovoylar – sho'ro jamiyati uni so'qqaboshlikka, bu hayotdan umidsizlikka giriftor etdi. Sho'roviyilar tuzumi uning kelajagini qonga botirdi. Lekin momo ma'nan va jisman ojiz bir kimsa emas. Ko'nglida turmush, tiriklik uning oldiga qo'ygan inson sha'ni va qadrini, yorug' xotirasini pokdomon saqlashdek murakkab masalalarga javobi bor. Bu – eri va o'g'lining qotili Zamon otboqardan o'ch olish. Mazkur asarda ham badiiy tasvirning xolis va obyektiv mohiyati o'quvchini o'ylashga, fikrlashga undaydi. Mazkur xususiyat Bayna momo taqdiri misolida hayot haqida, voqelik to'g'risida mushohadalarga berilish fikriy teranlikning kuchayishiga olib kelgan. Nazar Eshonqul talqiniga ko'ra, dunyo boqiy, hayot abadiy, tabiat fasllarining almashinib turishida inson umrining o'tkinchiligi anglashilsa-da, inson hayoti chegaralangan emas. Shu boisdanmi, tabiatdagi o'tkinchi daqiqalar bilan Bayna momo ko'nglidagi tuyg'ular evrilishi adib diqqatini ko'proq o'ziga tortadi. Kun va tunlarning almashinishi, tabiat fasllarining (qish, bahor, yoz, kuz) tadrijiy joy talashib turishida baqoning bebaholigi anglashiladi. Tabiat fasllariga, borliqning jonli lahzalariga munosabatdan, odamlar bilan muomala-muloqtlardan yuzaga kelgan nafrat, o'kinch, alam, kabi tuyg'ularning turfa ko'rinishlari ham Bayna momo ruhiyatidagi kechimmalar ma'nosidan voqif etadi.

Ko‘rinadiki, Sh.Xolmirzayev, N.Eshonqul, X.Do‘stmuhammad hikoyalari tahlili misolida kuzatilganidek, har bir ijodkor ramzlarga burkangan badiiy nigohi bilan ham alohida xususiyatlarga ega. Xusan, insonni tushunish hamda tushuntirishida, g‘oyaviy-badiiy izlanishlarning o‘zak mohiyatini tashkil etgan – inson va uning tabiatga, jamiyatga, odamlarga bo‘lgan munosabatini badiiy-estetik o‘rganish jarayonida adiblarning o‘ziga xosligi ham, bir-birlaridan farqlanishi ham ochiq-oydin ko‘rinadi. XX asr oxiri, XXI asr boshlari o‘zbek hikoyachiligi taraqqiyot tamoyillarining falsafiy-psixologik asosida adiblarimizning nechog‘lik individualligi, o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turishi barobarida ular ijodida mushtarak jihatlarini ham ko‘rishimiz mumkin. Bu borada adiblarimizning insonni badiiy idrok etishi va ifodalashi bizga ko‘mak beradi.

Demak, Sh.Xolmirzayev hikoyalarida («Ozodlik», «Tanhilik») qahramonlarning (Mansur, musiqa muallimi, direktor muovini, qorovul chol) tabiatga va jamiyatga munosabati, erk – Ozodlikni qay tariqa tushunishi va baholashi tarzida talqin qilinadi. Shu ma’noda, tiriklikning ma’nosи va umrning mohiyati xususidagi o‘ymushohadalar inson sha’nining falsafiy asoslarini badiiy tadqiq etish yetakchilik qiladi. N.Eshonqul hikoyalarida kuzatilganidek, inson fe’l-faoliyati orqali namoyon bo‘lgan odamiylik va g‘ayriinsoniylikning ijtimoiy- psixologik omillarini darj etish ustuvor xususiyat hisoblanadi. Shu bilan barobar Sh.Xolmirzayev, N.Eshonqul va X.Do‘stmuhammad hikoyalarida shaxsga munosabatda ko‘p jihatdan bir-biriga ancha yaqinlik bor. Bu narsa tabiatni his qilishda, tabiatga munosabatda – shaxsning ko‘ngil hurriyati masalasida, ma’naviy go‘zallik vaadolat tushunchalari talqinida, ushbu ezgu tuyg‘ularni qaror toptirish uchun yashash va kurashida seziladi. Bu xususiyat, shaxs o‘zini bu hayotning ongli a’zosigina emas, balki bu dunyoni yanada go‘zallashtiruvchi betakror xilqat ekanligini, jamiyatda ezgulikni,adolatni qaror toptirishda shaxssiz aslo mumkin emasligini chuqur anglab yetgan asnlarda namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga N.Eshonqul izlanishlarida ko‘zga tashlanganidek, qahramonlarning qalb tarixini, tuyg‘ularining po‘rtanavor holatlari manzarasini yaratish orqali jamiyat psixologiyasini ochishga asosiy diqqat-e’tibor qaratiladi.

X.Do'stmuhammad esa shaxs qalbidagi tuyg'ular, kechinmalar takomiliga, tadrijiy holatlariga ko'proq urg'u beradi.

Sh.Xolmirzayev, N.Eshonqul va X.Do'stmuhammad hikoyalarida kuzatilgan, shaxsni tushunishi hamda tushuntirishini badiiy aks ettirishdagi ramzli ma'nodorlik jihatidan mushtaraklik mavjud. Ular bugungi o'zbek hikoyachiligidagi falsafiy-psixologik tahlil madaniyatining yangi sifat o'zgarishini belgilab bermoqda. Yana shu narsani ta'kidlash joizki, Sh.Xolmirzayev, N.Eshonqul, X.Do'stmuhammadlarning insonni badiiy o'rganish hamda aks ettirishlaridagi izlanishlari mustaqillik davri o'zbek nasrida realistik tasvir madaniyatining taraqqiyot tamoyillarini ham o'zida mujassamlashtiradi. Ushbu adiblar hikoyalaridagi shaxs o'zining insonparvarlik fazilatlari bilan hozirgi mustaqillik davri kishisining ma'naviy-intellektual ruhiyatini tarbiyalashda faol xizmat qila olishi bilan ham e'tiborlidir.

Qolaversa, ayni mana shu davr o'zbek hikoyachiligidagi ruhiy hamda faoliyat tasviri ancha murakkablashdi. Bu murakkablik inson ichki dunyosining nihoyatda chigal va yetib bo'lmas puchmoqlarini ochishga intilish bilan bog'liq holda yuzaga keldi. Til bilan ifodalab, ko'z bilan ko'rib, qulqoq bilan eshitib bo'lmas ruhiy holatlarni o'quvchiga aniq, ta'sirchan yetkazishda adiblar ramziy tasvir hamda talqinga murojaat etdilar. Bunday ramziy tasvir va ifodalar esa hikoyalarning mazmun hamda shakl uyg'unligida inson ruhiyatiga chuqurroq nigoh tashlashga imkon bermoqda.

2.3. Umuminsoniy qadriyatlar talqinida ijodiy individuallik.
«Jamiyat taraqqiyotining evrilish bosqichlarida bashariy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar hamisha takomillashib boradi, sifat jihatdan o'zgarishlarga uchraydi. Bu davr va jamiyatning axloqiy mezonzlari haqidagi tasavvur va tushunchalar, munosabatlari o'zgarishi demakdir. Jamiyat hayotidagi, odamlar ma'naviyatidagi shu taxlit sifat evrilishlari jarayonini aks ettirish, ana shu holatlarning botiniy haqiqatlarini badiiy tajassum etish adabiyotning, so'z san'atining hamisha dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Shaxs ma'naviy-axloqiy hayotining murakkab jihatlarini, nozik va qorong'u

qirralarini yoritish madaniyati adiblarimiz zimmasidagi vazifadir».¹ Yozuvchi Sh.Xolmirzayev «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasining muxbiri bilan o‘tkazgan suhbatida ham ushbu masalaga alohida urg‘u beradi. «Komil inson orzusi» mavzusidagi suhbat badiiy adabiyotning ibrat yaratish mas’uliyati haqida kechgan.

Darhaqiqat, adabiyot o‘z davri uchun ham, kelajak uchun ham hamisha ma’naviy saboqlar, badiiy hikmatlar namunasi bo‘lib kelgan. Ijodkorlarning qahramonlari fe’li-faoliyatiga singdirilgan badiiy-estetik g‘oyalar, ma’naviy-axloqiy va falsafiy ma’nolar o‘quvchilar aql-u shuurini charxlab keladi. Shu boisdan ham ming-ming yillar burun yaratilgan badiiy tafakkur namunalari ruhiy go‘zallik obidalari sifatida o‘quvchilarning ma’naviy-intellektual dunyosini oziqlantirib, boyitib keladi. Bu shubhasiz, ma’naviy-axloqiy, intellektual umumbashariy qadriyatlardir.

Shaxs erki, Vatan ozodligi ham ana shunday umumbashariy masalalar silsilasida muhim o‘rin tutadi. «Adabiyotning xalqchilligi ko‘pincha unda mehnatkashlarning ozodlik uchun kurashiga munosabatida namoyon bo‘ladi»,² degan edi I.Sulton. Zero, hayotni xalq manfaatlari, orzulari va jamiyatning taraqqiyoti nuqtayi nazaridan aks ettirish – adabiyot xalqchilligining bosh alomatidir. Mazkur xususiyat insoniyat tarixinining barcha davrlarida yaratilgan go‘zal badiiyat namunalarining ustuvor qonuniyati sifatida ko‘zga tashlanadi. Aytish joizki, «Xalqchillik adabiy tur yoki janrga qarab emas, balki asarda xalq ruhining go‘zallik haqidagi xalq tushunchasining aks etishiga qarab belgilanadi».³

Adib Sh.Xolmirzayev badiiy adabiyotning mazkur xususiyatiga urg‘u berib yozadi: «...ul madad ikki yo‘nalishda bo‘ladi. Birinchisi, va sinovlaridan o‘tgan yo‘li shundaki, adabiyot kelajak avlod ibrat namunalarini yaratishi mumkin. Eslaymizmi sho‘ro zamonidagi «ibratlar»ni? Sho‘roga jonini tikkani ko‘zi ojiz holda ham xizmat qilishni tark etmagan Pavel Korchaginni? Sho‘ro g‘oyalariga giriftor bo‘lgani uchun o‘z otasini sotgan Pavel Morozovni? Yoxud «Yosh gvardiya» romanidagi firqaviy yoshlarni...

¹ Щербина В. Наш современник. Концепция человека в литературе XX столетия. – М.: Сов. писатель, 1964. – С. 339.

² Adabiyot nazariysi. Ikki jildlik. Adabiy asar. I jild. – T.: Fan, 1978. – B. 28.

³ Yuqoridagi manba. – B. 35.

Ko‘nglimizning qayeridadir ularning harakatlaridagi notabiyylikni his etib turgan esak-da, ularga taqlid qilmaganmiz, desak – yolg‘onchi bo‘lamiz. Ollohga hamd-u sanolar bo‘lsinki, o‘sha notabiyyiklar ma’nosiga yetdik va aniqladikki, bizni o‘sha zamon adabiyoti durustgina aldagani ekan. Adabiyotning quvvati zo‘r. U seni yo‘ldan ozdirishi ham, seni eng to‘g‘ri yo‘lga boshlashi ham mumkin ekan.

Ikkinchisi ushbudir: illo, bu ham hadsiz sinovlardan o‘tgan va deyarli ko‘pchilik dunyo adiblari uchun dastur bo‘lgan yo‘l-yo‘nalishdir. Ya’ni, ibrat bo‘lolmaydigan, balki ibrat aksi bo‘lishi mumkin bo‘lgan insonlarni-da ko‘rsatish – asarlarda aks ettirishdir. Bu yo‘l aksari adiblar yo‘lidirki, sho‘ro davrida man etilgan edi».¹ Darhaqiqat, sho‘ro davri adabiyotida faqat ijobjiy xislatlarga ega bo‘lgan kishilargina adabiyot qahramonlari etib tanlanar, salbiy xususiyatlarga ega kimsalar esa ibrat belgisi bo‘lishi mumkin emas edi.

Mustaqillik davriga kelib adabiyot bilan hayot o‘rtasidagi temir hadlar bartaraf etildi. «Bugunning qahramoni kim?» maqolasida adabiyotshunos N.Rahimjonov bu borada keng mushohada yuritadi. U yozadi: «Axir, inson onadan o‘g‘ri yoki firibgar, akademik yoki vazir, tadbirkor yoki fazogir yoki fermer bo‘lib tug‘ilmaydi-ku. Uning kelgusida kim bo‘lishi, qanday mo‘jizalar yaratishi yoki nayrangboz-fitnachiga aylanishi Olloh taolodan bo‘lak jamiki tirik jonlar uchun qorong‘u. Bir so‘z bilan aytganda, inson o‘zi o‘sibungan ijtimoiy muhit bilan hayotiy sharoitning mevasi. Azaldan unga berilgan xususiyatlar faoliyati davomida fazilat yoki illat sifatida zohir bo‘ladi. Badiiy-fikrning mo‘jizokorligi shundaki, u shaxs va jamiyat siyrati bilan suvratini bir mag‘izning ikki bo‘lagi sifatida aks ettira olsagina, o‘z davrining bosh qahramoni bo‘lib qoladi».¹

Ko‘rinadiki, bugungi hikoyachiligimiz qahramonlari tabiatidagi, fe’l-atvoridagi bashariy mazmun kasb etuvchi xislat-xususiyatlar ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘zga tashlanadi. Bu borada, insonni

¹ Xolmirzayev Sh. Komil inson orzusi // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 2001-yil, 19-yanvar.

¹ Rahimjonov N. Bugunning qahramoni kim? // O‘zbek tili va adabiyoti. 2001-yil. – № 6. – B. 11.

ko‘rish, tushunish hamda badiiy tadqiq etishda ikki tamoyil ko‘proq ko‘zga tashlanayotir. Birinchidan, jahon badiiyati tajribalari, xususan, «inson – olam bezagi», «inson – hayot gultoji» degan estetik kredo yangi voqelik mohiyati bilan uyg‘unlikda davom ettirilayotir. Illo, inson hayot bezagi, yorug‘ olam chechagi bo‘lishi bilan barobar, u yangi voqeliklarni yaratuvchi, jamiyat tartiblarini o‘zgartiruvchi, buniyod etuvchi, hayotga va jamiyat voqeligiga faol ta’sir ko‘rsatuvchi katta va qudratlil ijtimoiy kuchdir. Shu ma’noda, insonning o‘zi ham umumbashariy qadriyatadir.

Ikkinchidan, inson shaxsiga, ijodiy yaratuvchilik imkoniyatlariga bo‘lgan ishonch millat kelajagiga hur vatan istiqboliga ishonch tuyg‘ulari bilan chatishib ketadi va yaxlit bir mujassamlashgan holatda XXI asr boshlari, mustaqillik davri kishilarining ma’naviy-intellektual qiyofasini belgilab beradi. Bu holat, avvalo, mustaqil millat kishilarining, hurriyatga erishgan Vatan hayotining ma’naviy-madaniy hamda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida tutajak alohida o‘rin va roliga nisbatan ko‘rsatilayotgan ishonch tuyg‘usidir. Bu narsa adiblarning millatsevarlik qarashlaridan, nuqtayi nazarlaridan yuzaga chiqayotgan esa-da, mazmun-mohiyatiga ko‘ra umuminsoniy asosga – ahamiyatga ega. Zero, insonning bashariy qadriyatlarni qaror toptirishdagi roli, xizmatlari hech qachon tor-biqiq va bирyoqlamalikka ega bo‘lgan emas, bo‘lmaydi ham.

Shu bilan barobar, yana bir muhim ta’kidlanadigan jihat shundaki, shaxs erki, fikr va ko‘ngil hurriyati barcha zamonlarda, barcha xalqlar uchun birdek aziz. U insoniyat tarixida benazir bashariy qadriyat bo‘lib kelgan. Negaki, erk,adolat, ezzulik, ma’naviy go‘zallik va intellektual boylik hech qachon, hech bir zamonda irq va millat tanlamaydi. Barcha xalqlarning zulmga, zo‘ravonlikka, istibdodga qarshi kurashi o‘z hurriyatini, millati ozodligi va Vatan mustaqilligini poydor etishga qaratilgandir. Bularning hammasi insonga mehr-shafqat, muruvvat va muhabbat ko‘rsatish zamirida gumanizmning hayotbaxsh qudratini tasdiqlaydi. Insonni badiiy anglash va aks ettirish borasida realizm metodining imkoniyatlari nechog‘lik kengligini, boyligini ham namoyish qiladi.

Shu ma’noda, Sh.Xolmirzayevning «Quyosh-ku falakda kezib yuribdi», «Mangu yo‘ldosh», N.Eshonqulning «Shamolni tutib

bo‘lmaydi», S.Vafoning «Ko‘ngil farishtasi», «Kun kechayotgan odam», «Tutilgan oy» hikoyalari fikrlash uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ushbu asarlarning o‘zaro ruhan yaqinligi ma’naviy-axloqiy masalalar ustuvorligi bilan belgilanadi. Yana insonni badiiy tasvirlashdagi individual tafakkur tabiatining ijodiy yo‘sini bilan ham xarakterlanadi. Qolaversa, realizm metodi tabiatidagi xilma-xil individual uslublarning bir-birini kamol toptiruvchi, ijodiy boyituvchi o‘zaro hamkorligidan, ijodiy ta’siridan ham shahodatlik beradi.

Inson hamisha hayotni ezgulik, adolat, go‘zallik singari bashariy qadriyatlar mezoni asosida ko‘rishga va qurishga intiladi. Lekin ne hayratki, odam – xom sut emgan banda, qilmishi uning fe’lida yashirin. S.Vafo hikoyalarining qahramonlari oddiy kishilar, ular favqulodda yoki g‘ayri shuuriy xislat-xususiyatlar sohibi emas. «Kun kechayotgan odam» hikoyasining qahramonlari ham shu kunning odamlari. Ozod va uning xotini Oysulton, sinfdoshi Shermamat, Oysha. Hamma narsa ana shu to‘rtlik oralig‘ida kechadi. Ozod bir tomonidan, shaxsiy hayoti, ikkinchi jihatdan esa hayotda omadsizligi sababli ichkilikka ruju qo‘yadi. Kasbi shofyor, uning do‘sti esa raykomda ishlaydi. Yo‘g‘on bo‘yinbog‘ taqib, hamisha orasta yurishiga qaramay, burni ko‘tarilib, gerdayib ketmagan. «Sadoqatli, aroqxo‘r jo‘rasidan jirkanmadni, sinfdoshligicha qoldi». «Ko‘p ichadigan bo‘lib qolgan emish. Xo‘p, ichsa nima bo‘libdi, birovning kissasini kesib, yetim-yesirlarning haqini yeb ichayotgani yo‘q-ku. Ichsa o‘z puliga ichdi, oyda bir ichdi, jo‘rasi bilan ichdi, ko‘ngil tortar do‘stlari bilan to‘ylarda ichdi. U ichadigan odam bo‘lgani bilan iyemoni butun, yo hazrati Dovud, yo pirim deb mashinasiga o‘tiradi. Birovning moliga ola qaramadi, haromning kissasiga ko‘z tikmadi. Hey enasini... hammasini! Tanasida dard bo‘limganidan so‘ng bir kosa zaqqumiga ichsa, Ozod Ozodvoy bo‘lmay qolibdimi? Kim yomon, to‘qson so‘m maoshiga aroq olib ichadigan Ozodvoy yomon. Kim yaxshi, ichsa cho‘ntagi ko‘taradigan boyvachcha yaxshi. Yumush bo‘lsa, Ozodvoy yaxshi. Ey ko‘rgan kunlari qursin, dunyosiga o‘t tushsin. Hayot shunday-da,

birov – qimor o‘ynaydi, birov nos chekadi, birov jononlar bilan o‘ynashadi».¹

Agar, N.Eshonqul, X.Do‘stmuhammad hikoyalarda insonni badiiy idrok va ifoda etishda ramzlar asosiga qurilgan timsolli tafakkur tabiatи yetakchilik qiladigan bo‘lsa, S.Vafo izlanishlarida ham realistik ibtido ustuvor. Adibaning ijodiy yo‘siniдagi realistik idrok tarzi inson tuyg‘ulari ifodasidagi haqqoniylilikni, psixologik aniqlikni, konkretlikni asoslaydi. S.Vafoning mustaqillik davridagi hikoyalari badiiy-estetik ahamiyatiga ko‘ra, XX asrning 80-90-yillardan ancha farqlanib, sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarildi. Xususan, bu narsa insonni ko‘rish va ifodalash imkoniyatlarining kengayganidan, yangi ma’nolar va g‘oyalar ila boyiganligidan nishonadir. S.Vafo insonning murakkab ichki dunyosi evrilishlarini, ruhiy qiynoqlari hamda iztiroblarini xolis va ishonarli tarzda ko‘rsata olganligi bilan e’tiborlidir. Demak, yuqoridagi badiiy tajribalar misolida aytish mumkinki, «...xalqchillik tarixiy kategoriyadir. Uning barcha davrlar uchun bir xil bo‘lishi mumkin emas...», «...millatning ma’naviy-intellektual ravnaqiga xizmat qiladigan yangi g‘oyalargina xalqchillikni ta’minlaydi».²

Adiba ishq va vafo, muhabbat va xiyonat singari boqiy mavzularni qalamga olgan. Garchand mavzu an’anaviy bo‘lsa-da, uning badiiy yechimidagi ma’no o‘zining yangicha tabiatи bilan ajralib turadi. Ishq-muhabbat, insonning tuyg‘ulari, fikrlari shaxs erkinligining o‘ziga xos ko‘rinishlaridan biri sifatida talqin etiladi. Do‘stlikka, muhabbatga xiyonat esa ko‘ngil hurriyatining oyoqosti etilishi bilan barobar ko‘rgulik, baxti qarolik tarzida tushuntiriladi. «...Jo‘rajonisi Shermamat Ozodvoyning dunyoda yolg‘izi, boqqan kunduzi, suyangan tog‘i, ishongan bog‘i, xotini Oysultoniga, sultonlar oyiga ko‘z olaytirdi-ya!» (o’sha manba, 54-bet). Ozodvoy o‘zini ichib, «uchib» uxlab qolgan holatga soladi. Shermamat ham xuddi shuni kutib turganday oshxonaga, Oysulton yoniga otiladi... Agar dunyoda muhabbat degan narsa bor bo‘lsa, insonning insonga bog‘langani, odamning odamga kerakligi rost bo‘lsa, Oysulton hozir baqirar, meni yordamga chaqirar deb o‘yladi. Lekin bu narsalar ro‘y

¹ Vafo S. Ko‘ngil farishtasi. – T.: O‘qituvchi, 1999. – B. 52-53 (qolgan misollar ham shu manbadan olinadi).

² Adabiyot nazariysi. Ikki jiddlik. Adabiy asar. I jild. – T.: Fan, 1978. – B . 29.

bermadi; dunyoning qaynab yotgan burchaklaridan ham nido kelmadi, vafo devorlari, muhabbat qo‘rg‘onlari Layli va Majnun zamonidan so‘ng qurigani, Shohsanam va G‘arib hijronlaridan so‘ng qulab bitgani... bilindi. Shunda u ichidagi shaytonga qo‘shilib, bo‘ronday ko‘chirib, dovulday o‘kirib, yigitligining zo‘r kunlaridan yodgor – devordagi miltig‘ini o‘qlab, yelkalab oshxonaga kirib bordi. O‘zining uyida, do‘stu dushman bilan tuz-namak bo‘lgan xonadonda, jonining og‘rig‘i – Oylar sultonni, sultonlar oyining bir mal‘unning qo‘ynida ilonday to‘lg‘onayotganini, oqshomgi shamday eriyotganini ko‘rgancha qora ko‘zları oqib tushib, ilonlarga yem bo‘lsa bo‘lmasmidi-ya» (o‘sha manba, 55-bet).

Inson tirikligining tonglari-yu shomlariga, quvonchi-yu tashvishlariga, muhabbati-yu xiyonat, razolatlariga hamdardlik, hayotning barcha zil yuklarini, mashaqqatli sinovlarini yengib o‘tishlik hamda odamlar ko‘ngliga faqat yorug‘lik mehrini, yaxshilik urug‘ini ko‘chirish adiba hikoyachiligidagi yetakchi g‘oyaviy mazmundorlikni belgilaydi.

Jamiyat hayotidagi ma’naviy-axloqiy noqisliklar, illatlar eng ko‘p darajada urchib, har qanday rivojlanishning beliga tepadi. Zero, xoh ijtimoiy-iqtisodiy, xoh ma’naviy-madaniy taraqqiyotning asosini insonning ruhiy komillik xususiyatlari belgilab beradi. Qachonki shaxs ma’nан va axloqan, intellektual jihatdan komillik xislat-fazilatlari bilan ziynatlanmas ekan, o‘sha jamiyat axloqsizlik botqog‘iga botib qolaveradi. Qolaversa, ma’naviy-intellektual, aqliy xislat-xususiyatlar barcha xalqlar hayotida tansiq va bebahoz fazilat sifatida e’zozlanadi, qadrlanadi.

Ma’nan va aqlan rasolik barcha zamonlarda va barcha xalqlar tomonidan ko‘zlarga to‘tiyo etgulik qadriyat tariqasida e’zozlanib kelinadi. «Kun kechayotgan odam» hikoyasida kuzatilganidek Shermamat do‘stlikka, Oysultonning esa muhabbatga, oilaga xiyonat qilishi Ozodni qotillikka olib keladi. Adiba psixologik analizning lirik e’tirof-tahlil yo‘lini tanlaydiki, biz Ozod ruhiyatida kechayotgan to‘fonlar girdobidan chetda qololmaymiz. Hikoyadagi voqealar kechish tarziga ko‘ra, Ozod Shermamatni otib tashlaydi, g‘azab-nafrat alangasi og‘ushida Oysulton o‘rniga sinfdoshi-mehrdoshi Oyshani o‘ldiradi. U qotillik sodir etdi. U o‘z qilmishiga ko‘ra jazolanishi kerak.

Lekin, o‘quvchi Ozodni axloqsizlikda ayplashga botinmaydi, ko‘ngli ham chopmaydi. Negaki, u o‘z yigitlik sha’nini, oila qadriyatini, muhabbat erkini himoya qiladi. Ma’naviy-axloqiy tubanlikka qarshi kurashadi, tuyg‘ular to‘fonida, qalb isyonida odam o‘ldirib qo‘ygan bo‘lsa-da, biz uni qoralab, unga nisbatan nafratimizni socha olmaymiz. Garchand u ichkilikka mukkasidan ketgan piyonista, ko‘p narsaga qo‘li qisqa bo‘lsa-da, o‘zini-o‘zi shu alpozga giriftor qilgan emas. Jamiyat tartiblari, odamlarning bir-biriga mehrsizligi, e’tiborsizligi insonni har kuyga giriftor qilarkan. Agar Ozod kuni maoshga tikilgan, moyga botgan, egni – boshidan moy anqib yotgan oddiy bir shofyor bo‘lsa ham oilasiga, o‘z umr yo‘ldoshiga tuzukroq e’tibor bergenida, o‘z shaxsiyati va qadr-qimmati uchun kurashganida xotini Oysulton ham xiyonatga toyib ketmasmidi. Uni xiyonat ustida qo‘lga tushirganda, «Voy-dod, o‘ldirdi? Do-od, bu piyonistaning dastidan kunim bitdi» – deya chinqirmas edimi?!

Adibaning badiiy mahorati shundaki, u odamning ichidagi ana shu kabi tuyg‘ularning ma’nosini, g‘ayriinsoniy kechinmalarning rangini suratlantira olgan. Shu tariqa odam deb atalgan xilqatni anglash, bilish shunchalik mushkul ekanligini Ozod taqdiri misolida, qahramonlari (Shermamat, Oysulton, Oysha, Ozodning onasi) qismati asosida aks ettirishga erishgan. Yo‘qsa, o‘z onasi ham Ozodni anglamay, tushunmay qolganligini nima bilan izohlash mumkin? «Orzu tobora bo‘g‘ib kelayotgan qichqiriq va qarg‘ishlardan qochmoq niyatida, o‘zini so‘nggi umid va najot yo‘li deb bilgan eshikka urdi. Ostonada ust-boshi bir xil daladan endi kelayotgani bilinib turgan onasi bilan to‘qnashib ketdi. Uning ortidan bir yorug‘ kun ko‘rish orzusida kun-u tun Xudoga iltijo qilib yashaydigan hayot panohi – onasi nola chekib yubordi.

– Og‘zingdan qoning galsin-ey, bolam!!» (o‘sha manba, 55-56-betlar). Hikoyadagi ruhiyat tahlilining obyektiv-xolisligi bois o‘quvchi qahramonlar fe’l-faoliyatining birontasini ham ayplashga, qoralashga botinmaydi. Boisi, ular (Shermamat, Oysulton) xiyonatda ham o‘ziga haqdek, o‘z xatti-harakatlarini oqlaydigan, asoslaydigan haqiqatlari bordek tuyuladi. («Qozon ochiq qolmasa, it yaqin kelmaydi» o‘sha manba, 56-bet). Agar Ozod guldek xotini Oysultonga e’tiborliroq bo‘lganda, ichkilikka ruju qo‘ymasdan

mehrini xotinidan aritmaganda shu taxlit fojianing oldi olinarmidi? Balki ro'y bermasmidi? Hikoyadagi ruhiyat tahlilining xolis tabiat shuni ko'rsatadiki, u o'quvchi uchun fikrlashga, mushohada yuritishiga keng imkoniyatlar qoldirayotir. Har bir qahramon ham jonli hayotiy asoslari bilan o'zini-o'zi himoya qilayotgandek tuyuladi.

Salomat Vafoning «Tutilgan oy», «Ko'ngil farishtasi», «Yurakka sig'magan jon» hikoyalaridagi inson konsepsiysi masalasi ham realistik tasvirga asoslanadi. Badiiy idrokda muhim o'rin tutgan hayotiy holatlар, ramziy timsolli detallar realistik tasvir prinsiplarining o'zaro uyg'unligidan, tuyg'ular va kechinmalar sintezidan iboratdir. Xususan, «Tutilgan oy» hikoyasida chinakam va doimiy baxt faqat haqiqat uchun kurashda, adolatni yoqlagan va ro'yobga chiqaradigan ideallar uchun jon fidolikda, ko'ngil erkinning safarbarligi bilan fayziyobdir, degan g'oyaviy-badiiy konsepsiya qahramonlar fe'l-atvoriga nur bag'ishlaydi.

Ma'lumki, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ham adabiyot jamiyat hayotida ma'naviy iqlim yaratadi. Bu borada ko'ngil, ma'rifat, shaxsning tafakkur va tuyg'ular erkinligi, ijtimoiy-siyosiy onglilik darajasi ulkan ahamiyatga ega. Bu narsa badiiy tafakkurning kelgusi taraqqiyot tamoyillarini, realistik tasvir madaniyati imkoniyatlarini, janrlar va ijodiy uslublar rang-barangligini asoslaydi. S.Vafoning «Tutilgan oy» hikoyasi uchun XIX asrning ikkinchi yarmidagi xonlik zamonidan bir lavha asos qilib olingan. Asar qahramonlari an'anaviy uchlikdan iborat. Bir-biriga ko'ngil qo'ygan Odilbek bilan Oybibi hamda Isfandiyorxon.

«Oybibi ko'zini ochib, o'zi tasavvur qilgan sakson yashar badjahl chol o'mida baland bo'yli, kelishgan ozg'in odamni ko'rib, hayron-hayron tikildi. Qarshisida kulib turgan odam elatdoshlari aytgan, minglab odamlarning yostig'ini quritgan qonxo'r Isfandiyorga sira o'xshamasdi» (o'sha manba, 50- bet).

Hikoya voqealari muhabbat tuyg'ularining kurtak tutish asnolari (Odilbek – Oybibi) tasviri bilan boshlanib, qizlik iffatini, ishq, erkini himoya qilgan va Isfandiyorxon ko'ziga chang solib o'yib olgan Oybibining fojiali o'limi bilan yakunlanadi. Milliy tuyg'usi bilan barobar ishq-muhabbat hissiyoti endigina nish ura boshlagan Odilbek bilan Oybibi qiyofasi ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Oybibi,

garchand millat erki xususidagi e’tiqodi hali shakllanmagan, qat’iy nuqtayi nazarga ega bo‘lolmasa-da, ko‘nglida ko‘z ochgan ishq chechagini asrash, unga zavol yetkazmaslik uchun xonga qarshi qo‘l ko‘tarishga jur’at etgan; may kuchidan g‘iltaygan ko‘zini o‘yib olish uchun o‘zida kuch topa olgan ma’suma qiz.

Hikoyadagi obyektiiv tasvir Oybibi ruhiyatidagi tuyg‘u-kechinmalar suratini chizarkan, ongi-shuurida kechayotgan o‘yifikrlar to‘qnashuvini ham holatlar manzarasiga singdirib yuboradi. Eng muhimmi, ana shu kechinmalar to‘qnashuvi tasviri orqali hayot haqiqati tuyg‘ular haqiqati bilan uyg‘un birlikda ma’noli manzaralar hosil qiladi. Adiba tanlagan xolis ifoda uslubining ta’sir kuchi natijasida Isfandiyorxon haramidagi joriyalar hayoti, mutelikka mahkum qismati bir ikki detallar orqali yorqin ko‘rsatishga erishilgan. («Deraza ortidagi allaqaysi dunyodan suvning shildirashi, haram qizlarining behayolik bilan xoxolab kulgani elas-elas eshitildi...», «Deraza rafiga qo‘yilgan qo‘sh sham xona ichiga ajib osoyishtalik va halovat bag‘ishlar, dunyoda hech qanday xavf va tajovuz yo‘qligidan dalolat berganday, miltillab yonardi» (o‘sha manba, 49-bet).

Hikoyadagi psixologik tahlilning ta’sir quvvati shundaki, Oybibilining fojiali o‘limiga sabab xonlik jamiyatidagi ma’naviy-axloqiy qashshoqlik, qabihlik bilan asoslanadi. Oybibi qismati orqali ruh va tafakkur erkin bo‘lmas ekan, o‘sha ruhiyat tanazzulga, tubanlikka mahkum, degan ma’no aks ettiriladi. Adiba ma’naviy-axloqsizlik ildizlari va oqibatlarini jamiyat tartiblari bilan bog‘liq ravishda tahlil etishga, ko‘z o‘ngimizda jonli manzaralar orqali namoyon qilishga erishadi.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, keyingi yillar S.Vafo izlanishlarida ko‘zga tashlanayotgan kemtiklardan biri ham o‘zi sevgan va butkul ijodiy salohiyatini safarbar etgan ko‘ngil masnadi (fenomeni)ga kelib tutashadi. Bu ham ma’naviy-axloqiy masalalarning badiiy talqini bilan bog‘liq. Xususan, inson shaxsiyatidagi ma’naviy noqislik axloqiy fojialarni yuzaga chiqaradi, degan badiiy g‘oyani tajassum etajak hayotiy detallarga psixologik fikr yuklashdan ko‘ra ortiqcha tafsilotlarga berilib ketiladi. Xususan, Ozodning ichkilikka mukkasidan ketishi kambag‘allikni olib kelganmi yoki kambag‘allik ichkilikka berilishni

keltirib chiqarganmi? Har ikki omil bir-birini asoslagan holda axloqsizlikka, xususan, sinfdosh do'sti Shermamat bilan xotini Oysultonning xiyonatini yuzaga chiqarayotir. Axir bu xil ma'naviy tubanlik, axloqiy qashshoqlikning aynan Ozod hayotida voqe bo'lishiga qaysidir ma'noda o'zi ham sababchi emasmi?

Endi, ana shu taxlit axloqsizlik ko'rinishlarini yuzaga keltirgan sharoit, hayotiy muhit psixologiyasini ochuvchi badiiy detallar Ozodning to'qson so'm maoshga ro'zg'or tebratishi, oila ikir-chikir xarajatlarini ko'tarishi, o'g'li orqali ro'shnolikka chiqish niyatidagi ne-ne yorug' umidlari chil-chil singan sho'rpeshona onaning erta sahardan qosh qorayguncha dalada ishlayverib chovutkadek bo'lib qolgan qoqsuyak holati, zimmasiga yuklanayotgan ijtimoiy ma'nolarni o'quvchi o'z shuuri asosida tiklayapti. Adiba esa aksincha badiiy detallar zamiriga yashiringan teran ma'nolar mohiyatini ochish yoki ramzlar tiliga ko'chirish o'rniga mayda tafsilotlarga berilib ketadi. Natijada, hayotiy kechinma va mushohadalar sizib chiqmagan quruq tafsilot, o'quvchining fikriga ham oziq bermaydigan, ko'ngliga ham singishmaydigan hissiz holatlar vujudga keladi. To'g'ri, adiba qahramonlari bir-biriga pand-nasihat qilmaydi, u yoki bu hayotiy muammolar xususida yo'l-yo'riq ko'rsatmaydi. Vaholanki, ana shu taxlit sun'iy didaktika qahramonlar taqdiri va hayoti asosiga qurilmaganligi boisidan o'quvchining g'ashi keladi.

«Kun kechayotgan odam», «Tutilgan oy» hikoyalaridagi psixologik tahvilning obyektiv va xolis realistik tasvirga asoslanganligi boisdan qahramon taqdiri va hayoti xususida hukm-xulosa chiqarish kitobxonning ixtiyoriga havola etilayotir. Bu usul hikoyaning badiiy-estetik ta'sir kuchini ancha kuchaytirgan.

Yana shu narsani alohida ta'kidlash joizki, ko'ngil hurriyatiga yetishish ko'ngil ma'rifatiga erishish natijasida vosil bo'lg'usidir, degan badiiy-ijtimoiy ma'no ham bo'rtib turadi. Bu narsa Turkiyada tahsil olib qaytgan Odilbek bilan Oybibi suhbatlari orqali oydinlasha boradi. Demak, «Adabiy asarda majoziy ifodaning har bir turi alohida badiiy qimmat kasb etadi; yozuvchining vogelikni badiiy o'zlashtirishi, individuallashtirishi, ayniqsa, subyektiv baholanishida xizmat qiluvchi muhim qurollarga aylanadi. Ba'zan unga katta umumlashma kuchga ega bo'lgan va ramziy ma'no tashiydigan

mustaqil obrazlarni vujudga keltirish uchun ham bitmas-tuganmas imkoniyatlar beradi».¹

Agar e'tibor bersak, A.Muxtor, Sh.Xolmirzayev, N.Eshonqul, X.Do'stmuhammad, S.Vafolarning keyingi yillarda yozgan hikoyalarida insonni badiiy tushunish hamda tushuntirishda ikki yo'naliш ko'проq ko'зга tashlanadi. Xususan, xalqimizning XX asrning 90-yillarigacha, ya'ni milliy mustaqillikka erishgungacha kechgan hayotidagi erkka tashnalik kayfiyatini, milliy istiqlolga erishish arafasidagi odamlarning ruhiy holatlarini, jamiyat hayotini yoritishga harakat qilinadi. Ikkinchidan, ezgulik,adolat tantanasi uchun g'ov bo'lган ma'naviy-axloqiy illatlarni fosh etishga intilish, haqiqatning vosil bo'lishiga ishonmagan, ko'ngli mudroq, ong-shuuri charchoq odamlar ruhiyatini jamiyat psixologiyasi bilan uzviy aloqadorlikda tahlil qilish, ana shu xil bedard-bedavo kimsalar amal qiladigan falsafa mohiyatini ramzlar tilida ochib berish, shaxsning parchalanish sabablarini badiiy-falsafiy o'rganish alohida tamoyilga aylangan. Bir so'z bilan aytganda, shaxsning ma'nан butunligi va intellektual teranligini ta'minlaydigan hayotiy omillarini, ijtimoiy ildizlarini badiiy o'rganish ustuvorlik qilayotir.

Tiriklar yashaydigan zamon, shahidlarning esa o'z tuprog'i bor deyishadi. Ularni birlashtirib turadigan jihatlardan biri bu – bashariy qadriyat maqomiga ega bo'lган yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlardir. Keyingi paytda hikoyachiligidiz ma'naviy-axloqiy masalalarning rangin qirralariga murojaat etayotganligi bejiz emas. Zero, insonning tafakkur va tuyg'ular tarbiyasi bilan mashg'ulligi badiiy tafakkurning barcha zamonalari ichra xos bo'lган ustuvor xususiyatlaridan hisoblanadi.

N.Eshonqulning «Shamolni tutib bo'lmaydi», «Zulmat saltanatiga sayohat» hikoyalarida ham ma'naviy-axloqiy masalalar yetakchilik qiladi. «Shamolni tutib bo'lmaydi» hikoyasida ushbu o'zak asosining nozik bir qirrasi – inson sha'ni, Xotira qadri masalasi qalamga olingan. Inson xotirasi, sha'ni va qadri – bu bebaho ma'naviy qadriyat. Uni behurmat qilish, oyoq ostida tepkilash, qora tuproqqa qorishdek badkirdorlik eng ayanchli qabih axloqsizlikdir. N.Eshonqul hikoyasida inson xotirasi-sha'ni masalasi

¹ Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. Adabiy asar. I jild. – T.: Fan, 1978 . – B. 139.

keskin ikki qutbga bo‘lingan komil odamiylik va yuztuban ma’naviy tubanlik, axloqsizlik o‘rtasidagi kurash jarayonida aks ettiriladi.

«Bayna momo ellik yilga yaqin yolg‘izlik davrini ayvondagi ustunlarga suyanib o‘tkazdi. U eri va o‘g‘lining judolik azobi qiyanagan paytlar shu ustunlarni quchgancha yig‘lardi».¹

Eri Rayim polvon bilan endigina mo‘ylovi sabza urgan o‘g‘lini Zamon otboqar otib o‘ldiradi. XX asrning 30- yillari sho‘roviy-qizillar etagini tutib ketgan Zamon otboqar o‘ziga to‘q mol-mulk egasi bo‘lgan, o‘z yurti va tuprog‘ini bosqinchi qizillar zug‘umidan himoya qilishga otlangan Rayim polvon o‘limidan keyin qo‘radagi podasi-yu otlarini haydab ketadi. «Zamon otboqar otlarni quvib ketarkan, bir yo‘la otasi bilan uning qasosini olishi mumkin bo‘lgan o‘g‘lini ham otib tashlaganidan xursand edi – u shu ketishi bilan qishloqning ko‘p narsasini haydab ketdi-endi qishloq birdan minorasi qulagan shahardek g‘arib va notavon ko‘rinardi. O‘n besh yillar so‘ng Zamon otboqar qishloqqa qaytib kelganda qishloqdan fayz ketib, odamlar yana ham ojiz va hurkak bo‘lib qolgandilar» (O‘sma manba, 3-bet).

Adib Bayna momo ichki dunyosini, xususan, uydan hovliga chiqqan mahali devor ortida pisib turib erini otib o‘ldirgan, o‘g‘lining yosh umrini juvonmarg qilgan Zamon otboqarga nisbatan qahr-nafratini, ko‘nglida kechayotgan tuyg‘ular junbushining suratlarini chizadi. Bayna momo qarib qolgan bo‘lsa-da, ko‘zlar qahrli, nafrat to‘la yonadi. Adib hayotiy detallar, tafsilotlar zimmasiga katta ma’nolar yuklaydi. Qahramon ruhiyatidagi to‘lqinlar shiddatini ko‘rsatish bilan barobar yuksak ma’naviy-axloqiyligi jihatlarini ham asoslashga erishadi. Zulm-zo‘ravonlik asosiga qurilgan jamiyat odamlarni bir-biriga mehrsiz, oqibatsiz qilib qo‘yadi. Zug‘um odamlarni hurkak, hadik-xavotirli bo‘lishga majbur etadi. Oddiy cho‘pni ko‘rsa ham egilib salom beradigan, o‘z qadri-izzatini yo‘qotgan qo‘rqoq, hurkovich kimsalarga aylantirib qo‘yadi.

Bu yerda zulm-istibdodga asoslangan jamiyatning axloqsizligini hayotiy voqelik fonida shaxs taqdiri bilan bog‘liqlikda aks ettirish

¹ Eshonqul N. Shamolni tutib bo‘lmaydi // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 1996-yil. 26-iyul (qolgan misollar ham shu manbadan olinadi).

psixologik tahlilning ijtimoiy ma’no salmog‘ini belgilayotir. Aytish mumkinki, hikoyadagi ma’naviy-axloqiy masala sho’ro davri axloqi, zamon axloqi darajasida ifodalananayotir. Insonni tirikligida e’zoz-ikrom eta olmagan odamlar o’lgandan keyin ham xotirasini qadrlashga ojiz. Zulm va zug‘um qishloq odamlarini shunaqa notavon ko’rguliklarga giriftor etgan. O‘z sha’ni-hurmatini bilmagan kimsa o‘zgalarning xotirasini ham hurmatlashga ojiz va noloyiqdir. Bu insoniyat uchun juda katta fofija hisoblanadi.

Hayot materialining yangicha badiiy-talqini undan yangicha ma’nolar uqishimizga ko‘mak beradi. Xususan, Bayna momoning eri va o‘g‘li xotirasiga bo‘lgan adoqsiz e’zoz-hurmati, tabiatidagi ulug‘vorlik, beqiyos ruhiy go‘zallikning bir ko‘rinishi sifatida gavdalanadi. Ana shu holat aksar qishloqdoshlari tabiatidagi qo‘r quoqlikni, ruhiy ojizlikni qoralash asnolarida dalillanadi. Bayna momo shaxsiyatidagi ma’naviy ko‘rkamlik, xotira hurmati qishloqdoshlarining fe’l-faoliyatidagi qusurlar, illatlar fonida yanada ulug‘vorlik kasb etadi. Xususan, «Qishloqda askarlardan hech kim ko‘rinmas, odamlar go‘yo suvga cho‘kkanday g‘oyib bo‘lgan, faqat derazalarga tortilgan qora pardalar bu mudhish jaholatga loqayd va befarq boqib turardi. Bayna momo tersotaliklarni kechira olmadidi. Ko‘kragi ilma-teshik bo‘lgan o‘g‘liga qarata Zamon otboqar yana bir necha bor o‘q uzarkan, u madad izlab qora pardalarga bir-bir ko‘z tikdi. Biroq u yerdan sovuq sukutdan boshqa hech narsa ko‘rinmas, zulmatga cho‘kkan tuyrukler bu misli ko‘rinmagan qotillikni jimgina tomosha qilib turardi» (O‘sha manba, 3-bet).

Tasvirdagi har bir detal, holat va manzaralarning o‘z ma’nosibor. Shu boisdan ham adib biron-bir kartina yaratishda tafsilotga berilgan, deya da’vo qilolmaysiz. Aksincha, detallar va holatlar hayotiy kechinmalardan, mushohadalardan sizib chiqayotir. Bu borada muallif tanlagan obyektiv, xolis tasvir o‘quvchiga ham fikrlash uchun keng imkoniyatlar tug‘diradi. Tasvirlanayotgan hayot – voqelik lavhalaridan o‘ziga ibrat bo‘ladigan saboqlar oladi. Bu hol tuyg‘ular va tafakkur tarbiyasi tarzida voqe bo‘layotir. O‘quvchi bundan o‘zining ma’naviy-intellektual sajiyasiga muvofiq fikr oladi, xulosalar chiqaradi.

Adib Bayna momo tuyg‘u-kechinmalarining suratini chizib, qalbini ochib qo‘ya qolmaydi. Eng muhimi, tuyg‘ular tarhi,

kechinmalar hayoti to‘g‘risida mushohadalar yuritadi va bizni ham ana shu o‘y-fikrlarga sherik qiladi. Bayna momo qismati umrining ma’nosи, tiriklikning mohiyati, oniylik va abadiylik haqida o‘yga toldiradi. Biz boqiylik haqida, o‘tkinchi damlardan qolajak tiniq va yorug‘ xotiralar to‘g‘risida, mangulikni da’vo qiluvchi mazmunli lahzalari xususida ko‘p bor mulohazalar yuritamiz. Boqiylik – bu insonning muayyan maqsadlar, ko‘ngil nolalari asosiga qurilgan mazmunli umridir, deging keladi. Shu ma’noda, N.Eshonqul hikoyasida odamlarning hayotdagi, jamiyatdagi o‘rn, tirikligining mohiyati xususidagi yaxlit va bus-butun tasavvur-tushunchalar adibning shaxs konsepsiysi va umuminsoniylikka xos bo‘lgan badiiy tafakkur tabiatini hamda ijodiy individualligini belgilab berayotir.

Ushbu hikoya xususida mulohaza yuritar ekan, adabiyotshunos U.Normatov asar mohiyatini teran his qilgan holda shunday yozadi: «Yozuvchi asar qahramoni Bayna momoning uzoq davom etgan fojeiy, motamsaro, ayni paytda mardona hayot yo‘lini o‘ziga xos yo‘sins-ohangda hikoya qiladi... Momo qismati bilan bog‘liq xarakterli voqealar, chunonchi u bilan qishloq ahli, olomon orasidagi ziddiyat bir-ikki detallar, shtrixlar ixcham lavhalar orqali eslatiladi, hatto hikoyadagi eng jiddiy to‘qashuv – olishuv – momoning eri va o‘g‘li qotili Zammon otboqardan qasos olishi, uni chavaqlab, qonli barmoqlaridan judo etish voqeasi sahna ortida yuz beradi; bu mudhish voqeani muallif imo-ishoralar, detallar orqali ayon etadi».¹

«Shamolni tutib bo‘lmaydi» asarida adibning ijtimoiy-estetik pozitsiyasi bilan bir qator ma’naviy-axloqiy nuqtayi nazari ham ustuvor yo‘nalish kasb etgan. N.Eshonqul talqinidagi Bayna momo xarakteri shunchalar yorqinki, uning zimmasiga yuklangan axloqiy ma’noga ko‘ra, u ijtimoiy-ma’naviy qadriyat sifatida qabul qilinadi va o‘rganiladi. Zero, o‘tmish ham, bugungi kunimiz ham biz uchun saboq. Ibrat ma’nolari esa hamisha odamlar ma’naviyatini komillik xislatlari ila ziynatlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Negaki, faqat odamlar fe’l-atvoridagi xislat-fazilatlarga emas, xiyonatlar, razolatlar, zulm-istibdodlar, qo‘rquv-hadiklar dag‘dag‘asida sichqonning inini ming tangaga sotib olishlari ham odamlar uchun

¹ Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – T.: Ma’naviyat, 2000. – B. 40.

sabiqdir. Fikrni charxlashga, ko'ngilni oydin-ma'rifatli etishga xizmat qilgan shu taxlit ma'naviy-axloqiy saboqlar, ibratlar va xulosalar o'quvchi ruhiyatida nurli fazilatlar tariqasida shakllanishini asoslaydi.

Ikkinchidan, «Ozodlik», «Jajman», «Shamolni tutib bo'lmaydi» hikoyalaridagi badiiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, insonni ko'rish, tushunish hamda tushuntirish borasida realistik tasvir madaniyati nihoyatda keng imkoniyatlarga ega ekan. Ramzli tasvirlar orqali keng qamrovli teran fikr ayta bilish salohiyati ham ana shunday realistik ifoda madaniyatining muhim shakllaridan biridir. Sh.Xolmirzayev, N.Eshonqul, X.Do'stmuhammad kabi adiblar ijodiy tajribasi buning yorqin tasdig'idir.

Uchinchidan, adiblar hikoyalaridagi obrazlar (Mansur, musiqa muallimi, direktor muovini, qorovul chol – «Ozodlik», Bayna momo – «Shamolni tutib bo'lmaydi») qanchalik individual va o'ziga xos ekan, bu hol har ikki adib badiiy tafakkuri tabiatidagi bir-birini takrorlamaydigan xususiyatlar hosilasi hamdir. Bu narsa, shubhasiz, ijodiy uslublar individualligini asoslaydi.

Bayna momo obrazi nafaqat N.Eshonqul ijodida, umuman, keyingi yillar hikoyachiligidagi insonni badiiy aks ettirish prinsiplari nechog'lik kengayganidan, chuqurlashganidan dalolat beradi. Mazkur sifat o'zgarishi psixologik tahlil madaniyati ko'ngil tarixini yaratish evaziga hosil bo'layotir. Xususan, Bayna momo eri Rayim polvon va o'g'lini otib o'ldirgan Zamon otboqardan o'ch olishni ko'ngliga tugib qo'yadi. Hamqishloq erkaklar bu nohaqlikka, bedodlikka intiqom bilan javob bera bilmagach, bu mushkulotni u ayol boshi bilan o'z zimmasiga oladi. U ko'ngil saltanatiga hech kimning, hatto mehribonchilik ko'rsatgandek royishlari ila daxl etishini ham istamaydi. «Uni hatto nigohlardan ham ehtiyyot qiladi». «... U endi yolg'on dunyoda yolg'iz va qarovsiz qolgandi? Lekin o'zining ojizligini hech qachon bildirmas, o'zidan ko'ngil so'raganlarni yomon ko'rар, go'yo hayoti hech kim qiyo boqa olmaydigan daxlsiz saltanatdek u yoqqa kishini hatto so'zi bilan ham kirishga yo'l qo'yemasdi» (O'sha manba, 3-bet).

Bayna momo ruhiyatidagi o'zgarishlar, nafrat va g'azab, intiqom tuyg'ulari suv yuzasidagi ko'piklar misol ko'rinishib, bo'ronlar shiddati va to's-to'poloni singari sezilmaydi. U daryo tubidagi sirti

tinch, botini serg‘uluv oqimni eslatadi. Bayna momo ko‘nglidagi tebranishlar, fikriyatidagi qat’iyat o‘ch olish tuyg‘usining qat’iy intiqomi sifatida ongi-shuurida kechgan g‘alayonlar suratini chizish asnosida kuzatiladi. Adib tasviridagi Ona o‘zining ikki jihatni bilan, ya’ni ham fikriyati, ham ruhiyatini bilan ifoda obyektiga aylanayotir. Bu N.Eshonqul hikoyasidagi Ona tasvirining zohiriylar belgilardir. Uning botinini mazmunini nimalar tashkil etadi?

Adibning nafaqat «Shamolni tutib bo‘lmaydi», shuningdek, «Tobut», «Xaroba shahar surati», «Ozod qushlar», «Muolaja», «Zulmat saltanatiga sayohat» kabi hikoyalarida ham murakkab psixologik tahlil yetakchilik qiladi. Birgina Bayna momo misolida kuzatilayotganidek, ulardagi qahramonlar o‘zbek nasrida yangi obrazlardir.

N.Eshonqulni shaxs tabiatidagi ikki qutb tasviri ko‘proq qiziqtiradi. Xususan, Bayna momo sho‘ro voqeligi bilan bog‘liq ravishda qishloq hayotiga kirib kelgan yangiliklarni, o‘zgarishlarni ko‘zi ko‘rib tursa ham, qalban qabul qilmaydi. Ular momo tabiatiga, ruhiyatiga singishmaydi. Boisi, ana shu sho‘ro tuzumi uning yorug‘ umrini qorong‘u go‘ristonga aylantirgan. U jisman tirik bo‘lsa-da, shahid ketgan eri Rayim polvon va o‘g‘li bilan ruhan hamnafas. Ularning sha’ni va qadri, yorug‘ xotirasi Bayna momoni oyoqda tutib turibdi. U tirik bo‘lsa-da, ruhan o‘liklar bilan birga yashaydi. Shu boisdan ham uni bu yorug‘ olamdagи hech narsa qiziqtirmaydi. Uning ko‘ngliga tugib qo‘ygan qishloq doshlaridan hech kim xayolining ko‘chasiga ham keltirmagan, yetti uxbab tushiga kirmagan xufiya niyati bor. Bu eri bilan o‘g‘lining bevaqt zavol topgan umri uchun Zamon otboqardan o‘ch olish, ya’ni xotira intiqomi. Axir qishlog‘ida nohaqlikka, zo‘ravonlikka, adolatsizlikka qarshi kurasha oladigan erkak zoti topilmasa, u ayol boshi bilan haqiqatni tiklashga majbur.

Bayna momo ruhiyatidagi ikki qutb tiriklik bilan o‘lim oralig‘idagi umr manzarasini chizish, kayfiyat kechinmalari ranglarini ko‘rsatish hikoyada ustuvor mazmun tashkil etadi. Har bir detal, har bir holat ana shu ruhiyat ummonida kechinmalar shaklida kechayotgan azobli to‘fonlar holatini suratlantirishga qaratilgan. «Yillar bilan birga hamma narsa o‘zgarar, faqat Bayna momogina uni sezmas, go‘yo uning uchun vaqt o‘sha holicha qotib qolgandek,

uni o'sha ellik yil oldingi eri va o'g'lining o'ligini bolshovoy askarlar tepkilab ko'mishgan ustun oldidan topish mumkin edi» (O'sha manba, 3-bet).

Hikoyada jamiyat hayotidagi o'zgarishlar konkret holatlarni ko'rsatish orqali kuzatiladi. Ana shu vogelikdagi yangiliklar mohiyatini badiiy holatlar, lavhalar yaratish asnosida shaxs qalbiga murojaat etiladi. Shu ma'noda, N.Eshonqul tasviridagi Bayna momoning jamiyatga, tabiatga atrof-tevaragiga munosabatini o'rganish xarakterlidir.

Biz yaqin-yaqinlargacha jamiyat insonni tarbiyalaydi, kamol toptiradi, o'z kelajagidan umidvorlikni shakllantiradi, deb keldik. Lekin hayot buning butkul aksi bo'lishi ham mumkin ekan. Bayna momo taqdiri bunga yaqqol misoldir. Jamiyat insonni tiriklay go'rga mahkum etishi ham mumkin ekan. Bolshovoylar Bayna momo uchun o'lim – yo'qlik timsoliga aylanadi. Shu boisdan hatto tabiatdagi jonlanishlar ham momo ko'ngliga «qilt» etgudek ta'sir o'tkazolmaydi. Bahoriy yasharish, yangilanish, yoz jaziramasi, kuzning ilmiliq havosi, qish ayozlari Bayna momo uchun birdek. Aslo ma'nisiz, o'tkinchi damlar xolos. Tabiatdagi yorqin buyoqlar jilvasi hayot quvonchlaridan, yashash sururidan guvohlik berayotir. Lekin ular Bayna momo ruhiyatidagi evrilishlarga hamohang emas. Illo ayol hayotining tasviri o'z tirikligidan, o'z turmushidan mammunlik, ertangi kundan ishonch tuyg'ulari bilan yo'g'rilgan emas.

Badiiy-psixologik tahlildagi nozik bir jihatni qayd etish joizki, keyingi paytda N.Eshonqul, X.Do'stmuhammad, S.Vafo singari ijodkorlarning hikoyachilikdagi izlanishlari insonning pinhon dunyosi – xayollari, fantaziyasini aks ettirish sari yuz burdi. «Istiqloldan burun deyarli qalamga olinmagan psixologik tahlilning bu yo'nalishi istiqlol davri nasrida anchagina o'zlashib, o'ziga yo'l ochib, hatto oqim darajasida ketayotibdi, – deya ta'kidlaydi, atoqli adib Sh.Xolmirzayev.

– Ana shunday – mayjud hayotni barcha o'nqir-cho'nqirlari, g'adir-budir joylari bilan ham sevdira oladigan, pirovardi, uni yanda yorqinroq va hayotiyroq qilib tasvirlagan yana bir qator yozuvchilar borki, nazarimda, adabiyotning asosiy yo'nalishiga

sodiq qolaroq, uning imkoniyatlarini kengaytirishga harakat qilishayotir».¹

«Shamolni tutib bo‘lmaydi» hikoyasida kuzatilganidek, insonni o‘rganish va botinan kashf etish borasidagi tajriba ham e’tiborli. Adib Bayna momo ruhiy holatlarining psixologiyasini yaratar ekan, bu borada uning fikrlarini hamda ko‘nglidan kechgan o‘ymushohadalarining suratlarini chizish alohida bo‘rtib turadi.

Ko‘rinadiki, Bayna momo ruhiy holatlarini kashf etish N.Eshonqul uslubining o‘ziga xosligini ham, badiiy tafakkurining tabiatini ham asoslayotir. Tabiatdagi o‘zgarishlar – ko‘karish, ochilish, barq urish, yashnoq yashillikkha burkanish, garchand o‘tkinchi asnolar bo‘lsa-da, ular Bayna momo ko‘nglidagi o‘tkinchi hissiyotlarni anglatmaydi. Dilining tub-tubidagi tuyg‘ulariga oshno bo‘lolmaydi. Garchand tabiat holatlari o‘zining o‘tkinchi daqiqalaridan notinch esa-da, momo qalbi befarq, bezovta emas. Negaki, tabiat holatlari bilan ayolning psixologik kayfiyatlar o‘zar bir-biriga bog‘liqligi vaqtinchalik o‘tkinchi bir hodisadir. Adibning mahorati shundaki, tabiat ranglari momo turmushidagi, qalbidagi yashirin bo‘yoqlar ma’nosini aks ettirishi hisobiga o‘zining o‘tkinchi asnolariga azaliylik, doimiylik ato etyapti. Momoning real voqelikdan orttirgan g‘amnok, o‘ksik tuyg‘ulari o‘zining fikrga yo‘g‘rilgan kechinmalari bilan tabiatdagi o‘tkinchi asnolarga azaliylik bag‘ishlayapti. O‘z iroda kuchi va sabot-qat’iyati bilan tabiat holatlariga sirti sokin, botini serg‘uluv tagdor va alamnok osoyishtalik ato etyapti. Bu musibatli yurakning adib kashf etayotgan holatlaridir.

N.Eshonqulning o‘zi ushbu holatni quyidagicha izohlaydi: «To‘g‘ri – adabiyot xayolot dunyosi, quruvchi g‘ishtdan uy quradi, yozuvchi xayoldan dunyo yaratadi. Dard, og‘riq, musibat, iztirob, bilim ana shu xayolning mustahkam tirkaklari. Bularning birontasini sug‘urib olsangiz, adabiyot ag‘darilib tushadi. Iste’dod ham asli xayol bilan hayotni omuxtalashtirish, bir-biriga yaqinlashtirish va bu ikkisidan yangi dunyo yarata olish mahoratidir».¹ Bayna momo

Xolmirzayev Sh. Kechirasiz janob Korpenter, vaqtim ziqroq // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 2000-yil. 28-iyun.

¹ Eshonqul N. Ijod qudrat, go‘zallik, ilohiyotga daxldorlkdir // Milliy tiklanish. 1998-yil. 19-may.

uchun birgina hayot bor. Bu – xotira, ya’ni eri bilan o‘g‘lining yodi. Ana shu xayolot tasviri keyingi yillar o‘zbek nasrida butkul yangi bir yo‘nalish samarasi, qutlug‘ namunasidir. Jamiyatdagi o‘zgarishlar, tabiatdagи yangilanishlar Bayna momo turmushiga, umriga o‘zgacha mazmun olib kirayotgani yo‘q. Momo bolshovoylar jamiyatini prinsipial inkor etyapti, unga ro‘yxushlik ko‘rsatib, qabul qilayotgani yo‘q. Ular o‘rtasida na moddiy, na ma’naviy bog‘liqlik vujudga kelayotir.

Muallif hikoyasida Ona qiyofasini badiiy gavdalantirishdagi realistik tasvir keng va chuqur. Xususan, Bayna momo ko‘nglida kechayotgan tuyg‘ular holatini suratlantirish va uning fikrmushohadalardan iborat kechinmalar manzarasini yaratish realistik ifodaning o‘ziga xos shaklidir. N.Eshonqul hikoyasidagi Bayna momo sho‘ro davri nasridagi aksar qahramonlar singari faol shaxs emas. U jamiyatdagи o‘zgarishlarga, xalq hayotidagi yangilanishlarga o‘z munosabatini bildiruvchi, o‘z faoliyati bilan tirikligini go‘zalliklar bilan burkovchi ijtimoiy shaxs ham emas. Unga o‘z hayotini yaratuvchilik, bunyodkorlik faoliyati bilan boqiylashtirishga safarbar o‘ktam ayol xususiyatlari butkul yet. U biz aksar asarlarda o‘rganib qolganimiz, ma’nан va intellektual jihatdan yetuk qiyofasi bilan ham ko‘zga tashlanmaydi. Momo o‘zining jamiyat hayoti, xalq taqdiri va atrof-tevaragidan kechayotgan voqelik bilan na ruhan, na jisman uzviy robitalariga ega emas, ular momoning ko‘ngil ko‘chalariga sig‘maydi ham.

Hikoyadagi realistik ifodaning o‘ziga xos tabiat shundan iboratki, Bayna momo ruhiyatidagi o‘zgarishlar, ya’ni tuyg‘ular dinamikasi, kechinmalar takomili holatlarning suratiga aylantirilgan. Ma’naviyatidagi, ong-shuuridagi tuyg‘ular tadriji, ya’ni intiqom tarzida shakllanayotgan nafrat-iztiroblari badiiy detallarga singdirib yuborilgan.

«Bayna momo har kecha ko‘z yoshlari bilan to‘lgan qayiqda yillar qoyalari orasida qolib ketgan eri bilan o‘g‘lining ilma-teshik bo‘lgan murdasi va Zamon otboqarning muzaffar qamchisi yotgan, qonli halqob bilan to‘lgan ayvonga suzib borar, ertalablari ho‘l bo‘lib ketgan yostig‘ini xuddi qadim ajdodlarining unut bo‘lgan yaloviday uyining oldidagi oradan yillar o‘tgach, uyini buzayotganlar qo‘porib tashlashga kuchlari yetmagach, kovlab

olishga majbur bo‘lgan baland tolga osib oftobda quritardi. Qish paytlari g‘amlab qo‘ygan o‘tini yetmagan kunlari u ko‘rpaga oyog‘ini tiqqancha xotirasiga isinib jon saqlardi», yoki «Bayna momo qishloq doshlariga ko‘z-ko‘z qilmochiday va bu uyning erkagi va oriyati o‘lmagan deya ta’kidlayotganday eri va o‘g‘lining polvonlik yaktaklarini har oyning oxirida shusiz ham hammaning ko‘ziga tashlanib turadigan uyining shappotchayiga osib qo‘yardi: yaktaklar ham bora-bora nafrat to‘la changalga dosh berolmadi: Zamon qassob o‘limidan bir kun oldin yaktaklar torda uvada-uvada bo‘lib osilib turar, ular endi kiyimdan ko‘ra ko‘proq qabrlar ustiga ilib qo‘yadigan laxtakka o‘xshab qolgandi» (o‘sha manba, 3-bet).

Umuman, N.Eshonqul izlanishlarida ramziy va falsafiy mazmundorlik adib ijodining o‘ziga xos, individualligini belgilaydi. Zero, «Zulmat sultanatiga sayohat» hikoyasi ham ramziylikka asoslangan, badiiy tafakkur tabiatiga ko‘ra, «Maymun yetaklagan odam» asariga o‘xhash. Faqat uning bosh qahramoni M. ismli adib. Har ikki hikoyani yagona falsafiy-axloqiy konsepsiya birlashtirib turadi. Nazar Eshonqul shaxsning ko‘ngil kechinmalariga murojaat etarkan, umr sahifalarini birma-bir varaqlash orqali ma’naviy intellektual boyliklarini, odamiylik xislat-fazilatlari bilan g‘ayriinsoniy illatlari ham yonma-yon voqe bo‘lishini, o‘zaro kurashib yashashini ko‘rsatishga alohida diqqat qiladi.

«Maymun yetaklagan odam» hikoyasida rassom chol psixologiyasini ochishda o‘zi chizgan suratlardagi hayot manzaralari orqali gavdalantirishga erishgan bo‘lsa, «Zulmat sultanatiga sayohat» hikoyasida M. ismli yozuvchining ruhiyati, ma’naviy hayot sahifalari yaratgan asarlari mazmuniga murojaat vositasida jonlantiriladi. Shu ma’noda, ushbu hikoyada ham inson konsepsiyasining dinamikasini kuzatish mumkin. Bu narsani muayyan sxemaga yoki qolipga solib bo‘lmaydi. U inson tirikligi singari ibrido-yu intihoga ega.

Mashhur adib M. ham yolg‘iz yashaydi. Keyingi o‘n-o‘n besh yil ichida hech kim bilan sirlashmaydi. Jurnalist qiyofasidagi lirik personaj M. ijodiy dunyosiga safar qilish, ijodi haqida suhbatlashish niyatida uning uyiga keladi.

«M. tamaki va yana qandaydir qo‘lansa hidlar o‘rnashib qolgan to‘sakda cho‘zilib yotardi; tinmay tamaki tutatar va po‘k-po‘k

yo‘talardi. Xonasi ham xuddi hayoti kabi palapartish edi. Men tozalanmagan stolni, isqirt to‘shakni, derazadan ko‘ra tuyrukni eslatadigan romlarni, o‘qilmaganiga ham allazamonlar bo‘lgan chang bosgan kitoblarni ko‘zdan kechirar ekanman, har bir odam o‘ziga munosib boshpana tanlaydi, deb o‘yladim».¹ M.ning ijod dunyosi bu hayotda har bir narsadan tushkunlik va umidsizlik izlayverib, o‘zi ham tushkunlikning bir parchasiga aylanib qolgan, hayotning mudhishligini ixlos, shavq bilan tasvirlagan zulmat olamidir. M.ning asarlarida nurdan ko‘ra soyalar, ezgulikdan ko‘ra razolat, qabohat, yaxshilikdan ko‘ra yovuzlik yayrab-yashnab, emin-erkin yashaydi. Bir hikoya ichida ko‘p odamlarning bir-biriga sira o‘xshamagan qiyofalarini chizadi. Xarakterlarning qirralarini juda ixcham va lo‘nda tasvirlar bilan yarqiratib ochib yuboradi. Ko‘z o‘ngimizda ilgari boshqa hech qayerda uchramagan g‘alati tabiatli kishilar obrazlari namoyon bo‘ladi.

N.Eshonqul hikoyasida inson o‘z ko‘nglining egasi bo‘lmas ekan, har qanday sharoitda ham u qo‘rquvchi mute bo‘lib qolaveradi. O‘z-o‘ziga ishonchsizlik, o‘z tuyg‘ulariga, fikr-o‘ylariga mas’ul bo‘imaslik, nafrat va muhabbat orasida qalqib turgan dunyodan yorug‘likka ishonchsizlik, qorong‘ulikka ko‘nikish M.ning o‘z erkini boy bergen zulmat dunyosiga yetaklab kelgan. Umrini tashlandiq qabr singari sukunatga duchor etgan, xudbinlik – g‘ayriinsoniylik ekanligini, u olivjanoblik, yaxshilik bilan aslo chiqishib ketolmasligini, birga yashay olmasligini, bu esa shaxsni tanazzulga mahkum etishini chuqur ochib bergen. Bu borada N.Eshonqul tanlagan usul – adib asarlarida yaratilgan N. ismli qiz Q. ismli personajlar ruhiyatini kuzatish orqali M.ning ma’naviyati sahifalari birma-bir ochila boradi. Ana shu usul M.ning qo‘rquvgaga («qo‘rquv odamlarni boshqaradi», deb biladi) asoslangan mutelikda ko‘zi ochilgan, mutelik qobig‘iga o‘ralgan va umr shomida ham mutelik og‘ir xo‘rsiniqqa aylangan hayot sahifalarini birma-bir varaqlash imkonini beradi. «...U o‘zini o‘rab turgan bu qiyofasiz olamga qiyofa berish uchun uni daf‘atan shunchalar zulmatga burkagandiki, oqibatda bu zulmat uning qasosga to‘la o‘kirigiga

¹ Eshonqul N. Zulmat sultanatiga sayohat // Maymun yetaklagan odam. – T.: Yangi asr avlod, – 2004. – B. 161.

aylangan edi» (o'sha manba, 162-bet), «...M.ning uzuq-yuluq jumlalari kabi xaroba uylar orasidan ketib borardik. Bu vayronalikdan M.ning umr hidi kelar – muqarrar tanazzuldan darak berardii» (o'sha manba, 165-bet).

Ko'rinaridiki, «Zulmat saltanatiga sayohat» hikoyasida ham hid va shu'la obrazlari ramziylik tabiatiga ko'ra chuqur ijtimoiy mazmun tashib kelayotir. U tanazzulga yuz tutgan, butkul umri qo'rquv va mutelikda kechgan M. hayotini, badbo'y tirikligini anglatish bilan barobar qo'rquv saltanatiga qurilgan jamiyat odamlar taqdirini nes-nobud qilishini, ongi-shuurini boshqarishini ham anglatib turadi. Hid va shu'la obrazlari yaxlit uyg'unlikda N.Eshonqulning mustaqillik davri hikoyachiligidagi badiiy talqin etilayotgan qo'rquv va baxtsizlik, shaxs erki va ko'ngil muteligi, fikr qulligi xususida umuminsoniy mazmun va mohiyatga ega bo'lgan keng mulohazalar yuritish imkonini beradi. Aytish mumkinki, hid va shu'la kabi obrazlar adibning dastxatiga aylanib borayotir. Bu hol yolg'iz N.Eshonqul ijodiy individualligini belgilab beruvchi xususiyatlarga egadir. Xususan, hid, shu'la ramzlari vositasida shaxs qismatini, taqdiri sahifalarini oydinlashtirishga alohida urg'u beriladi. Zero, zulmat saltanati bu – M.ning badbo'y hid anqib yotgan, tanazzulga yuz tutgan umrining lahzalari, daqiqalari, damlari silsilasidan iborat bo'lgan qorong'ulik. «Maymun yetaklagan odam» hikoyasida chirkin hid umrning yaxlit bir holati, qo'rquv, umidsizlik – ishonchsizlik asosiga qurilgan tiriklikning tabiiy bir silsilasi sifatida talqin etilgan edi. Endi «Zulmat saltanatiga sayohat» asarida esa ushbu ramzlarning tashigan ma'no qirralari ko'lamdor va terandir. Qahramonlar ko'zidan balqigan shu'la umrlarni uzaytirishga, inson tirikligini olijanoblik, ezzulik, insoniylik ma'nolariga yo'g'rishga da'vat kuchli. Lekin ko'nglida yashiringan qo'rquv tuyg'usi, ko'ngil muteligi M. taqdirini zulmat botqog'iga botirgan.

N.Eshonqulning keyingi yillar izlanishlarida insonni tushunish hamda tushuntirish borasida timsolli psixologizm yetakchi umumiy tamoyilga aylanganligini, shaxs ichki dunyosini aks ettirishda ramzlarga qurilgan badiiy tafakkur tabiatini adib ijodiy individualligini belgilab berayotganligini ta'kidlash joizdir. Zero, Sh.Xolmirzayev, N.Eshonqul, X.Do'stmuhammad, S.Vafo hikoyachiligidagi inson

ruhiyatini aks ettirish borasida yuzaga kelgan mushtarak motivlar, avvalo, ularning bir-biriga ijodiy ta'siri, obyektiv voqelik taqozosi hamda adabiy jarayonning kechish tarzi bilan izohlanadi. XX asrning 80-90- yillar o'zbek hikoyachiligidagi tuyg'ular realizmi psixologik tahlil madaniyatida nechog'lik ustivor mavqe kasb etgan bo'lsa, mustaqillik davri hikoyalariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

«Zulmat saltanatiga sayohat» hikoyasida kuzatilganidek, ramzli obrazlilik lirik personaj sifatida asarda ishtirot etayotgan muallif nuqtayi nazari, individual nutqi orqali yoritilgan. Bu borada ramzli obrazlarning zohiriylarini gavdalantirish bilan kifoyalanib qolinmagan. Hikoyada muallif Hid, Shu'la, Qorong'ulik, Qo'rquv singari ramzlar tabiatini ochish uchun M. ismli adib, N. ismli qiz, Q. ismli qahramon psixologiyasini chuqur yoritishga xizmat qiluvchi hayotiy ziddiyatlar, holatlar ruhiyatini chizishga, keskinliklar kayfiyatini yaratishga alohida e'tibor qiladi. Hikoyadagi badiiy tafakkur tarziga ko'ra hayot faktlarini qahramonlar turmush tajribalari asosida umumlashtirishni taqozo etgan. Faqat hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirishda timsollar, tuyg'ular realizmiga erishishni ijtimoiy-falsafiy umumlashma xulosalar chiqarishni asoslagan, yuzaga keltirgan. Yozuvchiga holatlar, kayfiyatlar, ramzlar psixologiyasini yaratishida tuyg'ular realizmi, kechinmalar haqiqati asos bo'lib xizmat qilgan.

«Maymun yetaklagan odam» hikoyasidagi rassom chol, «Zulmat saltanatiga sayohat» hikoyasidagi M. ismli adib, adabiy personajlardan N. ismli qiz, Q. ismli qahramon xarakterini yaratishda adib kechinmalar psixologiyasini gavdalantirish yo'lidan boradi. Mutelik va itoatgo'ylik, jur'atsizlik inson ongi-yu ruhini, vujudini chirmab olgan chirkin zalolat, zulmnинг, qorong'ulikning ayanchli bir ko'rinishidir. Odam erkin bo'lishi va umrini poshnalar tagida emas, yorug'likda kechirishi uchun har bir inson, xoh u adib yoki rassom bo'ladimi, ongidagi kishanlarni, ruhiyatidagi zanjirlarni parchalashi, ulardan xalos bo'lishi lozim ekan, degan fikr ilgari suriladi. Inson chinakamiga ozod bo'lishi, emin-erkin yashashi uchun hurriyatga tashnalikning o'zi yetarli emas. Qorong'ulikni qarg'ab o'tish, zulm zalolatni yomonlash, ertangi kun saroblarini anglamay aldanib qoldim, deya afsus-nadomatlar yog'ida qovrilish masala mohiyatini oydinlashtirolmaydi. Qorong'ulikni – qora,

zulmni – yomon, deyish bilan inson erkin bo‘la olmaydi. Ana shu chirkin kuchlarga, yovuzliklarga, zulmga qarshi bosh ko‘tarmas ekan, uning intilgan hurriyati sarob bo‘lib qolaveradi.

Tahlil qilingan hikoyalarda kuzatilganidek, erkning o‘zi nima ekanligini, uning tom ma’noda qanday ma’naviy-intellektual ehtiyoj ekanligini chuqur anglab yetmagan, ishonch-e’tiqodda aldangan bir necha avlod ahvoli uning o‘tgani asrning 90-yillari boshlaridagi kayfiyatini «Maymun yetaklagan odam», «Zulmat sultanatiga sayohat» hikoyalari orqali ifoda etilgan. Har ikki hikoyada ham rassom chol, M. ismli adib xarakterlari tasviri orqali inson hayotdan butunlay umidini uzib qo‘ygan asnlarda, tushkun holatlarda ham, baribir insonning hayotga qanchalik talpinishi ta’sirchan holatlar tasviri orqali ko‘rsatilgan. N.Eshonqul har ikki hikoyasida ham qahramonlar psixologiyasini yoritishda betakror, original usul qo‘llaydi. Xususan, rassom chol ruhiyati o‘zi chizgan suratlardagi holatlar, kayfiyatlar manzarasi orqali yuzaga keltiriladi. M. ismli adib xarakteri esa o‘zi yaratgan badiiy asardagi adabiy personajlar hayoti, voqelik manzaralari vositasida gavdalantiriladi. Har ikki hikoyada ham kechinmalar, qahramonlarning o‘y-mushohadalari orqali sizib chiqayotgan his-tuyg‘ular uyg‘unlikda, yaxlit birlikda kayfiyat psixologiyasini bunyod etayotir. Lirik personaj sifatida hikoyada ishtirok etayotgan mualif nutqi esa, hikoyalarga asos qilib olingen hayot materialini, voqelik jarayonlarini bir o‘zanga solib birlashtirgan. Bu borada tabiat tasviridan ko‘ra jamiyat psixologiyasini yaratishda voqelik jarayonlariga ko‘proq diqqat-e’tibor berilgan. Rassom chol suratlardagi manzaralar orqali, M. ismli adib asarlaridagi adabiy personajlar nutqi, so‘zları vositasida qahramonlar psixologiyasi yaratiladi. Bu xususiyat N.Eshonqulning betakror o‘ziga xosligini, ijodiy individualligini asoslagan.

Sh.Xolmirzaev hikoyalarida esa («Ozodlik», «Mangu yo‘ldosh», «Quyosh-ku, falakda kezib yuribdi» va h.k.) qahramonlar xarakterini yaratishda tabiat tasviri birinchi planda turadi. U tabiatdagি ranglar bilan inson ruhiy dunyosining mutanosibligini, insonning his-tuyg‘ulari tabiat ranglariga o‘xshash ekanligiga diqqatimizni tortadi. Adib hikoyalarida tabiat hayotini sinchkovlik bilan detallashtirib tasvirlash, holatlar psixologiyasini chizishda personajlar nutqiga alohida urg‘u berish, ularga chuqur ijtimoiy-axloqiy ma’no yuklash

hamda hikoyalar ruhidan balqib turgan sokin bir ohang yetakchilik qiladi.

Ushbu xususiyat, N.Eshonqul, X.Do'stmuhammad, S.Vafo qalamiga mansub hikoyalarni o'qiganda ham his qilinadi. Xususan, Sh.Xolmirzayev ijodiy individualligi qahramon kechinmalarini tabiat ranglariga yo'g'rilgan holda zohir etishida ko'proq namoyon bo'ladi. Yozuvchi uslubining o'ziga xos xususiyati orqali kitobxon o'zi sezmagan holda tabiatning bir qarashda sezilarsiz tuyuluvchi o'zgarishlariga, biz bilmagan qonun-qoidalariga ahamiyat bera boshlaydi. Bu holatni «Ozodlik» hikoyasini o'qiganda kitobxon yana bir bor chuqur his qiladi. Hikoyada kaklik timsolida jonivorlarga ham inson singari erkinlik ato etilganligini qat'iy va mas'uliyat bilan his qilish, ularni himoya qilish kerakligi faqat kakliklar bu sifatlardan hayot uchun, yashash uchun kurashishning o'zlariga xos tarzini kechirishda foydalanishlari, qolaversa, ular biz o'ylagandek hissiz, ongsiz emasliklari tasvirlab berilgan. Bu borada yozuvchi tabiat xossalari falsafiy talqin etib, o'tkir ijtimoiy-axloqiy ma'nodorlikka ega bo'lgan umumlashma xulosalar chiqaradi. Bu – Sh.Xolmirzyaev ijodiy individualligini belgilayotgan asosiy xususiyatlardan biri hisoblanadi. Kaklik ovi misolida erk qadri, hurlikning tabiatini, ozodlikning ma'nosini to'g'risida chuqur o'ylarga toldiradi. Hikoyaning «Ozodlik» deya nomlanishi ham bejiz emas, u jonivorlarga ham, insonlarga ham birdek taalluqlidir.

Salomat Vafoning «Kun kechayotgan odam», «Tutilgan oy», «Ko'ngil farishtasi» hikoyalarida ko'tarilganidek, ko'ngil erki, iymon-e'tiqod butunligi, shaxsning ma'naviy intellektual erkinligi – umumbashariy qadriyat. Unga erishish fikr va tuyg'ular birligi bilan hurriyat uchun kurashish, ushbu bashariy ma'naviy-intellektual qadriyatni poydor etish millatning yorug' saodati, demakki, Vatan iqboli, istiqbolidir. Adiba hikoyalari bilan tanishar ekanmiz, mazkur ijtimoiy-badiiy ma'no insonning o'zi ham buyuk, bebaho qadriyat, degan konsepsiyaning turli qirralari badiiy talqin etilayotganidan voqif bo'lamiz. Qahramonlar (Ozod, Oysulton, Shermamat, Oysha – «Kun kechayotgan odam») psixologiyasini yoritishida ular xarakterining axloqiy jihatlariga urg'u berish, xarakterlar tabiatidan, fe'li-faoliyatidan (Odilbek, Oybibi – «Tutilgan oy» hikoyasi) ijtimoiy-axloqiy ma'noga ega bo'lgan badiiy umumlashmalar

chiqarishga moyillik S.Vafo ijodiy individualligini ta'minlagan muhim belgilardan hisoblanadi.

Umuman olganda, Sh.Xolmirzayev, N.Eshonqul, X.Do'stmuhammad, S.Vafo kabi ijodkorlar voqelik va uning bosh omili bo'lgan insonni butun murakkabligi bilan aks ettirishda turlituman tasvir prinsiplariga, usul va vositalariga amal qilish orqali o'zlarining ijodiy betakrorligini namoyish etayotgan bo'lsa ham, ammo zamondoshlarimizgina emas, balki barcha davr kishilariga, butun insoniyatga xos ijobiy ham salbiy xususiyatlarni aks ettirishda ancha olg'a ketganliklari bilan mushtaraklik kasb etadilar.

Mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Istiqlol davri o'zbek hikoyachiligidagi qanday shakliy-uslubiy o'zgarishlar ro'y berdi?
2. Hikoya janri tabiatida tavsifiy-rivoyaviy tipdan novellistik tip sari siljish kuzatilishini qanday izohlaysiz?
3. Hikoyalarni o'z xarakteriga ko'ra qanday yo'nalishlarga ajratish mumkin?
4. Mustaqillik davri o'zbek adabiy tanqidchiligidagi zamонави hikoyachilikning talqin va tahlillari haqida qanday fikrdasiz?
5. Istiqlol davri o'zbek hikoyachiligining o'ziga xosligi va taraqqiyot tamoyillari xususida nimalarni bilasiz?
6. Istiqlol davri o'zbek hikoyanavislari ijodida o'xshashlik va o'ziga xoslik maslasi haqida qanday fikrdasiz?
7. Istiqlol davri o'zbek hikoyachiligi bilan bog'liv qanday monografik tadqiqotlarni bilasiz?

MAVZULAR BO‘YICHA NAZORAT TESTLARI

„Istiqlol davri she’riyatining yetakchi tamoyillari“ mavzusi
bo‘yicha nazorat testlari

1. Ushbu parcha qaysi ijodkor qalamiga mansub?

Bir qarasam, do‘s-t-u yordan ko‘nglim to‘qday,

Bir qarasam, atrofimda hech kim yo‘qday.

Bir qarasam, suyanchiqday bolalarim,

Bir qarasam, ular siniq lolalarim.

A) Go‘zal Begim

B) Abdulla Oripov

C) Rauf Parfi

D) Shavkat Rahmon

2. Rauf Parfi qalamiga mansub she’riy asarlar to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping.

A) „Turkiylar“, „Iqror“.

B) „Ayolg‘u“, „Tush“.

C) „Qora devor“, „Munojot“.

D) „Munojot“, „Oq va qora“.

3. Keltirilgan she’riy parchada oymomo nimaning timsoli hisoblanadi?

Ana tong yulduzi – Zuhro nurafshon

Dur taqib olibdi oppoq bo‘yniga.

Oymomo poystackdi, tun bo‘yi giryon,

Kirib ketmasin deb yerning qo‘yniga.

A) xalq

B) oshiq

C) ona

D) ma’shuqa

4. Til badiiyatning yuqori darajasini ham, oz so‘zga ko‘p ma’no yuklash zaruratini ham, barcha-barchasini o‘z ichiga oluvchi tamoyil?

A) poetik tamoyil

B) ilmiy tamoyil

C) publisistik tamoyil

D) rasmiy tamoyil

5. „Men ko‘p qo‘llaniladigan hamma so‘zlardan boshqasini; noyob so‘zlar, metafora, cho‘zilgan va boshqa so‘zlarni g‘alati deb atayman. Lekin kimnidir butun nutqini shunday asosida tuwsa, yo topishmoq, yo varvarizm kelib chiqadi“. Modernizm haqidagi ushbu fikrlar qaysi ijodkor qalamiga mansub?

- A) Geradot
- B) Aristotel
- C) Arximed
- D) Suqrot

6. Milliylik, eng avvalo, nimada o‘z mujassamini topadi?

- A) poeziyada
- B) ijoddha
- C) ruhiyatda
- D) adabiyotda

7. Adabiyotimiz tarixidagi qaysi davrni „ko‘ngil lirkasi“, deya baholash mumkin?

- A) XX asrning 70-80-yillari
- B) XX asrning 90-2000-yillari
- C) XX asrning 60-70-yillari
- D) XX asrning 80-90-yillari

8. Istiqlol davrida she ‘riyati ifoda usuliga ko‘ra necha turga bo‘linadi?

- A) 3
- B) 4
- C) 5
- D) 6

9. Ushbu misralar insonda qanday fikr paydo qilishi mumkin?

Baliqning tishi-la tilimni tildim,
Yuragimni urchuqday uch aylantirdim.
Ko‘zimni qiynadim,
Qiy nog‘im qiziq
Yayradim.

- A) kishining qiynoqlarga ko‘milishi
- B) kishi qiynoqlarni yengib o‘tishi
- C) kishi qiynoqdan ham yayrashi mumkinligi
- D) tana a’zolarining jasorati

10. ... abadiyatga yo‘l ochdi, natijada olamni bezaydigan xilqat yuzaga keldi.

Ushbu ta’rifda nuqtalar o‘rniga qo‘yilishi lozim bo‘lgan so‘zni belgilang.

- A) muhabbat
- B) nafrat
- C) do‘stlik
- D) she ‘riyat

11. Quyidagi she’riy parcha orqali insoniyat nimaga da’vat etilmoqda?

Sharqning balosi –

Turkiston!..

„Shimol och!“

Oshini berdi

Va boshini berdi

Boshini yedi uning

A) Shimoliston muhtojlarga yordam qo‘lini cho‘zish

B) tarki dunyochilik

C) yetimlarga mehribonlik

D) mamlakatlar o‘rtasidagi nizoni yo‘q qilish

13. Diniy-ma’rifiy g‘oyalarni she’riyatda talqin etish bo‘yicha Abdulla Oripov an‘analari qaysi shoir tomonidan samarali davom ettirilmoqda?

- A) Halima Ahmedova
- B) Farida Afro‘z
- C) Eshqobil Shukurov
- D) Abduvali Qutbiddin

14. Quyidagi she’riy parcha qaysi ijodkor qalamiga mansub va unda qaysi tamoyil yaqqol ko‘rinadi?

... Panoh so‘radimmi borimni yechib,

O‘zni urdimi yo biron eshikka?

Qaltis lahzalarda orimdan kechib,

Kirdimmi sichqonlar kirgan teshikka?!

Qaltis lahzalarda sinalar paytim

Dunyoning ko‘ziga qaradim qattiq...

A) Abduvali Qutbiddin, poetik til me’yori.

B) Shavkat Rahmon, milliylik

C) Farida Afro‘z, obrazlilik.

D) Rauf Parfi, tuyg‘uning samimiyligi.

15. Ushbu she’r qaysi ijodkor qalamiga mansub?

Seni yuborgan bulutlar

Oppoq va momiq

Koshkiydi qora bo‘lsa.

Sen yuborgan bulutlar

Yuragimga kirmoqda suzib,

Koshkiydi o‘tib ketsa.

A) Shavkat Rahmon

B) Abduvali Qutbiddin

C) Farida Afro‘z

D) Halima Xudayberdiyeva

16. „Ko‘ztumor“ she’riy to‘plami kimning qalamiga mansub?

A) Abdulla Oripov

B) Usmon Azim

C) Erkin Vohidov

D) Muhammad Yusuf

17. „Adashgan ruh“, „Qora devor“, „Munojot“ she’rlari muallifi to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping.

A) Shavkat Rahmon

B) Azim Suyun

C) Rauf Parfi

D) Abduvali Qutbiddin

18. Rauf Parfining birinchi she’riy to‘plami qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) „Tasvir“

B) „Sukunat“

C) „Karvon yo‘li“

D) „Sabr daraxti“

19. Quyida berilgan she’rlarning qaysi biri onaga murojaat bilan boshlanadi?

A) „Toshbu“, Mirtemir.

B) „Dorilamon kunlar keldi“,

H.Xudoyberdiyeva .

C) „Baxt so‘zi“, Sh.Rahmon.

D) „Ona duosi“, Y.Eshbek.

20. Faxriyor nimani 13 raqamiga o‘xshatib, „bo‘linmas“, „parchalanmas“, deya atagan edi?

- A) bo‘shliqni
- B) san’atni
- C) vaqtni
- D) kechinmani

21. Halima Ahmedovaning „O‘g‘limga darsliklar“ turkumida qaysi dars „Goho bo‘m-bo‘sh ko‘nglim oralab, Sudraladi kuzak shamoli“, – deya esga olinadi?

- A) Tabiat darsi
- B) Mehnat darsi
- C) Rasm darsi
- D) Adabiyot darsi

22. Iqbol Mirzoning „Bu dunyoga kelganim, U dunyoga safarim“, – deb boshlanuvchi she’rida ishq qadimdan ikki narsaga qiyoslanishi aytilgan. Bu ikki narsa nima edi?

- A) asal va zahar
- B) gul va tikon
- C) aql va yurak
- D) bahor va kuz

23. „Ayolga baxt bering“ she’ri qaysi ijodkor qalamiga mansub?

- A) Saida Zunnunova
- B) Zulfiya Mo‘minova
- C) Zebo Mirzo
- D) Halima Ahmedova

24. Mirzo Kenjabeckning „Yutqiziq“ she’ri kimga bag‘ishlab yozilgan edi?

- A) Azim Suyun
- B) Usmon Azim
- C) Yo‘ldosh Eshbek
- D) Sirojiddin Sayyid

25. Azim Suyunning „Ustod va shogird“ she’rida ustoz o‘z shogirdiga polvonlikning nechta sir-hunarini o‘rgatgan edi?

- A) 39 ta
- B) 40 ta
- C) 41 ta
- D) 70 ta

26. Usmon Azimning „Navoiy“ she’rida qaysi shahar cheksiz deya ta’riflanadi va bu dunyoning barcha yo’llari shu shahar bilan tugashi ko‘rsatiladi?

- A) Astrobod
- B) Hirot
- C) Mashhad
- D) Samarqand

27. Abdulla Oripov „Men anglab yetgan falsafa“ to‘rtligida dunyoni nimaga o‘xshatadi?

- A) ko‘lmakka
- B) daryoga
- C) falakka
- D) bozorga

28. Quyida nomi keltirilgan qaysi ijodkor aruz va barmoq vaznlarida birdek qalam tebratgan edi?

- A) Abdulla Oripov
- B) Erkin Vohidov
- C) Zulfiya
- D) Shavkat Rahmon

29. Halima Xudoyberdiyeva „Istiqlol tarixning imtihonidir“ she’rida qaysi jadid allomalarimizni „Millat deb qon qusgan mard-u eranlar, Joni pilik bo‘lib taratgan ziyo. E’tiqodi buyuk fikri teranlar“, - deya tilga olgan edi?

- A) Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy
- B) Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon
- C) Cho‘lpon, Usmon Nosir
- D) Hamza Hakimzoda, Munavvarqori

30. Mustaqillik davri she’riyati vakillaridan bo‘lgan qaysi shoir Navoiyning „O‘xshamas“ g‘azaliga muxammas yozgan edi?

- A) Sirojiddin Sayyid
- B) Iqbol Mirzo
- C) Omon Matjon
- D) Erkin Vohidov

„Istiqlol davri adabiyoti hikoyalarining o‘ziga xosligi va taraqqiyot xususiyatlari“ mavzusi bo‘yicha nazorat testlari

1. Shukur Xolmirzayevning „Odam“ hikoyasida bosh qahramon Rahimaning kenja farzandi nima sababdan vafot etgan edi?

- A) ochlikdan
- B) baxtsiz tasodif tufayli
- C) kasalligi sababli
- D) urushda vafot etadi

2. Qaysi adabiyotshunos olimning ta’kidlaganidek, „barcha zamonlarda bo‘lgani singari yaxshi odam ham, yomon odam ham bugungi kun san’atining qahramoni bo‘lishga haqli“.

- A) B.Sarimsoqov
- B) N.Rahimjonov
- C) H.Karimov
- D) H.Umurov

3. „O‘zing madadkorsan, Axuramazda...“ satrlari qaysi hikoyadan olingan?

- A) „Jajman“
- B) „Qora kun“
- C) „Shamolni tutib bo‘lmaydi“
- D) „Non va Iymon“

4. „.... agar asarda tasvirdan ko‘ra tavsif cho‘zilib ketsa, bu mahorat belgisi emas. Aniq, badiiy bunyodkorlik badiiy asar belgisidir“. Ushbu keltirilgan jumlalar qaysi ijodkor qalamiga mansub?

- A) Belinskiy
- B) Chernishevskiy
- C) Chexov
- D) Geryadkin

5. Italiyalik mashhur adib Dino Butsattining „Yetti qavat“ hikoyasiga qaysi adib nazira tarzida hikoya bitgan edi?

- A) Abdulla Qahhor
- B) O’tkir Hoshimov
- C) Xurshid Do’stmuhammad
- D) Murod Muhammad Do’st

6. Quyida berilgan adabiyotshunoslardan qaysi biri asar xarakterini „obrazning yadrosi“, deya talqin qilgan edi?

- A) Timofeev
- B) Chernishevskiy
- C) Chexov
- D) Belinskiy

7. „Shamolni tutib bo‘lmaydi“, „Tobut“, „Xaroba shahar surati“ kabi hikoyalar qaysi ijodkor qalamiga mansub?

- A) Xurshid Do‘stmuhammad
- B) Said Ahmad
- C) Shukur Xolmirzayev
- D) Nazar Eshonqul

8. „Ayol“, „O‘zini izlayotgan ayol“ kabi asarlar muallifi kim?

- A) Nazar Eshonqul
- B) O‘tkir Hoshimov
- C) Salomat Vafo
- D) Zebo Mirzo

9. Keltirilgan ta’rifda nuqtalar o‘rniga qo‘yilishi lozim bo‘lgan atamani toping.

„.... – ijtimoiy munosabatlarni va strukturalarni psixologik ma’lumotlar, odamlarning bevosita o‘zaro harakatlarini tahlil qilish asosida tushuntiradi“.

- A) obrazlilik
- B) ramz
- C) voqelik
- D) psixologizm

10. Zamonaviy hikoyanavislikning oddiy hikoyachilikdan farqi nimada?

- A) inson va jamiyat munosabatlaring oddiy tushunilishi.
- B) shaxsiyatdagи murakkabliklar va o‘ziga xosliklarning jamiyat hayotiga bog‘liqligi
- C) ijtimoiy munosabatlarning tasvirlanishi.
- D) ramziy obrazlarning haddan ortiq ko‘p ishlatalishi.

11. O‘zbek hikoyanavis yozuvchilaridan qaysi birining ijodi F.Kafka ijodi bilan qiyoslanadi?

- A) Nazar Eshonqul

- B) Salomat Vafo
- C) Xurshid Do'stmuhammad
- D) O'tkir Hoshimov

12. „Shamolni tutib bo'lmaydi“ hikoyasida ko'zda tutilgan shamol nimaning ramzi?

- A) umr
- B) o'tmish
- C) ozodlik
- D) vaqt

13. „Shamolni tutib bo'lmaydi“ asarining bosh qahramoni Bayna momo tabiatan qaysi asar bosh qahramoniga mengzaydi?

- A) „Akam kelyapti“
- B) „Bevaqt chalingan bong“
- C) „Tobut“
- D) „Qora kun“

14. Adabiyotshunosligimizda hikoya janri mazmun jihatdan qanday guruhlarga ajratiladi?

- A) lirik, psixologik, falsafiy.
- B) satirik, yumoristik, ilmiy-fantastik, lirik, psixologik, falsafiy.
- C) satirik yumoristik, ilmiy-fantastik.
- D) tarixiy va zamonaviy.

15. Nosir Fozilovning „Ustozlar davrasida“ hikoyasi mazmuniga ko'ra qaysi hikoya turiga kiradi?

- A) ocherkka yaqin voqeiy hikoya
- B) falsafiy hikoya
- C) psixologik hikoya
- D) ilmiy-fantastik hikoya

16. Shukur Xolmirzayevning „Odam“ hikoyasida qaysi obraz o'z hayoti so'ngida xotirasini yoqotadi?

- A) Rahima buvi
- B) Abdurahmon
- C) Adolat aya
- D) rais

17. O'tkir Hoshimovning „Muhabbat“ hikoyasidagi yechim voqealari qaysi faslda bo'lib o'tgan edi?

- A) bahor
- B) qish

- C) kuz
- D) yoz

18. Nazar Eshonqulning „Xaroba shahar surati“ hikoyasida shahar surati nimaga qiyoslanadi?

- A) vulqonga
- B) olovga
- C) tog‘ga
- D) jasadga

19. Nazar Eshonqulning „Xaroba shahar surati“ hikoyasida suratdag'i shahar nomi qanday edi?

- A) Qubroviya
- B) Riyozat
- C) Tursoniya
- D) G‘alaba

20. Ulug‘bek Hamdamning qaysi hikoyasiga Rumiyning ikki misrasi epigraf qilib olingan?

- A) „Ko‘zini ochib yumgan odam“
- B) „Unutilgan nay navosi“
- C) „Odam“
- D) „Jajman“

21. Ulug‘bek Hamdamning qaysi hikoyasi Tinch okeani tasviri bilan boshlanadi?

- A) „Odam“
- B) „Haykallar oroli“
- C) „Ko‘zini ochib yumgan odam“
- D) „Unutilgan nay navosi“

22. Xurshid Do‘stmuhhammadning „Jajman“ hikoyasida hammani qo‘rqiitgan maxluqning jajmanligini kim e’lon qiladi?

- A) Zardusht bobo
- B) Ota yong‘oqfurush
- C) Qorovul
- D) Sotuvchi ayol

23. Xurshid Do‘stmuhhammadning „Jajman“ hikoyasida qaysi qahramon jajman nomini yoshligidagi ham eshitgan edi?

- A) Zardusht bobo
- B) Ota yong‘oqfurush
- C) Qorovul

D) Sotuvchi ayol

24. Shukur Xolmirzayevning „Bodom qishda gulladi“ hikoyasida asar qahramoni qaysi kitob mutolaasi bilan mashg‘ul holda tasvirlanadi?

A) „O‘tkan kunlar“

B) „Jaziramadagi odamlar“

C) „Azizim“

D) „Qizil va Qora“

25. Shukur Xolmirzayevning „Nasib etsa“ hikoyasidagi yolg‘onchi obraz kim edi?

A) Bo‘ritosh

B) Zumrad

C) Elyor

D) Berdiyor

26. Shukur Xolmirzayevning „Nasib etsa“ hikoyasidagi muhabbatning shirin havasiga uchib, ota-onasidan voz kechgan obraz qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) Bo‘ritosh

B) Zumrad

C) Elyor

D) Berdiyor

27. „Ishonmasdim. Bu voqeani o‘z ko‘zim bilan ko‘rmaganimda ishonmasdim“. Javoblarda nomi keltirilgan qaysi hikoya yuqoridagi so‘zlar bilan boshlanadi?

A) „Jajman“

B) „Non va iymon“

C) „Nasib etsa“

D) „Tobut“

28. Shukur Xolmirzayevning „Tikan orasidagi odam“ hikoyasida qaysi qush tikanlarga eng bardoshli qush sifatida tasvirlanadi?

A) zarg‘aldoq

B) musicha

C) burgut

D) chumchuq

29. „O‘lik mavsum“ hikoyasi qahramoni o‘z hayotining qaysi bosqichida tasvirlangan?

- A) talabalik davrida
- B) o‘quvchilik davrida
- C) nafaqadagi davrida
- D) ish davrida

30. Ulug‘bek Hamdamning qaysi hikoyasi „tush-hikoya“ ruknida yozilgan?

- A) „Ko‘zini ochib yumgan odam“
- B) „Unutilgan nay navosi“
- C) „Odam“
- D) „Haykallar oroli“

MAVZULAR BO‘YICHA MUSTAQIL ISHLAR VA UNI BAJARISH BO‘YICHA USLUBIY KO‘RSATMALAR

Ma’lumki, hozirgi kunda hayotimizning barcha jabhalari o‘ziga xos tashabbuskorlik, ijodkorlik va faollikni talab qilmoqda. Tabiiyki, bu ta’lim jarayoniga ham bevosita aloqador bo‘lishi bilan bir qatorda soha mutaxassislari oldiga juda katta mas’uliyat yuklaydi. Zero, olyi ta’lim muassasalari ta’lim-tarbiya ishlarini olib borish va kelajagimiz bo‘lgan yoshlarimizni davr talabiga monand har tomonlama yetuk, barkamol shaxs qilib tarbiyalash hamda yuqori salohiyatli mutaxassis kadrlar tayyorlashda asosiy dargoh hisoblanadi.

Ta’kidlash kerakki, yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular qalbiga milliy istiqlol g‘oyalarini singdirishda badiiy adabiyotning roli beqiyosdir. Negaki, o‘quvchi va talabalarning adabiyot darslarida badiiy asarlarni mustaqil ravishda mutolaa qilishlari va asarning mazmun-mohiyatini tahlil qilishi ularning yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar sohibi bo‘lib tarbiyalanishiga muayyan ma’noda ta’sir o‘tkazadi.

Adabiyotning ta’lim-tarbiya jarayonidagi mazkur vazifalarini amalga oshirishda talaba va o‘qituvchi hamkorligi hal qiluvchi omillardan biridir. Demak, bugungi kunda talabalarga adabiyot fanini o‘rgatishda o‘qituvchilarimizning bilim saviyasi, ijodkorlik qobiliyati, pedagogik mahorati juda katta ahamiyat kasb etgan holda keljak avlod taqdirini belgilovchi o‘ziga xos vosita ekanligini unutmasligimiz lozim.

Zero, Birinchi Prezidentimiz I.Karimov ta’kidlaganlaridek, “O‘qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyining o‘zi ana shunday bilimga ega bo‘lishi kerak”.¹

Tabiiyki, bunday darajaga erishish uchun o‘qituvchi katta mehnat qilishi, o‘quvchi-talabalarga sidqidildan bilim berishi, ularning mustaqil ravishda o‘qib o‘zlashtirishi uchun zarur ko‘rsatmalar bera olishi, talabalarni o‘z ustida mustaqil ishslashga

¹ Karimov I. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997. – B. 5.

to‘g‘ri yo‘naltirishi lozim. Bu borada, albatta, talabalarga o‘z istaklari hamda imkoniyati darajasida mustaqil o‘rganish uchun mavzular tavsiya qilish hamda tanlangan mavzu bo‘yicha topshirqlarni bajarishlari uchun uslubiy yordam berib borishi kerak bo‘ladi.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida mustaqil ta’lim ishlarini tashkil etish usullari, ularning ta’lim tizimidagi ilmiy-amaliy ahamiyati o‘quvchi va talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarining shakllanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2009-yil 14-avgustdagи 286-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo‘yicha yo‘riqnomada” “Kadrlar tayyorlash milliy dasturida nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda tanlagen soha bo‘yicha mustaqil faoliyat ko‘rsata oladigan, o‘z bilim va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, ijodkorlik qobiliyatini shakllantirgan holda muammoli vaziyatlarni to‘g‘ri anglay oladigan mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan”, – deya ta’kidlanadi.

Ma’lumki, axborot va bilimlar doirasi jadal kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma’lumotlarni talabalarga faqat dars mashhg‘ulotlarida yetkazib berish qiyin. Shu ma’noda, talabalarning mustaqil ta’lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, dars jarayonida talabalarni o‘qitish bilan bir qatorda ularni ko‘proq mustaqil izlanishga o‘rgatishga katta ehtiyoj seziladi.

Zero, adabiy ta’limda o‘rganilayotgan mavzu, ayniqsa, tahlil qilinayotgan asar ruhiyatini aniq his qilish va undagi obrazlar talqini va taqdirini chuqur idrok etish, ular faoliyatini va asar badiiyatini ilmiy-nazariy tahlil qilishga o‘rgatish lozim. Shundagina talabalarda muayyan asar mazmun-mohiyati, badiiy xususiyati va tarbiyaviy ahamiyati haqida fikr-mulohaza yuritish malakasi shakllanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining yuqorida ta’kidlab o‘tilgan “Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo‘yicha yo‘riqnomada”sida e’tirof etilganidek: “Mustaqil ish talabalarning muayyan fandan o‘quv dasturida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalarning ma’lum bir

qismini o‘qituvchi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqari o‘zlashtirishiga qaratilgan tizimli faoliyat” ekan, bu borada adabiyot fanlaridan mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarini tashkil etishda talabalarni ilmiy – ijodiy faoliyatga yo‘naltirishga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Mustaqil ishlarni tashkil etish va nazorat qilish. “Istiqlol davri o‘zbek adabiyotining nazariy masalalari” fanidan mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha quyida tavsiya qilingan rejada talabalar uchun qulayliklar nazarda tutiladi. Unda fanning tegishli mavzulari misolida ishlab chiqilgan shakllarda mustaqil ishlarni tashkil etish, ularni bajarish tartibi hamda baholash mezonlari hamda uslubiy ko‘rsatmalar aks ettirildi.

“Istiqlol davri o‘zbek adabiyotining nazariy masalalari” fanidan o‘quv rejasiga muvofiq mustaqil ta’lim uchun 52 soat ajratilgan. O‘qituvchi

tomonidan

tavsiya qilingan mavzular (mazkur fanning o‘quv dasturida berilgan ikki mavzu doirasida olindi) bo‘yicha soatlarni taqsimlagan holda talabalarga umumiy nazariy ma’lumotlar hamda maslahatlar beriladi.

Mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishning mazkur usuli orqali talabalarga mavzu hamda uni bajarish turlarini tanlash imkoniyati yaratiladi. Bu orqali esa ularning ilmiy-ijodiy qobiliyatları va salohiyatlarini namoyon etish imkoniyati vujudga keladi. Negaki, talabalar biror bir mavzuni tanlashdan oldin uni bajarish turlari hamda baholash mezonini o‘rganib chiqadilar va qo‘yilgan talablar asosida o‘ziga mos bo‘lgan bajarish turlarini tanlaydi.

Qolaversa, har bir turdagи topshiriqlarning birinchisi nazariy, ikkinchisi esa amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu esa talabalarning ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda olgan bilimlarini yana bir bor mustahkamlash hamda nazorat qilishga zamin yaratadi. Shuningdek, mazkur vazifalarni bajarishda barcha topshiriqlar kompyuterda tayyorlanishini yo‘lga qo‘yish orqali talabalarning kompyuter savodxonligining oshishi hamda tayyorlangan ma’lumotlar to‘plangach, ularning elektron versiyalarini yozib berish orqali barcha talabalarning o‘zaro amaliy tajriba almashish hamda bir-birlarining tayyorlagan ma’lumotlarini olish imkoniyati yaratiladi. Qolaversa, eng yaxshi bajarilgan mustaqil ishlarni o‘qituvchi (ilmiy

rahbar) tahriri va mutaxassislar taqrizi orqali ilmiy jurnallarda nashr etishga tavsiya qilish yoki to‘plam holida nashr ettirish mumkin.

“Istiqlol davri she’riyatida yuz bergan adabiy-ijodiy o‘zgarishlar, yangicha ijodiy tamoyillar tasnifi”

1. Bugungi she’riyatda Vatan va vatanparvarlik motivlari milliy g‘oya va mafkura ifodasi.
2. Zamonaviy o‘zbek she’riyatida tarix va qadriyatlarga munosabat va ifoda ko‘laming kengayishi.
3. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov she’riyatida lirik qahramon muammozi.
4. Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzo she’riyatida ona-Vatan madhi.
5. Shavkat Rahmon, Azim Suyun she’riyatida hayotiy haqiqat va badiiy mahorat.
6. Halima Ahmedova, Zebo Mirzayeva, Xosiyat Bobomurodova ijodida an’anaviylik va novatorlik.
7. Go‘zal Begim va Guljamol Asqarova she’rlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.

“Istiqlol davri o‘zbek hikoyalariagi adabiy-nazariy o‘zgarishlar, o‘zbek modern hikoyalari”

1. Istiqlol davri o‘zbek hikoyalarda bugungi kun qahramonining badiiy tasviri.
2. Hikoyalarda gumanistik mazmun va psixologik tahlilning kuchayishi.
3. Istiqlol davri o‘zbek hikoyalarda ramziy-falsafiy talqin.
4. Mustaqillik davri o‘zbek hikoyailchigi va adabiy tanqid.
5. Istiqlol davri o‘zbek hikoyalarda o‘tmish fojalari talqini.
6. Istiqlol davri o‘zbek hikoyalarda davr va qahramon muammozi.

Izoh: talabalar mavzulardan birini tanlagach, mustaqil ishlarni bajarish turlari aks ettirilgan vazifalardan birini tanlaydilar. Mavzularni bajarish turi takror bo‘lishi mumkin emas. Talabalar tomonidan mavzu va bajarish turlari tanlangach ularni topshirish vaqtি belgilanadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtta maxsus ta’lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagи 19-2018-

sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq ishlab chiqilib tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

Mustaqil ishlar va uni bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar

Nº	Mustaqil ta’limni tashkil etish shakli va mazmuni	Mustaqil ishlarni bajarish turlari	Topshiri sh vaqtি	Mavzuni bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma
1	Mavjud darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha mavzuni o‘rganish	Magistrant-talaba tomonidan ilmiy adabiyotlar va nufuzli ilmiy jurnallardan materiallar yig‘ilib ular tahlili asosida ma’ruza tayyorlash	Ma’ruza mashg‘ul otlari yakunlan gach belgilang an kunda	Asosiy adabiyotlardan tashqari qo‘srimcha ilmiy adabiyotlardan, internet tarmog‘idan foydalanan materiallar yig‘ish, tahlil qilish, ma’ruzaga qo‘ylgan talablar bo‘yicha tartibga solinadi.
		Mavzu bo‘yicha ilmiy adabiyotlar va nufuzli ilmiy jurnallardan konsept olish va tahlil qilish	Amaliy mashg‘ul ot-larda	Mavzuni o‘zida aks ettirgan maqolalardan konsept yig‘iladi va ilmiy tahlil qilinadi.
2	Yangi ilmiy adabiyotlar ni, adabiy	Tanlangan mavzu bo‘yicha “O‘zbek tili va adabiyoti”,	Ma’ruza mashg‘ul otlari yakunlan	“O‘zbek tili va “O‘zbek tili va adabiyoti”, “Jahon adabiyoti” jurnallari

	jarayon tendentsiya larini va estetik tamoyillarni o‘rganish.	“Jahon adabiyoti” kabi ilmiy jurnallardagi maqolalardan konspekt yig‘ish va tahlil qilish	gach belgilang an kunda	va boshqa xorijiy manbalardan mavzuni o‘zida aks etirgan maqolalardan konspekt yig‘iladi va tahlil qilinadi
		Tanlagen mavzu yuzasidan taqdimot tayyorlash	Amaliy mashg‘ul ot-larda	Yangi ilmiy adabiyotlarni, adabiy jarayon tendentsiyalarini va estetik tamoyillarni o‘rganish va tahlil qilishdagi mantiqiy izchillik, asoslangan ilmiy qarashlari yuzasidan taqdimot qilinadi.
3	Mavzu yuzasidan tarqatma materiallar hamda savol va topshiriqlar majmuasi tayyorlash	Tanlangan mavzu bo‘yicha ilmiy manbalardagi ma’lumotlar hamda muayyan ijodkor asarlari yuzasidan test savollari tuzish.	Ma’ruza mashg‘ul otlari yakunlan gach belgilang an kunda	Mavzu bo‘yicha materiallar to‘planadi va ulardan 4 javobdan tashkil topgan 30 ta test savollari tuziladi. Savollarni tuzishda mavzudan chetlashish mumkin emas.
		Ma’lum she’riy asarlar hamda adabiy-nazariy tushunchalar yuzasidan munozarali savollar tuzish.	Amaliy mashg‘ul ot-larda	Mavzu bo‘yicha materiallar to‘planadi va ulardan 15 ta munozarali savollar tuziladi va shaxsiy mulohazalar bilan isbot qilinadi. Savollar badiiy va

				ilmiy asarlar tahlili misolida bo‘lishi mumkin.
4	Mavzu yuzasidan o‘quv- ilmiy- tadqiqot ishlariini bajarish	Ilmiy maqola (tezis) tayyorlash	Ma’ruza mashg‘ul otlari yakunlan gach belgilang an kunda	O‘quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, monografiya va maqolalar hamda boshqa axborot manbalaridan foydalanib materiallar to‘plash, tahlil qilish kuzatishlari natijasini xulosalagan holda maqola yoki tezis tayyorlanadi.
		Ilmiy-nazariy tahlil natijalarini umumlashtirish	Amaliy mashg‘ul ot-larda	Muayyan bir asarni mavjud ilmiy-nazariy qarashlar asosida tahlil qilish va shaxsiy munosabat bildirish, yangicha talqin qilish.

MUSTAQIL ISHLARNI BAJARISH TURLARIGA KO‘RA BAHOLASH MEZONI

1. Mavjud darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha mavzuni o‘rganish

Baho	Magistrant-talaba tomonidan ilmiy adabiyotlar va nufuzli ilmiy jurnallardan materiallar yig‘ilib ular tahlili asosida ma’ruza tayyorlash	Mavzu bo‘yicha ilmiy adabiyotlar va nufuzli ilmiy jurnallardan konspekt olish va tahlil qilish
5 “a’lo”	Mavzu bo‘yicha tayanch so‘z va iboralarning mazmunini to‘g‘ri aks ettirib, aniq tushunchalar bilan bog‘liq ravishda bayon qilib, qo‘sishimcha adabiyotlardan foydalangan holda mantiqiy izchillikka erishilgan, ma’ruza talablari asosida tayyorlangan bo‘lsa	Tahlilda mazmun to‘g‘ri aks ettirilib, aniq tushunchalar bilan bog‘liq ravishda bayon qilinsa, qo‘sishimcha adabiyotlardan foydalangan holda ilmiy dalillansa
4 “yaxshi”	Mavzu bo‘yicha tayanch so‘z va iboralarni ijodiy yondashgan holda aniq manbalarga asoslanib, mazmunan yaqin tushunchalar bilan bog‘langan, ma’ruza talablari asosida yondashilgan bo‘lsa.	Tahlilda mazmun yaxshi aks ettirilib, tushunchalar bilan bog‘liq ravishda bayon qilinsa, ilmiy adabiyotlardan foydalangan holda dalillansa
3 “qoniqarli”	Mavzu bo‘yicha tayanch so‘z va iboralar mazmunini qisman ochib bergen, lekin fikrlar yaxshi ifodalanmagan, ma’ruza talablariga to‘liq rioya qilinmagan bo‘lsa	Tahlilda mazmun qisman aks ettirilib, muayyan tushunchalar bayon qilinsa

2 “qoniqarsiz”	Mavzu bo‘yicha tayanch so‘z va iboralarning mazmunini ochib berolmagan, fiklar tarqoq, uslubiy g‘aliz, ma’ruza talablariga rioya qilinmagan bo‘lsa.	Tahlilda mazmun aks ettirilmasa, muayyan tushunchalar izohlanmasa
-------------------	---	---

2. Yangi ilmiy adabiyotlarni, adabiy jarayon tendensiyalarini va estetik tamoyillarni o‘rganish

Bahο	Tanlangan mavzu bo‘yicha “O‘zbek tili va adabiyoti”, “Jahon adabiyoti” kabi ilmiy jurnallardagi maqolalardan konspekt yig‘ish va tahlil qilish	Tanlangan mavzu yuzasidan taqdimot tayyorlash
5 “a’lo”	Tahlilda mazmun to‘g‘ri aks ettirilib, aniq tushunchalar bilan bog‘liq ravishda bayon qilinsa, qo‘srimcha adabiyotlardan foydalangan holda ilmiy dalillansa	Taqdimot ilmiy isbot hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan, mavzu bo‘yicha tasavvur va tushunchalarni shakllantiradigan bo‘lsa
4 “yaxshi”	Tahlilda mazmun yaxshi aks ettirilib, tushunchalar bilan bog‘liq ravishda bayon qilinsa, ilmiy adabiyotlardan foydalangan holda dalillansa	Taqdimot aniq maqsadga yo‘naltirilgan, mavzu bo‘yicha tasavvurni shakllantiradigan bo‘lsa
3 “qoniqarli”	Tahlilda mazmun qisman aks ettirilib, muayyan tushunchalar bayon qilinsa	Taqdimot muayyan maqsadga yo‘naltirilgan, mavzuga xos ahamiyat kasb etsa
2 “qoniqarsiz”	Tahlilda mazmun aks ettirilmasa, muayyan tushunchalar izohlanmasa	Taqdimot muayyan maqsadga yo‘naltirilmagan, mavzudan yiroq yoki aloqador bo‘lmasa

3. Mavzu yuzasidan tarqatma materiallar hamda savol va topshiriqlar majmuasi tayyorlash

Baho	Tanlangan mavzu bo'yicha ilmiy manbalardagi ma'lumotlar hamda muayyan ijodkor asarlari yuzasidan test savollari tuzish	Ma'lum she'riy asarlar hamda adabiy-nazariy tushunchalar yuzasidan munozarali savollar tuzish.
5 “a’lo”	Test mavzu dorasida aniq manba va faktlar, yangi ma'lumotlar, mantiqan yaqin javoblarga asoslangan holda savollar takrorlanmagan bo'lsa	Savollar fikrlash hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan, mavzu bo'yicha tasavvur va tushunchalarni shakllantiradigan bo'lsa
4 “yaxshi”	Test mavzu dorasida aniq manba va faktlar, yaqin javoblarga asoslangan holda savollar takrorlanmagan bo'lsa	Savollar aniq maqsadga yo'naltirilgan, mavzu bo'yicha tasavvurni shakllantiradigan bo'lsa
3 “qoniqarli”	Test mavzu dorasidagi faktlar, ma'lumotlar, yaqin javoblarga asoslangan, lekin savol va fikr takrorlangan bo'lsa	Savollar muayyan maqsadga yo'naltirilgan, mavzuga xos ahamiyat kasb etsa
2 “qoniqarsiz”	Test mavzudan chetlashilgan, faktlarga tayanmagan, javoblarda mantiqiy yaqinlik saqlanmagan, savollar takrorlangan bo'lsa	Savollar muayyan maqsadga yo'naltirilmagan, mavzudan yiroq yoki aloqador bo'limasa

4. Mavzu yuzasidan o‘quv-ilmiy-tadqiqot ishlarni bajarish

Baho	Ilmiy maqola (tezis) tayyorlash	Ilmiy-nazariy tahlil natijalarini umumlashtirish
5 “a’lo”	Mavzu to‘g‘ri yoritilib, aniq tushunchalar bilan bog‘liq ravishda tahlil va xulosalar hamda foydalangan manbalar ko‘rsatilgan bo‘lsa	Tahlilda mazmun to‘g‘ri aks ettirilib, aniq tushunchalar bilan bog‘liq ravishda bayon qilinsa, qo‘srimcha adabiyotlardan foydalangan holda ilmiy dalillansa
4 “yaxshi”	Mavzu to‘g‘ri yoritilib, aniq tushunchalar bilan bog‘liq ravishda tahlil qilinsa va foydalangan manbalar ko‘rsatilgan bo‘lsa	Tahlilda mazmun yaxshi aks ettirilib, tushunchalar bilan bog‘liq ravishda bayon qilinsa, ilmiy adabiyotlardan foydalangan holda dalillansa
3 “qoniqarli”	Mavzuni yoritishda aniq tasavvur ifodalanmasa, tahlillar umumlashtirilmasa, ijodiy izlanish kam bo‘lsa	Tahlilda mazmun qisman aks ettirilib, muayyan tushunchalar bayon qilinsa
2 “qoniqarsiz”	Mavzuni yoritishda tasavvur ifodalanmasa, misol va tahlillar bo‘lmasa, faqat biror manbadan ko‘chirilgan bo‘lsa	Tahlilda mazmun aks ettirilmasa, muayyan tushunchalar izohlanmasa

X U L O S A

Istiqlol mafkurasining o‘zak mohiyatini komil shaxsni kamol toptirishdek g‘oyat mas’uliyatlari vazifalar tashkil etadi. Bu narsa insonni, voqelikni estetik idrok etish va tasvirlashdagi yangi-yangi badiiy umumlashmalar kashf qilish bilan belgilanadi. Masmunan yangi yo‘nalish kasb etgan mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti jahon sivilizatsiyasi tarixida yangi sahifa ochgan, yangi ozod hayotni yuzaga keltirgan, o‘zbek fenomenini olib kirgan erkin shaxsning obyektiv voqelik bilan uzviy bog‘liqligini, qalb hayoti manzaralarini aks ettirish bosh muddaoga aylandi. Ana shu jarayonda she’riyatda ham, hikoyachilikda ham shaxsning jamiyat, tabiat bilan uzviy bog‘liqligini yoritishda falsafiy-psixologik tahlil madaniyatini chuqurlashtirish yo‘lidan borilmoqda. Negaki, bugungi adabiyotimizda olamni va odamni badiiy idrok hamda ifoda etishda bashariy qadriyatlar nuqtayi nazaridan yondashish ustuvor tamoyilga aylandi. Hikoyachiligidan hayot manzaralarini, jamiyat psixologiyasini shaxs erki, vijdon erkinligi kabi masalalarning ahamiyatini tushuntirish sari yuz burdi.

Aytish mumkinki, A.Muxtor, Sh.Xolmirzayev, N.Eshonqul, X.Do‘stmuhhammad, S.Vafo ijodiy izlanishlarida insonni ulug‘lash, insonning ma’naviy-intellektual imkoniyatlari nechog‘lik ulug‘vorligini aks ettirish jihatidan qanchalik mushtaraklikka ega bo‘lsa, insonni tushuntirish, aks ettirish borasida shunchalik betakrorlikni ko‘ramiz. Bu narsa qahramonlar fe'l-atvorini tabiat xossaliga qiyoslash («Ozodlik», «Tanholik»), timsollar, ramzlar vositasida fikrlash («Maymun yetaklagan odam», «Zulmat saltanatiga sayohat», «Tobut», «Jajman» va h.k.), qahramonlarning o‘ta fikrchan, intellektual qiyofada namoyon bo‘lishida («Fano va baqo», «Mahzuna», «Yolg‘izim siz», «Ko‘z qorachig‘idagi uy», «Kun kechayotgan odam», «Ko‘ngil farishtasi» va h.k.) sezildi. Bu borada, ayniqsa, obrazli ifodaning teran tafakkur asosiga qurilgan fikrlash tarzi yetakchilik qiladi.

Ko‘rinadiki, adiblarimiz insonni tushunishda bir qadar yaqinlik, mushtaraklik tutsa-da, lekin shaxs psixologiyasini badiiy talqin etishda bir-birini aslo takrorlamaydi. Chunki, ular badiiy ifoda prinsiplariga ko‘ra farqlanadilar. Shuni ta’kidlash joizki,

Sh.Xolmirzayev, N.Eshonqul, X.Do'stmuhammad ijodiy izlanishlarini birlashtirib turuvchi chuqur falsafiy asos bor. Ushbu bog'liqlik aloqalarini qisman quyidagi omillarda kuzatish mumkin.

Har uchala adib ham o'z izlanishlarida falsafiy mulohazakorlik ustun bo'lgan ijodkorlardir. Ta'bir joiz bo'lsa, ular mutafakkirona tasvirga moyil hisoblanadilar. Sh.Xolmirzayev hikoyalari («Ozodlik», «Tanhолик», «Mangu yo'ldosh», «Quyosh-ku falakda kezib yuribdi» va h.k.) shafqatsiz realistik asosga qurilgan psixologik tahlil, falsafiy g'oyalalar bilan yo'g'rilgan. N.Eshonqul hikoyalari esa butkul tafakkur shu'lesi bilan sug'orilgan. X.Do'stmuhammadning badiiy tasvir tabiatida teran mushohadakorlikka qurilgan ruhiyat tahlili ustuvor, deya tavsiflash mumkin. Shu ma'noda, N.Eshonqul bilan X.Do'stmuhammadning hikoyalarda («Shamolni tutib bo'lmaydi», «Jajman») qahramonlarning voqelikka, jamiyat hayotiga bo'lgan munosabatlari o'laroq yuzaga kelgan fikrlari, nuqtayi nazarları bir-biridan farqlansa-da, lekin insonni tasvirlashdagi ijodiy prinsiplari umumiyligi jihatdan mushtaraklikka ega. Buni esa keyingi yillarda shakllangan falsafiy-psixologik tasvir madaniyati, deya ta'riflash joiz.

Asqad Muxtorning («Jinni», «Chodirxayol», «Fano va baqo») bilan Sh.Xolmirzayevning mustaqillik davri hikoyachiligi («Ozodlik», «Cho'loq turna», «Qadimda bo'lgan ekan» va h.k.) ma'lum jihatdan umumiylilik kasb etadi. Bu narsa ham insonni badiiy tushunish hamda tushuntirish masalasida oydinlashadi. Chunki, A.Muxtorda ham Sh.Xolmirzayevda ham inson va jamiyat psixologiyasini uyg'unlikda detallashtirib tushuntirish yetakchilik qiladi. Zero, insonning tabiat-jamiyat (ijtimoiy hayot voqeligi) o'rtaсидаги ruhiy robitalarni holatlar, konfliktlar, kechinmalar orqali yoritish shaxs ongi-shuuridagi o'zgarishlarning falsafiy asoslarini takqin etishga katta imkoniyatlar berayotir.

Istiqlol davri she'riyati ham falsafiy psixologizm-ramzlar, timsollar asosiga qurilgan badiiy tafakkur, mohiyatan realistik tasvir prinsiplarini boyituvchi hamda kengaytiruvchi ijodiy uslubiy yo'naliш sifatida yorqin tajassum topib bormoqda. Ushbu hodisada psixologik tahlil – fikrchan kechinmalar holatlarini, kayfiyatlar silsilasini yaratish hisobiga yangi sifat o'zgarishlari voqe bo'layotir. Ko'rindiki, adiblarimizning ijodiy izlanishlarida shaxs qalbidagi,

ongi-shuuridagi o‘zgarishlarni ochishga qaratilgan badiiy idrok yetakchilik qilayotir. Zero, hozirgi davr adabiyotidagi shaxs badiiy talqinida dunyodagi qotib qolgan tushuncha va aqidalarni o‘zgartiruvchi insonning aql-zakovatiga, kuch-qudratiga, ijodiy imkoniyatlariga ishonch tuyg‘usi kuchlidir. Bu adiblarimizning insonni va voqelik jarayonlarini ko‘rish hamda ko‘rsatishdagi ijodiy individualligi hamda estetik prinsiplarining o‘ziga xosligini dalillash bilan birga adabiyotimizda tajassum topayotgan shaxs ma’naviy-intellektual dunyosining nihoyatda teranligidan dalolat beradi.

Ta’kidlash kerakki, she’riy ifodada muloqot shakllari tashqi monolog (muallif bayoniga singdirilgan mushohada va hissiyot), ichki mustaqil rivoya (qahramon ongida kechayotgan ruhiy jarayon), dialogik munosabatlar tizimi (subyektlararo aloqa izchilligi) yordamida gavdalanadi. Unda qahramon holatini goh nutqiy tarqoqlik vositasida, goh bilvosita shoир shaxsiyati orqali tasvirlash miqyoslari aniq seziladi. Lirik matnda tasavvur va taassurot uyg‘unligini ta’minalash aslida uslubiy vositalar mavqeyiga bog‘lanadi. Ifoda dinamizmi takomillashuvida monologlashgan dialog muhim o‘rin egallaydi. Nutq jarayoni mobaynida harakat va holat uyushmasi badiy mahoratga borib tutashadi. Muloqot shakllari nominativ va semantik vazifadoshlikda faol ijodiy a’zoga aylanadi. Rivoya subyekti rang-barangligi va o‘zgaruvchanligi sintaktik birliliklar tuzilishini yaxlit bir tizimga yig‘adi. Aynan badiiy nutq tadrijida kuzatiladigan muntazam o‘sish darajasi mazmun va mantiq uyg‘unlashuviga imkoniyat tug‘diradi.

She’riyatda dialoglar qo’llash orqali davr va qahramon xarakterini yaratishda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga ahamiyat berish yaratilgan she’rlar badiiyatining yuksalishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Kuzatilgan she’rlardagi dialoglar mohiyatiga ahamiyat bersak, ularda shoirlar odamlarning fe’li va faoliyatidagi fazilat-u nuqsonlarni shunchaki qayd etish bilan cheklanayotgani yo‘q.

FOYDALANILGAN АДАБИЁТЛАР

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016.
3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
4. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
5. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги РF-4947 сонли Фармони.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари” тўғрисидаги қарори (“Халқ сўзи” газетаси, 2017 йил, 21 апрель)
7. Адабиёт назарияси. Адабий асар. I жилд. – Т.: Фан, 1978.
8. Адабиёт назарияси. Икки жилдлик. Адабий тарихий жараён. II жилд. – Т.: Фан, 1979.
9. Арагон Л. Литература и искусства. – М.: Гослитиздат, 1957.
10. Аристотель. Поэтика. Об искусстве поэзии. – М.: Гослитиздат, 1957.
11. Белинский В.Г. Полное собрание сочинений. – М.: Наука, 1954.
12. Борев Ю.В. Эстетика. – М.: Политиздат, 1988.
13. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002.
14. Гегель. Сочинения. – М.: Художественная литература, 1958.
15. Ёкубов И. Бадиий – эстетик сўз сехри. – Т., 2011
16. Йўлдошев Қ. Ёник сўз. – Т.: Янги аср авлоди, 2006.
17. Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматоув У., Шарафиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1999.

18. Каримов Н. XX аср ўзбек адабиёти манзаралари. – Т.: Шарқ, 2010.
19. Каримов Н. Истиқлол даври адабиёти. – Т.: Янги нашр, 2010.
20. Каримов X. Шукур Холмирзаев. – Т.: Қатортол-Камолот, 1999.
21. Каримов X. Давр ва ижод. – Т.: Фан, 2001.
22. Каримов X. Истиқлол даври адабиёти. – Т.: Янги нашр, 2010.
23. Каримов X. Адабиёт назариясининг илмий асослари. – Т.: Янги нашр, 2010.
24. Каримов Б. Маънавият насрнинг олтин калити. – Т.: Жаҳон адабиёти, 2001.
25. Каримов Б. Рухият алифбоси. Адабий-илмий мақолалар тўплами. – Т.: Faafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016.
26. Каримов F. Баркамоллик. – Т.: Маънавият, 1999.
27. Мирзаев С. XX аср ўзбек адабиёти. – Т.: Янги аср авлоди. 2005.
28. Мирзаев С. Ҳаёт ва адабиёт. – Т.: Шарқ, 2001.
29. Мирқосимова М. Сўз изтироблари. – Т.: Алишер Навоий номидаги Миллий кутубхона нашриёти, 2010.
30. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Т.: Маънавият, 2000.
31. Норматов У. Тафаккур ёғдуси. – Т.: Фикр медиа, 2005.
32. Норматов У. Ижод сехри. – Т.: Шарқ, 2007.
33. Норматов У. Янги ўзбек адабиёти. Ўқув қўлланма. – Т.: Университет, 2007.
34. Норматов У. Ижодкорнинг даҳлсиз дунёси. – Т.: Мумтоз сўз, 2008.
35. Поспелов. Г.Н. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 1978.
36. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Т.: Шарқ, 2007.
37. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Т., 2004.
38. Солижонов Й. Ҳақиқатнинг синчков қўзлари. –Т.: Миллий кутубхона, 2009.

39. Солижонов Й. Ҳақиқатнинг синчков кўзлари. – Т.: Алишер Навоий номидаги Миллий кутубхона нашриёти, 2009.
40. Теория литературы. Основные проблемы в историческом освещение роды и жанры литературы. – М.: Наука, 1964.
41. Умурев Ҳ. Адабиёт назарияси. – Т.: Шарқ, 2002.
42. Уэллик Р., Уоррен О. Теория литературы. – М.: Прогресс, 1978.
43. Шарафиддинов О. Ижодни англаш баҳти. – Т.: Шарқ, 2004.
44. Хализев В. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 1999.
45. XX аср ўзбек шеърияти антологияси. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2007.
46. Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – М.: Художественная литература, 1977.
47. Храпченко М.Б. Горизонты художественного образы. – М.: Художественная литература, 1986.
48. Қахрамонов Қ. Адабий танқид: янгиланиш жараёнлари. – Т.: Алишер Навоий номидаги Миллий кутубхона нашриёти, 2009.
49. Ҳамдам У. Янгиланиш эктиёжи. – Т.: Фан, 2007.
50. Ҳаққулов И. Ижод иқлими. –Т.: Фан, 2009.
51. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari –Т.: Kamalak, 2016.
52. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari –Т.: Akademnashr, 2018.

Elektron axborot manbalari:

1. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi sayti
2. <http://ensiklopediya.uz> – O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi sayti
3. <http://ziyouz.uz> – O‘zbek va jahon adabiyoti portalı
4. <http://ziyonet.uz> – O‘zbekiston milliy ta’lim portal
5. <http://kitob.uz> – Respublika bolalar kutubxonasi
6. <http://www.infolib.uz> – Respublika Axborot kutubxona markazi
7. <http://www.Khurshiddavron.uz>.

M U N D A R I J A

KIRISH	4
--------------	---

ISTIQLOL DAVRI SHE'RIYATIDA YUZ BERGAN ADABIY- IJODIY O'ZGARISHLAR, YANGICHA IJODIY TAMOYILLAR TASNIFI

1.1. She'riyatda dialog yaratish mahorati	6
1.2. Dialogda falsafiy-psixologik talqinning o'rni	25
1.3. Muloqot shakllarida ritorik munosabat hoslil qilish.....	40

ISTIQLOL DAVRI O'ZBEK HIKOYALARIDAGI ADABIY- NAZARIY O'ZGARISHLAR, O'ZBEK MODERN HIKOYALARI

2. 1. Qahramon xarakterini yaratishning yetakchi tamoyillari ..	44
2.2. Badiiy talqinda ramziy ma'nodorlik	73
2.3. Umuminsoniy qadriyatlar talqinida ijodiy individuallik	99

Mavzular bo'yicha nazorat testlari 127

 Mavzular bo'yicha mustaqil ishlar va uni bajarish

bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar 133

 Xulosa 141

 Foydalanilgan adabiyotlar 144

MATYAKUPOV S. G.

**ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK
ADABIYOTINING NAZARIY
MASALALARI**

(she’riyat va hikoyachilik)

Muharrirlar:	Abdukamol Abdujalilov
Texnik muharrir:	Yunusali O‘rinov
Badiiy muharrir:	Shoimov Zuxriddin
Musahhiha:	Dilfuza Beknazarova
Dizayner:	Yunusali O‘rinov

Nash.lits. № **2013-975f-3e5e-d1e5-f4f3-8537-2366**, 20.08.2020 y.

Terishga 24.08.2020-yilda berildi. Bosishga 7.11.2020-yilda ruxsat etildi. Bichimi: 60x84 1/16. Ofset bosma. «Times New Roman» garniturasi. Shartli b.t. 12.0. Nashr b.t. 11.16.

Adadi 100 nusxa. Buyurtma №83.

Bahosi shartnomaga asosida.

«Tafakkur avlodi» nashriyoti, 100190, Toshkent shahri,
Yunusobod-9, 13-54. e-mail: tafakkur_avlodi@mail.ru

«Tafakkur avlodi» MCHJ bosmaxonasida bosildi.
Toshkent shahri, Olmazor tumani, Nodira ko‘chasi, 1-uy.
Telefon: +99890 000-33-93